

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Ruziyev Davron Yuldashevich

ANSAMBL IJROCHILIGI

*Respublika Oliy o'quv yurtlari bakalavriatining 5150700 —
“Cholo'u ijrochiligi(xalq cholg'ulari)” yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma*

Buxoro

UO'K 780.6

85.315

K 87

Ro'ziyev D.Yo'.

Ansambri ijrochiligi [Matn]: o'quv qo'llanma / Ruziyev D.Yu., - Buxoro:
.....nashriyoti, 20..... - b.

KBK 85.315

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy ta'lim tizimi 5150700- Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) yo'nalishining "Ansambl sinfi" (xalq cholg'ulari) fani bo'yicha tayorlangan bo'lib, unda ansambllar haqida, ansambl ijrochiligi vositasida talabalarga bilim berish, mashg'ulotlarni o'tkazish, asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash va asarlar ustida ishlash usullari bilan bir qatorda ijro mahoratini o'stirish uchun musiqiy asarlar DTS ga asoslangan holda keltirilgan.

Mas'ul muharrir:

Sanoqul Do'stov - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Mustafo Bafoev - O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi

Nishon Kiyamov – Samarqand davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Baxrom Madrimov – Bux.DU "San'atshunoslik" fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, professor v.b.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 20___-yil _____gi ___-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

Данная учебная пособия основан на предмете «Ансамблевой класс» (народные инструменты) системы Высшего образования 5150700 - Инструментальное исполнение (народные инструменты).

В пособии описывается история музыкальных инструментов, типы ансамблей, как обучать студентов через ансамблевое исполнение, как проводить занятия, как строить процесс обучения произведениям и как работать над произведениями. Есть также музыкальные произведения, основанные на DTS, для повышения исполнительских навыков учащихся.

Отвественный редактор:

Санакул Дустов - кандидат педагогических наук, доцент

Рецензенты:

Мустафо Бафаев - профессор Государственной консерватории Узбекистана.
Заслуженный деятель искусств Узбекистана.

Нишон Киямов – догктор педагогических наук(DSc), доцент
Самаркандского государственного университета

Бахрам Мадримов - Декан факультета «Искусствоведение» Бухарского
государственного университета, и.о. профессора, кандидат педагогических
наук

This tutorial is based on the Higher Education Ensemble Class (folk instruments) subject 5150700 - Instrumental Performance (folk instruments). The manual describes the history of musical instruments, the types of ensembles, how to teach students through ensemble performance, how to conduct classes, how to build a learning process for works and how to work on works. There are also DTS-based pieces of music to enhance students' performing skills.

Responsible editor:

Sanakul Dustov - Candidate of Pedagogical Sciences, docent

Reviewers:

Mustafo Bafaev - Honored Art Worker of Uzbekistan, Professor of the State
Conservatory of Uzbekistan

Nishon Kiyamov - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), docent Samarkand
State University

Bahram Madrimov - Dean of the Faculty of "Art Criticism" of Bukhara State
University, Acting professor, candidate of pedagogical sciences

Annotatsiya

Xalqimizning ma'naviy madaniyatini o'stirishda o'zbek xalq cholg'u asboblari muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Cholg'u asboblarning ovozi jarangdorligi, diapazonining kengligi, rang-barang musiqa asarlarini ijro etishga bo'lgan imkoniyatlari turli ansambl jamoalarining tuzish va faoliyat yuritishini ta'minlay oladi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Cholg'u ijrochiligi" ta'lim yo'nalishi "Ansambl sinfi(xalq cholg'ulari)" fani DTS talablariga muvofiq tayorlangan bo'lib, unda milliy cholg'u asboblari ansambli faoliyatiga oid quyidagi masalalar yoritilgan:

- Ansambl haqida umumiy tushuncha;
- Ansambl sinfida ta'limning maqsadi va vazifalari;
- Ansambl sinfi fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- Cholg'ular ijrochiligining tarixiy taraqqiyoti;
- Ansambl jamoalarining rivojlanish bosqichlari;
- Ansambl turlari va ularda ijrochilik;
- Bir xil cholg'ulardan tashkil topgan ansambl;
- Turdosh cholg'ular ansambli;
- Turli cholg'ulardan tarkib topgan aralash ansambl: Duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septet, oktet, nonent ansambllari;
- O'zbek xalq cholg'u asboblarining xususiyatlari;
- Ansamblda ijro etish qoidalari;
- Ansambl faoliyatini boshqarish;
- Ansambl mashg'ulotlarini o'tkazish uchun tavsiya va ko'rsatmalar;
- Ansambl ijrochiligida nahoratni o'stirish masalalari;
- Ansamblda asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash;
- Musiqa asarlari ustida ishlash;
- Ansambl faoliyati natijalarini namoyish etishda o'qituvchi va talabalarning roli;
- Ansambl ijrosi uchun musiqa asarlari.

Mazkur o'quv qo'llanma 5150700-bakalavr yo'nalishininig talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ansambl uchun moslashtirilgan musiqa asarlari va innovatsion texnologiyalarda o'z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir.

Аннотации

Узбекские народные инструменты играют важную роль в развитии духовной культуры нашего народа. Звук инструментов, широта диапазона и возможности исполнять разнообразные музыкальные композиции позволяют формировать и функционировать разным ансамблям.

Учебная пособия подготовлен в соответствии с требованиями СТО предмета «Ансамблевой класс (народные инструменты)» по направлению «Инструментальное исполнение», который охватывает следующие вопросы, связанные с деятельностью национального ансамбля музыкальных инструментов:

- Общее представление об ансамбле;
- Цели и задачи обучения в ансамблевом классе;
- Требования к знаниям, умениям и навыкам студентов по предмету ансамблевого класса;
- Историческое развитие инструментального исполнительства;
- Этапы развития ансамблевых коллективов;
- Виды ансамблей и их исполнение;
- Ансамбль из одноименных инструментов;
- Ансамбль родственных инструментов;
- Смешанный ансамбль, состоящий из разных инструментов: дуэт, трио, квартет, квинтет, секстет, септет, октет, нонет.
- Особенности узбекских народных инструментов;
- Правила исполнения в ансамбле;
- Ансамблевое управление;
- Рекомендации и инструкции по проведению ансамблевых занятий;
- Вопросы повышения навыков игры в ансамбле;
- Проектирование учебного процесса в ансамбле;

- Работа над музыкальными произведениями;
- Роль преподавателей и студентов в презентации результатов ансамбля;
- Музыкальные произведения для ансамблевого исполнения.

Ученая пособия предназначен для студентов бакалавриата - 5150700 и примечателен тем, что в нем рассматривается инструментальных исполнений в области ансамблевой музыки и инновационных технологий.

Annotation

Uzbek folk instruments play an important role in the development of the spiritual culture of our people. The sound of the instruments, the breadth of the range and the ability to perform a variety of musical compositions allow for the formation and functioning of different ensembles.

The textbook was prepared in accordance with the requirements of the STO of the subject "Ensemble class (folk instruments)" in the direction of "Instrumental performance", which covers the following issues related to the activities of the national ensemble of musical instruments:

- General idea of the ensemble;
- Goals and objectives of teaching in the ensemble class;
- Requirements for knowledge, skills and abilities of students in the subject of the ensemble class;
- Historical development of instrumental performance;
- Stages of development of ensemble collectives;
- Types of ensembles and their performance;
- An ensemble of instruments of the same name;
- An ensemble of related instruments;
- Mixed ensemble consisting of different instruments: duet, trio, quartet, quintet, sextet, septet, octet, nonent.
- Features of Uzbek folk instruments;
- Rules for performing in an ensemble;

- Ensemble control;
- Recommendations and instructions for conducting ensemble classes;
- Questions of increasing the skills of playing in the ensemble;
- Designing the educational process in the ensemble;
- Work on musical compositions;
- The role of teachers and students in demonstrating the results of the ensemble;
- Works on an ensemble performance.
- Musical works for ensemble performance.

The scholarly manual is intended for undergraduate students - 5150700 and is notable for the fact that it examines instrumental performances in the field of ensemble music and innovative technologies.

Pedagogik annotatsiya

O'quv fani: **Ansambl sinfi (xalq cholg'ulari)**

Auditoriya mashg'ulotlari: **180 soat**

O'quv qo'llanma nomi: **Ansambl ijrochiligi**

Ishtirokchilar: **Cholg'u ijrochiligi(xalq cholg'ulari) yo'nalishida tahsil olayotgan II-III-IV bosqich bakalavrlari.**

Mazkur o'quv qo'llanmada: 5150700 – Cholg'u ijrochiligi(xalq cholg'ulari) yo'nalishi ansambl sinifida an'anaviy va xalq cholg'u asboblari aralash tarkibli ansambl ijrochiligini o'rganish, xalq kuylari va zamonaviy kompozitorlar asarlarining an'anaviy va xalq cholg'u asboblari aralash tarkibli ansamblar uchun moslashtirilgan asarlarini yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, ansambl faoliyatini boshqarish, musiqa asarlari ustida ishlash, mashg'ulotlarini o'tkazish, ijrochilarning mahoratini o'stirish usullari, ansamblning tashkiliy va ijodiy faoliyati haqida tavsiyalar hamda ko'rsatmalar ifodalangan.

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ansambl sinfi fani an'anaviy, shuningdek, aralash ansambli – dyet, trio, kvartet, kvintet va undan ortiq tarkubdagi ansambllar uchun yuqori malakali sozanda ijrochilarni tayyorlashga asoslanadi. Ansambl sinfi ijrochilarning ko'p jihatdan takomil tarzda voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi, xususan nafaqat mohir ijrochi, balki keng dunyoqarashga ega sozanda-ijrochi bo'lishida o'z o'rniga ega bo'ladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim tizimida yetuk malakali, ijodkorlik qobiliyatiga ega, kasbiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar asosida olib boradigan mutaxassislar tayorlash muhim ahamiyatga ega.

Mazkur fan yuzasidan qo'yilgan asosiy **maqsad** - talabalarda musiqa san'ait sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi ansambl hamda orkestrlarda mohir sozanda-ijrochilik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, yetuk malakali, ijodkorlik qobiliyatiga ega, kasbiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar asosida olib boradigan mutaxassislarni tayorlash. Musiqa san'ati tizimidagi ta'lim muassasalarida yoshlarga ansamblida sozandalikning xususiyatlarini o'rgatishda nimalarga e'tobor berishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga ansambl jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida malakali sozanda-ijrochilarni tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, ansambl ijrochilarini tayorlash,

ularida ushbu fan bo'yicha bilimni, estetik didni mustahkamlash va metodik uslub asosida mustaqil fikrlashga o'rgatishni nazarda tutadi.

Ansambllar sinfi fan sifatida o'qitilishi jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

– cholg'u musiqasini, an'anaviy, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish;

– cholg'uda yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish.

– cholg'uni avaylash, asrash va hamisha soz holatida saqlash.

– jamoaviy ijrochilikda bir-birini eshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish.

Talabalar fanning vazifalarini chuqur tushunib olishi, musiqiy meros namunalarni puxta o'zlashtirib borishlari jarayonida o'zbek xalq cholg'u asboblarining tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro usullari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Faqat xalq cholg'u va ulardan tuzilgan an'anaviy va aralash ansambllar hamda ularning ijro xususiyatlarini o'rganish bilan chegaralanmay, balki birinchi darslardan oq boshqa xalqlarning turli ansambllari, butun dunyoga keng tarqalgan boshqa cholg'ular haqida ham kerakli bilimlarni olishlari talab etiladi. Talabalar mashg'ulotlar jarayonida:

– ansambl rahbarining badiiy ifoda yuzasidan talabini bajarishi;

– an'anaviy va aralash ansambllar ijrochiligi uslublarini o'rganishi;

– repertuardagi asarlarni puxta o'rganib borishi;

– konsert amaliyoti **haqida keng tasavvurga ega bo'lishi**;

– an'anaviy va aralash ansambl musiqasi asrlarini ijro etishni hamda aralash ansambl partiyalarini o'qishni;

– turli xil musiqiy asarlarning xususiyatlarini;

– cholg'u guruhlarining o'zaro ansambl munosabatlarini;

– ansambl cholg'ularining ifoda imkoniyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

– ansambl professional ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik;

– ansambl asarlarini mohirona ijro etish;

– nota matnini o'qishda adashmaslik;

– aralash ansambl partiyalarini mukammal o'zlashtirish;

– ovoz yozish studiyasida ish olib borish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va usuliy jihatidan uzviyligi: Ansavbl sinfi fani xalq cholg'uchilarida ijrochilik, xalq cholg'ulari orkestri, ansambl bilan ishlash uslubiyoti, xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti, turdosh cholg'ularni o'rganish, ijrochilik san'ati tarixi, musiqa asarlari tahlili, xalq kuylarini notalashtirish, xalq musiqa ijodiyoti, dirijyorlik, ijrochilik san'ati tarixi, konsert ijrochiligi tarixi, garmoniya, polifoniya fanlari bilan bevosita bog'liqlikda o'tiladi. Shuningdek, jahon musiqa tarixi, o'zbek musiqa tarixi, sharq xalqlari musiqasi tarixi, musiqa pedagogikasi va psixologiyasi fanlari bilan ham bevosita bog'liq.

Fanning ta'limdagi o'rni: Mazkur ta'lim yo'nalishidagi ixtisoslik fanlar ichida ansavbl sinfi fani talabalarga an'anaviy va aralash ijrochilik mahoratini o'stirish, cholg'uchilar ansambli hamda orkestrni tashkil etish va ular bilan ishlash, jamoaga rahbarlik qilish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Talabalar ushbu fanni ikkinchi kursdan boshlab o'zlashtirishlari jarayonida o'zbek xalq kuylarini ijro etish malakalarini o'zlashtirib O'zbekiston bastakorlari asarlari, chet el kompazitorlari asarlari, qardosh xalqlar kuylari, rus bastakorlari asarlaridan namunalar ijro etish bo'yicha ijrochilik mahoratlarini o'stirib boradilar.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar: Fanni o'rgatishdagi yangi pedagogik texnologiyalar hozirgi kun talabi - talabalarga nazariy va amaliy bilim berishni tushuntirish, uqtirish, bayon qilish, cholg'u asboblari ijro etib berish orqali amalga oshirish bilan bir qatorda ko'proq ularning bilim olishga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'stirish hamda ularning mustaqil bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishni nazarda tutmoq zarurligini taqozo qiladi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti kursining maqsad va vazifalari.
2. Ansambl san'atining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari.
3. Jahon va O'zbekiston cholg'u san'atidagi oqimlar, janrlar paydo bo'lish evollyutsiyasi.
4. Ansambl turlari.
5. Ansambl texnikasi asoslari.
6. Notadan o'qish va ijro etish.
7. Ovozlarining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Konsert ijrochiligiga tayorlash uslublari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular.

1. Ijrochilik mahoratini rivojlantirish ustida ishlash.
2. Xalq kuylari va jahon kompozitirlari asarlarini o'rganish, yodlash, ijro etish.
3. Asarlar tanlash.
4. Musiqiy asarlarni ijro etishda barcha ijro usullaridan foydalanish.
5. Asarlarni mohirona ijro etish ustida ishlash.
6. Xalq kuylarini ijodiy o'rganish.
7. Turli janrlarda asarlarni ijro etish.
8. Mumtoz bastakorlarning asarlaridan birini o'rganish va yoddan ijro etish. Ijrochilik texnikasini rivojlantirish ustida ishlash.

Mustaqil o'zlashtirishlardan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- ansambl ijrochiligi xususiyatlari va talablarini;
- ansambl sinfi ijrochiligiga xos o'zbek xalq musiqasi va boshqa xalqlar musiqasini;
- cholg'ularning texnik va ifoda imkoniyatlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- ansambl sinfi ijrochiligi namunalarining tahlilini;
- ansambl sinfi xususiyatlarini;
- jamoada ishtirok etuvchi cholg'ularning badiiy-texnik imkoniyatlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- duet, trio, kvartet va boshqa tarkibidagi ansambl sinflarida ijro etish;
- cholg'u guruhlari, yakka ijro, cholg'u ansambl sinfi va fortepiano uchun murakkab partiyalarni, asarning umumiy obrazi, musiqa xarakterini ifoda etgan holda tahlil qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- *Amaliy mashg'ulotlar;
- *Interfaol keys-stadiylar;
- *Kollokvium;

*Taqdimotlarni qilish;

*Individual loyihalar;

*Jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada uyritish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratda ijro dasturini topshirish.

Kirish

Mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi madaniy sohada ham ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lib, shaxs madaniyatini shakllantirish, turmush darajasini yuksaltirish, kishilarda ma'naviy tafakkurni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning boisi jamiyat madaniy hayotini yanada rivojlantirish hamda yoshlarni musiqa san'ati vositasida ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolga yetkazish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Musiqa san'atining inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotidagi tutgan o'rnidan kelib chiqib, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, yuksak estetik va axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlashga katta ahamiyat qaratilshi davr talabidir. Shu maqsadda umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya muassasalarida musiqiy madaniyat targ'ibotini amalga oshirish, yoshlarning musiqiy madaniyati saviyasini kengaytirish, milliy cholg'u asboblari ijro etish, xor, orkestr, ansambl va boshqa san'at turlarini takomillashtirish, elektron dasturiy mahsg'ulotlar orqali musiqani o'qitish jarayonlarini texnologiyalashtirishni yanada keng yo'lga qo'yilishi yoshlarni musiqiy-estetik tarbiyashda muhim ahamiyat kasb etadi

Musiqiy ta'lim-tarbiya shaxsni ma'naviy kamolotining ta'minlovchi omillardan biri bo'lib, har bir inson tuyg'ulariga ta'sir etish bilan uni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Shunga ko'ra, hozirgi zamon musiqa pedagogikasi ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Musiqiy ta'lim-tarbiya sohasiga oid ishlar, ayniqsa mamlakatimizda mustaqillikka erishilganda so'ng katta islohotlar bilan amalga oshirila boshlandi. Ozbek musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Musiqa ta'limi tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish borasida qator davlat hujjatlari qabul qilindi, darsliklarning yangi avlodlari nashr qilindi, dasturlar tayyorlanib, o'quv-metodik adabiyotlar chop ettirildi.

Mamlakatda oquvchi-yoshlarni musiqa ijro san'atiga jalb qilishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, musiqiy madaniyat ta'limini ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida modernizastiyalash, musiqa o'qituvchilarining sozandalik-ijrochilik tayyorgarligini didaktik ta'minlash, musiqali folklor jamoalarining tarbiyaviy xususiyatlariga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Shunday ishlar yoshlarda dunyoviy musiqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim usullari va ularning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini oshirish, pedagog-mutaxassislar tayyorlash, o'quv mazmunini musiqiy madaniyat hamda g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat va vatanparvarlik tarbiyasi integrastiyasi asosida shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbek xalq cholg'u asboblari va ularda ijro etish hozirgi davrda ham xalqimizning musiqa madaniyati hayotida muhim o'rin tutib kelmoqda. Cholg'u asboblarida ijro etish san'atini har tomonlama rivojlantirib borilshi xalqning musiqa madaniyatini o'stirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Cholg'u asboblarida ijro etishni yangi bosqichlarga ko'tarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib birinchi navbatda, shaklan va mazmunan turli ansamblarni tashkil etish imkonini kengaytiradi. Ikkinchidan esa, ko'p ovozli ijro san'ati - o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri faoliyatini rivojlantirish imkonini ham hosil qiladi.

Ma'lumki, musiqa ta'limini amalga oshirib borayotgan o'quv muassasalarida o'zbek xalq cholg'u asboblarida o'qitish uslubiyoti yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lib amaliy ishlarda unumli qo'llanilib kelinmoqda.

Mazkur qo'llanmada o'zbek xalq cholg'u asboblarida ta'lim berishning bir qator omillari bayon etiladi. Jumladan, o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli, ularning ijro imkoniyatlari, an'anaviy hamda aralash takibli ansambl shaklida faoliyat yuritishiga xos materiallar bayon etiladi.

Shuningdek, ansambl faoliyatini boshqarish, pedagog uchun ko'rsatmalar, o'zbek xalq cholg'u asboblari aralash takibli ansambl partiturasida ustida ishlash, mashg'ulotlarni o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar, ansambl ijrochilarining mahoratini o'stirish masalalari hamda faoliyat natijalarini namoyish etishda pedagogning roli haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmada ansambl mashg'ulotlarini tashkil qilish, ijrochilarning cholg'u asboblarida ijro etish mahoratini tarbiyalash, jamoa bo'lib ijro etishga oid musiqa asarlari berilgan.

BIRINCHI QISM

Ansambl haqida tushuncha

Ansambl haqida I.A.Akbarov “Musiqqa lugʻti” kitobida quyidagi taʼriflarni beradi: Ansambl (fr. ensemble - birgalikda) – 1. Vokal yo cholgʻu musiqasi asarini bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir toʻda artistlarni bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. Uncha katta boʻlmagan ashulachi (vokal) yo cholgʻuchi(sozanda)lar jamoasi uchun yaratilgan musiqqa asari.¹

Demak, ansambl birgalikda ijro etish maʼnosini bildiradi. Oddiy qilib aytganda ansambl oʻziga xos koʻrinish, shakl, ijrochilar toʻdasibi. Uning tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi alohida dunyoqarash, mahorat, saviyaga ega. Ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlarni mohiyatini gʻoyaviy va badiiy idrok etishi, oʻz mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, oʻrni kelganda jamoaga yordam beruvchi, oʻzaro hamkorlikda yondashib muhim vazifalarni bajarib borishi tarkibning eng asosiy vazifalaridandir

Ansambl oʻz tarkibidagi ijrochilar soniga qarab turlicha ataladi. Masalan, ikki ijrochidan iborat boʻlsa – duet, tarkibida uch ijrochini birlashtirgan boʻlsa – trio, toʻrt ijrochi boʻlsa – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, etti ijrochisini oʻzida birlashtirgan boʻlsa – septet, sakkiz ijrochisiga ega boʻlsa – oktet deb aytiladi.

Ansambl iborasi baʼzi holatlarda orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga, shuningdek, orkestr, xor, balet janrlarining kichik bir toʻdasiga nisbatan ham qoʻllaniladi. Shuningdek, opera, oratoriya, kantata va musiqali drammalarda ham ansambl boʻladi. Yuksak ijrosi bilan oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan, badiiy jamoalarga nisbatan ham ansambl iborasi qoʻllaniladi. Masalan, ashula va raqs ansambli, “Lazgi” ansambli, vokal-cholgʻu ansambli, folklor ansambli, maqomchilar ansambli, cholgʻu asboblari ansambli, dutorch qizlar ansambli va hokazo.

Ansambl sinfida taʼlimning maqsadi va vazifalari

Maʼlumki, Oliy taʼlim tizimida malakasi yetuk shakllangan, puxta bilim, ijodkorlik qobiliyatiga ega, kasbiy muammolar bilan bogʻliq boʻlgan barcha ishlarni mustaqil hal qila oladigan, oʻquv-uslubiy, taʼlim-tarbiya jarayonini

¹ .Akbarov I.A. Музыка луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 17 бет.

zamonaviy texnologik majmualar asosida olib boradigan mutaxassislar tayorlash muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, musiqa vositasida beriladigan ta'lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishini, talabalarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini yanada rivojlanishiga, milliy g'urur va kasbiga bo'lgan qiziqish, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni oshirishga, musiqiy bilim doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qilishini alohida ta'kidlash joiz

Ansamb l sinfi fani yuzasidan qo'yilgan asosiy **maqsad** - talabalarda musiqa san'ait sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi ansamb l hamda orkestrlarda mohir sozanda-ijrochilik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, yetuk malakali, ijodkorlik qoboliatiga ega, kasbiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar asosida olib boradigan mutaxassislarni tayorlash. Musiqa san'ati tizimidagi ta'lim muassasalarida yoshlarga ansamblda sozandalikning xususiyatlarini o'rgatishda nimalarga e'tobor berishdan iborat.

Demak, ansamb l sinfi dasturida belgilangan talablarni bajarish orqali talabalarning cholg'u ijrochiligi sohasida musiqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda musiqa haqida keng tushuncha berish bilan musiqadan ta'sirlanishni tarkib toptirish, musiqa asarlari ijro etish uchun adabiyotlardan foydalanish, har bir musiqa asarini amaliyot bilan bog'lash, chalgan asarlarini namoyish etish, bo'lajak pedagogik faoliyatida bilimlarini qo'llay bilishlariga o'rgatish fanning asosiy maqsadidir.

Fanning vazifasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek – talabalarga, ansamb l(orkestr) badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lim muassasalarida malakali sozanda-ijrochilarni tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, ansamb l ijrochilarini tayorlash, ularda ushbu fan bo'yicha bilimni, estetik didni mustahkamlash va metodik uslub asosida mustaqil fikrlashga o'rgatishni nazarda tutadi.

Shu nuqnai nazardan qaraganda, ansamb l sinfi talabalarni kasbiy malakalarini egallash va kasbiy faoliyatida qo'llashda musiqiy bilimdonlikning zaruriy asoslarini tarkib toptirishdan iboratdir. Fan mavzularining nazariy va amaliy jihatdan o'qitishning uslublarini keng qo'llash, tez, oson o'zlashtirib, uzoq vaqt yodda saqlashlariga yordam beradi. Unda ansamb l sinfining asosiy mazmunlari qamrab olinib, ko'proq an'anaviy va ko'p ovozli ansamb l sinfining musiqa asarlari misolida o'rganiladi. Ansamb l sinfi fani mashg'ulotlari rang-barang musiqa asarlarini o'rganish, ularni tahlil qilish, ijrochilik malakalarini o'stirib borish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda o'tkazib boriladi. Mashg'ulotlar jarayonida olingan bilimlar talabaning kelajakdagi amaliyotiga qo'lanishi, cholg'u asbobida yakka tartibda hamda jamoaviy ijro shaklida davom ettiriladi.

Shunday qilib, ansamb l sinfi faninning muhim vazifalarini quyidagi ko'rinishlarda izohlash mumkin:

- Talabalarning musiqani chuqur idrok etish malakalarini o'rtirish;
- Umumiy musiqiy-nazariy savodxonligini o'rtirish;
- Ansamblda ijro etish malakalarini o'rtirish;
- Sozanda-ijrochilik madaniyatini o'rtirish;
- Ansamlni tashkil etish metodikasini o'rgatish;
- Ansamlni boshqarish qobiliyatini shakllantirish;
- Musiqa pedagogikasi va psixologiyasi bo'yicha bilimlarni boyitish.

Ansambl sinfi fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Bilimlar:

Ansambl sinfi fan sifatida o'qitilishi jarayonida quyidagilarni amalga oshirilishi talab etiladi:

- Talabalarning musiqaviy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, cholg'u ijro san'ati haqidagi tushunchasini boyitish;
- An'anaviy va aralash ansambl ijrochiligi xususida keng nazariy tushuncha berish;
- Ko'p ovozli musiqiy (sekunda, tertsiya, kvarta, kvinta, seksta, septima va boshqa intervallar oralig'ida tuzilgan) tovushlar va ularning xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishini ta'minlash;
- Talabalarni ansambl turlari bilan tanishtirish va tushunchalarini boyitish;
- An'anaviy va aralash ansambl ijrochilik ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish;
 - Cholg'u musiqasini, an'anaviy, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish;
 - Cholg'uda yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish.
 - Jamoaviy ijrochilikda bir-birini eshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish;
 - Talabalarda cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'z ustida ishlash, chalish, ijod qilish malakalarni rivojlantirish;
 - Ansambl rahbarining badiiy ifoda yuzasidan talabini bajarishi malakasini o'rtirish;
 - An'anaviy va aralashi ansamlni tashkil etish, ishlash uslublarini o'zlashtirish;

- Kontsertlar tashkil etish qobiliyatini shakllantirish;
- Ansambl sinfi fanidan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish tajribasini o'stirish.

Talabalar fanning vazifalarini chuqur tushunib oliashalri kerak. Dasturda berilgan topshiriqlarni puxta o'zlashtirib borishlari, ansambl tarkibidagi cholg'u asboblarning tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro usullari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. An'anaviy va aralash ko'p ovozli cholg'u ijrochiligiga oid savodxonlikka ega bo'lishlari, musiqa asarlarini ijro etishda ijodkorlik bilan yondashishlari, cho'g'u ansambllari, orkestrlar faoliyati, xalq va professional musiqa, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur o'zbek xalq sozandalari, xonanandalarining ijodiy faoliyati, musiqiy atamalar va iboralar, musiqa janrlari, ustozona, mumtoz musiqa, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, ansambl jo'rligida maqom ijro etuvchilar, o'zbek milliy musiqasi kabi materiallar asosida cholg'u musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi.

Ko'nikma: Talabalarda ansambl sinfi fani mashg'ulotlari jarayonida olingan bilimlarni amaliy sohada qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantirish. Davlat ta'lim standartlari asosidagi yangi ta'lim mazmuni talabalarning cholg'u ijrochiligi bo'yicha, ayniqsa an'anaviy va aralash ansambl ijrochiligi sohasida bilim va malakalar bilan ularda kuzatuvchanlik, ijodkorlik, obrazli tasavvur qilish, mustaqillik, tashabuskorlik xislatlarning rivojlantirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi..

Duet, trio, kvartet va boshqa tarkibidagi ansambl sinflarida ijro etish, cholg'u guruhlari, yakka ijro, cholg'u ansambl sinfi va fortepiano uchun murakkab partiyalarni, asarning umumiy obrazi, musiqa xarakterini ifoda etgan holda tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish zarur.

Malaka:

Bakalavr: - Musiqiy dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;

- Ansambl sinfi fanining asoslarini bilishi;
- Musiqa sohasida davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- Musiqiy jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Milliy-musiqiy va umuminsoniy musiqiy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi;
- Milliy musiqa va musiqiy qadriyatlar masalalarini ilmiy asoslay bilishi;
- Musiqa sohasida milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- Musiqaviy jarayonlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi;

- Musiqa madaniyati va san'ati rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy musiqiy ta'lim-tarbiya faoliyatida foydalana bilishi;

- Musiqa sohasida o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

- Musiqa sohasida tegishli bakalavriyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayorgarlikka ega bo'lishi;

- Musiqa sohasida, jumladan, cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari ansambli bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi, mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi kabi umumiy malakaviy talablar qo'yiladi.

IKKINCHI QISM

Cholg'ular ijrochiligining tarixiy taraqqiyoti

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lganligi haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plangan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlabki musiqqa cholg'ulari eramizdan ancha oldin dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lganligi ko'p manbalarda qayd qilingan. Bu, haqiqatga to'g'ri keladi, albatta. Chunki, eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Kishilar turmush tarzining o'zgarib borishi, madaniy qarashlarning bir muncha rivojlanib borishi, mehnatga bo'lgan munosobatning ijobiylashib borishi natijasida boshqa cholg'ularni paydo bo'lishiga olib keladi. Jumladan, shovqinli cholg'ularni paydo bo'lishi ham insonlar turmush tazi, madaniy qarashlari, mehnatga bo'lgan munosobatning ijobiylashib borishi bilan bog'liq. Shovqinli cholg'ularni paydo bo'lishining asosiy ko'rinishlaridan biri - dastlab ijrochilarning qarsak chalib ritmni ta'kidlashlari orqali shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'chaytirganligini misol tariqasida aytish mumkin. Shuningdek, ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas, go'zal holatni vujudga keltirgan.

Xalq orasida musiqaga qiziqish bilan qaraydigan kishilarning ortib borishi musiqqa asboblari yasaydigan ustalarni paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, hushtak, biroz o'tgach esa nay (bo'ylama, ko'ndalang, ko'p yo'lli), naysimon hushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifaralar yasaladi. Vaqt o'tib u cholg'o'lar yanada takomillashib (ko'p yo'lli, shuningdek zamonaviy ko'p teshikli) naylar yuzaga keladi. Torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqqa cholg'ulari paydo ham bo'ladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalaniladi.

O'zbek xalq cholg'o'lari shu tariqa shakllanadi va ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos ijro xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoladi. Nay, suriyay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobuz kabi cholg'ular o'ziga xos tuzilishi va ijro uslublari bilan an'anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Tarixdan ma'lumki, eramizdan avvalgi III–asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), sharqida esa Grek-Baqtriya davlatlari tashkil topgan. Eramizning I–asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida esa qudratli Kushon shohligi tarkib topadi, Mahalliy Kushon sulolasn hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashishi natijasida shaharlar yuksaladi, madaniyat rivojlanadi. Bular o'z navbatida, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishi uchun shart-sharoitni yuzaga keltiradi.

Demak, aytish mumkinki, arxeologik topilmalardan olingan ma'lumotlar va yozma manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar shundan dalolat beriadiki, bugungi kunda amaliyotda foydalanib kelinayotga cholg'u asboblarining birmuncha mukammal hamda rang-barang ajdodlari bundan ikki ming yildan oldin O'rta Osiyoda tarqalgan ekan. O'sha davrlardagi cholg'ularda ijro etilgan kuylarning mazmun-mohiyati sozanda-ijrochilarning o'ziga xos yuksak ijodiy yutuqlarida juda nafis, yoqimli, jozibali, o'ta mazmunli shakllantirilgan. Uzoq o'tmishda ijro etilgan kuy va qo'shiqlar o'sha davrdagi musiqa san'ati uslubining o'ziga xos muayyan tarixiy voqeliklarini, o'ziga xos muhim xususiyatlarini gavdalandirgan. Shularga ko'ra, cholg'u kuyi xalq musiqiy mohiyatining shaklan mukammal va mazmunan serqirra ifodasi bo'lgan va hozirgi davrda ham, kelajakda ham shunday ifodalilikda bo'ladi, albatta.

Cholg'ular O'rta Osiyo xalqlari folklorida hamda og'zaki an'anadagi professional musiqasida ham yetakchi o'rin tutib, muhim rol o'ynayb kelaganligi bugungi kun amaliyotda ham ma'lum. Tarixiy manbalardan bilish mumkinki, O'rta Osiyo cholg'u asboblari butun Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalgan. Sharq yilnomalarida cholg'u asboblarining xilma-xilligi haqida gap borar ekan, biz undan birinchi navbatda, O'rta Osiyo xalqlarining turmush tazii va urf-odatlarini, kuy va raqs jo'rligida ijro etiladigan turli xalq marosimlarini tavsiflovchi matyeriallar, ma'lumotlarni guvohi bo'lamiz. Bular shundan dalolatki, musiqiy g'oya va uning tiliga, ohangning rang-baranglik xususiyatiga, qolabersa badiiy-musiqaiy jozibaliliga aynan qadimda asos solingan. O'z navbatida, aynan qadimda cholg'u asboblarining asosiy tarkibi shakllantirilgan hamda sozlarning turli-tuman xillari, ko'rinishlari, ijro usullari belgilangan. Bularning barchasi, cholg'u ijrochilik san'atining qadimgi xususiyatlarini hozirgi davrga qadar saqlab kelganligini,

bizgacha yetib kelgan yakkanavoz hamda xalq professional musiqasining rivojlanishi uchun negiz yaratilganligini anglatadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, milliy cholg'u asboblari xalqning madaniy qadriyati, milliy boyligi, o'ziga xos sevimli va ardoqli ovunchog'i, madaniy dam beruvchi vositasi bo'lgan. Ular ijrochilik san'atining elementlari bilan chambarchas bog'langan. E'tiborli tomonlaridan biri shundaki, ijrochilik san'ati rivojlanishi bilan cholg'u asboblari ham takomillashib, ularning ko'rinishi o'zgarib borgan. Ijrochilik madaniyatining takomillashuvi jarayoni bilan milliy cholg'u asboblarining rivojlanish jarayonining ushbu chambarchasdagi o'zaro munosabati ularni jamiyat musiqiy ehtiyojlariga javob beradigan tarzda takomillashtirish g'oyasini olg'a suradi. Ijrochi o'z san'ati bilan ijodkor (bastakor)da yangi ijodiy niyatlamini yuzaga keltiradi, ayni mahalda «cholg'u asboblari konstruksiyasini takomillashtirishga, ularni o'zlashtirish san'atiga hamda ularning ifoda imkoniyatlarini boyitishga yanada ko'proq ta'sir ko'rsatadi».

Ma'lumki, ijrochi musiqiy asarning mazmyn-mohiyatini, tovushlar vositasida ifodalangan badiiy obrazni cholg'u asbobi vositasida namayon etadi. Boshqacha tarzda aytganda, ijrochi cholg'u asbobi ijrosi orqali musiqa asariga hayot baxsh etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, cholg'u asboblarining uzoq yashashi ularning musiqa asari ijrochiligi bilan g'oyat chambarchas bog'liqligidadir. Demak, cholg'u asbobi, ijrochi qo'lida qurol bo'lib xizmat qilishi natijasida kuyni yaratuvchisi bilan tinglovchisi o'rtasidagi vosita hisoblanadi.

Uzbek xalq cholg'ularida ijro etish uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u o'z taraqqiyotining ko'p asrlik an'analarini meros qilib olgan. Xalq cholg'ularida ijro etish san'ati qadim-qadim davrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalari yordamida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar, miniatyuralar, g'orlar toshlarida chizib qoldirilgan rasm tasvirlar qadim davrlardan e'tiboran turli musiqa asboblari bo'lganligidan dalolat beradi. Xalq cholg'ularidan kundalik turmushda, ovda, madaniy bayram marosimlari va xalq sayillarida foydalanilgan. Shularni e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, xalq cholg'ulari asrlar davomida insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib kelgan. Zamonlar o'tishi bilan esa cholg'ular takomillashib borgan. O'tmishdan meros bo'lib qolgan moddiy madaniy yodgorliklar, tasviriy san'at asarlari, ayniqsa, devorlarda, sopol haykalchalar, idishlarda chizib qoldirilgan rasmlar, turli xil miniatyuralar odamlarning o'z hayotlari, tumushlarida xalq cholg'u asboblaridan foydalanib kelganligidan dalolat beradi. Ikkinchi tomondan qaraganda esa, nay, surnay, chang, tambur, ud va g'ijjak kabi cholg'ularda yakkanavozlik hamda ikki turdagi xalq

cholg'ulari ansambli mavjud bo'lganligini bildiradi. Ulardan biri (damli) va urma zarbli cholg'ular, ikkinchisi esa torli va mizrobli (chertma) cholg'ulari ansamblidir.

O'rta asrlarda xalq musiqa ijodining og'zaki an'analari keng tarqalgan va cholg'u musiqasining har xil janrlarini qamrab olgan. Ijrochilikning asosiy turi - an'anaviy bo'lgan. Zero, an'anaviy ijrochilik san'atining improvizatsiyaga asoslanganligi cholg'uchidan aynan ijodiy munosabatda bo'lishni talab etgan, natijada esa, har gal yangicha musiqa ijro etilayotganda, bir-birini takrorlamaydigan turli ijro usullari qo'llanilgan. Bu o'z navbatida, ijrochining o'ziga xos ijodiy tafakkurini va mahoratini namoyon etishga imkon bergan.

Xalq cholg'ularining uzoq o'tmishda paydo bo'lganligi xususida gap ketganda shuni alohida qayd qilib o'tish o'rinliki, quldorlik jamiyati Urta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'lgan. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'ular takomillashib, ularning yangicha ko'rinishdagi shakllari paydo bo'lgan hamda ijroviy imkoniyatlari yanada boyitilgan. Bu haqda o'tgan asrning 30—40-yillarida S. L. Tolstov, V. A. Vyatkin, M. B. Masson va boshqalar rahbarligida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida qo'lga kiritilgan bir qator topilmalar, madaniy yodgorliklardan bilib olish mumkin. Madaniy yodgorliklar Afrosiyob, Tuproqqal'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan. Topilgan sopol idishlardagi haykalchalarning e'tiborli tomonlaridan biri shundaki, ularda - nay, rubobsimon ko'rinishga ega bo'lgan cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbira va shu singari cholg'ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Ayrim madaniy yodgorliklarda esa mashshoqlarning turli xil musiqa asboblarida: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, musiqor, chag'ona, chiltor, nay, burg'u, sunray, karnay, doirasimon cholg'ularida mashq qilishlari ham tasvirlangan. Shu xildagi tasvirlardan bilib olish mumkinki, xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgan.

Xalq bayramlarining aksariyati ko'proq yil fasillari bilan bog'liq holda nishonlangan. "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" va boshqa mavsumiy bayramlar keng nishonlangan. Ayniqsa, "Navroz" bayrami xalqning eng sevimli bayrami bo'lgan. "Navro'z" bayram marosimlari jarayonida cholg'uchilar tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doira(daf, childirma) singari cholg'ularda jozibali, nafis, ajoyib kuy va qo'shiqlar ijro etgan. Ommaviy bayram va sayllarda xalq cholg'ulari ansambllari, xonanda va sozandalarning xizmat ko'rsatishi beqiyos bo'lgan. Bayram va sayllarda yoki boshqa turdagi

madaniy marosimlarda karnay, sunray, doira, nog'ara, chindoul cholg'ulari, shuningder, urma zarbli musiqa cholg'ular keng qo'llanilgan. Cholg'ular ansambli ijrosi vositasida xalq raqslariga mansub bo'lgan qosh o'yini, yelka o'yini, bosh o'yini kabilar namayon etilgan. Shuningdek, ular qarsak jo'rligida ham ijro etilgan.

Shu tariqa O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotning yangi bosqichlariga ko'tarilib boradi. Hayot sharoitining har tomonlama o'zgarib borishi tufayli musiqa san'atining ijtimoiy ahamiyati oshib boradi. Shaharda yashovchi xalqlar, yuqori tabaqa sinflarining turmush tarzi seziraldi darajada o'sib borishi natijasida musiqaning roli ham kuchayib boradi. Yakkanavozlik, ansambl ijrochiligi, ashula va raqsni o'z ichiga olgan vokal-cholg'u musiqa turkum turlari rivojlanib boradi.

Sharq olimlari - Farobiy, ibn Sino, Al-Xorazmiy, Jomiy va boshqalar o'zlarining nazariy qarashlari va cholg'u ijrochiligi tajribalari asosida risolalar yaratganligi tarixda ma'lum. Ayniqsa, Abu Nasr Muhammad Farobiyning musiqiy qarashlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Uning mashhur asari – “Musiqqa haqida katta kitob” (“Kitob al-musiqqa al-kabir”) katta ahamiyatga ega. Olim bu kitobida “Jangu-jadallarda, raqsalarda, tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor”, deb yozgan. Farobiyning bu fikrlari cholg'ularning turli-tumanligi va ularning xalq orasida musiqa madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganligini tasdiqlaydi. Kitobning ikkinchi qismi batomom musiqa cholg'ulariga bag'ishlanganligi yanada e'tiborga loyiq bolib unda lyutna, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shohruh va boshqa musiqa cholg'ulariga izchil va batafsil ta'rif berilgan. Farobiyning yozicha torli-mizrobli lyutnya o'sha davrning ko'zga ko'ringan cholg'usi sifatida xalq orasida keng tarqalgan. Lyutnya o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ladlar joylashgan bo'lib IX-X asrlarda arabcha ud nomini oladi.

Farobiy yana bir cholg'u asbobi – tanburni ham ijobiy tomonlari xususida ta'rif beradi. Olimni fikricha tanbur udga yaqin cholg'u bo'lib, dilga orom beruvchi asbobdir. Shu bois u ud singari xalqni sevimli cholg'usi sifatida nom tarqatgan. Tanburning Xuroson va Bag'dod turlari boshqa turdagi cholg'ular ichida alohida ahamiyat kasb etgan. Xuroson tanburi bugungi musiqa ijrochiligi amaliyotida yakkanavoz, ansambl cholg'u sifatida foydalanib kelinmoqda. Farobiy, shuningdek, nay cholg'usiga ham ta'rif beradi. Professor A.Odilovning yozicha Farobiy turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish printsipiga ko'ra naysimon guruhga kiritgan. Nayning bo'ylama (bir yo'nalishda joylashgan

ko'p teshikli nay) hozirgi kunda Sharq xalqlari orasida mavjudligini qayd qilib - vietnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, ozarbayjonlar ney, o'zbeklar nay deb atashni ma'lum qiladi.²

Farobiyning bergan ma'lumotlariga ko'ra, chang cholg'usi ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg'ulari turkumiga kiradi. Yozilishicha, o'sha davrdagi chang cholg'usida 15 tor bo'lgan ekan. Chang torlari diatonik sozlangan bo'lib, ikki oktava oralig'iga teng tovushqatorga ega bo'lgan. Farobiy sunray, o'sha davrdagi rubob, chang cholg'ulaiga ham ta'rif bergan. Risolada ta'rif berilgan barcha cholg'ular ashula, raqs, yakkanavoz va ansambl ijrochiligiga jo'r bo'lishda faodalanilgan. Uning yozishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etgan. "Cholg'u asboblari haqida kitob"ida esa tanbur, rubob, chang kabi cholg'ularni udda chalinayotgan kuyga yoki yakkanavoz xonandaga garmonik j'o'r bo'lish uchun sozlash usularini tushuntiradi. Farobiyning musiqa sohasidagi ilmiy-falsafiy qarashlari shundan dalolat beradiki, u musiqa ilmining bir bo'limi sifatida hisoblangan cholg'ularni o'rganuvchi soha, ya'ni cholg'ushunoslik sohasiga asos soladi. Farobiy asos slogan cholg'ushunoslik sohasining mazmun-mohiyati, amaliyotda tutgan o'rni keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham keng boyitiladi va rivojlantiriladi.

Farobiyning o'ziga ustoz deb bilgan Ibn Sino o'zining "Davolash kitobi" deb nomlangan yirik qomusining "Musiqa haqida risola" bobida o'sha davr musiqachilari haqida fikrlar bildiradi. Risolada cholg'ularga ham ta'rif beriladi. Ibn Sino o'z davri musiqalarini ikki guruhga bo'ladi: birinchisi – mizrobli, noxunli (barbad, tanbur, rubob); ikkinchisi – butun rezonator qopqog'i bo'ylab tortilgan ochiq torli cholg'ular (shohruh, chiltor, lira), chang (arfa). Shuningdek, inson ovozi azaldan eng mukammal cholg'u hisoblanishini qayd qiladi. Ibn Sinoning fikricha, torli-mizrobli yoki torli-kamonchali musiqa cholg'ulari ijrochilari o'zlari yaratgan kuylar ohangini inson ovoziga yaqinlashtirishga harakat qilishgan. Ya'ni bunda, o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni ta'sirliroq, samimiyroq chiqarishga intilishgan. Olim ohangi inson ovoziga har tomonlama yaqin bo'lgan ud va rubob cholg'ulari xususida batafsil ta'rif beradi. "Bunda rubob tushunchasi ostida g'ijjakka o'xchagan, torlari kamoncha bilan chalinadigan musiqalar nazarda tutilgan", deb, professor A.Odilov fikr bildiradi.³ Risolada shuningdek, damli cholg'ulardan nay (fleyta) va sunray hamda Vizantiya organunni(muz-mar, muzamir) ta'riflanadi.

² A.Odilov Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. Т: "Ўқитувчи" 1995. – Б. 15

³ A.Odilov Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик тарихи. Т: "Ўқитувчи" 1995. – Б. 18

Yana bir mutafakkir, olim, Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan, keyinchalik Temur saroyida ijodiy faoliyat yuritgan Abduqodir ibn – G'oyibiy (Marog'iy) "Musiqqa ilmida ohanglar to'plami"(Jami al-alxan fishlm al-musiqiy) risosida musiqqa haqidagi ta'lumotni – kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqqa cholg'ulari borligini qayd qiladi va ular haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, g'ijjak yasash usuli, ya'ni texnologiyasi haqida ham ma'lumot beradi. Mutafakkirni fikricha ipak yoki pay torlar jez torlarga nisbatan ancha yaxshi bo'lib mayin ovozni shakllantirishi mumkin ekan.

Qo'sh torli cholg'u, ya'ni dutor haqidagi ilk ma'lumotlar Al-Husayniyning XV asrda yaratgan musiqqa Kanonlarida uchraydi. Aniqroq qilib aytganda Al-Husaynning(XV asr) Musiqaviy Kanonlarida asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqqa cholg'usi – dutot haqida bir qator ma'lumotlar berilgan. Dutor atamasining bo'lishiga asosiy sabab, uni shaklan tanburga oxshashligi, ud, ozarbayjoncha soz singari ko'p torli cholg'ulardan farqlashda bo'lgan.

Xalq orasida musiqqa nazariyotchisi sifatida hurmatga sazavor bo'lgan eronlik Qutbiddin ash- Sheroziy (1236-1310) inson ovozini musiqqa asboblari ichida eng yoqimlilikini aytib o'tadi.

Musiqqa ilmini ma'lum bir tizimga solish va uni rivojlantirish ishlar ham Sharq mutafakkirlari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Bu borada ud cholg'usini mohir sozandasi, xonanda va bastakor sifatida o'z davrida taniqli bo'lgan Safiuddin Urmaviyning musiqqa ta'limoti e'tiborga loyiq. Urmaviyning ilmiy-falsafiy qarashlari shundaki, u ud cholg'usida amalga oshirgan tajribalariga asoslanib musiqqa haqidagi nazariy qoidalarni bayon etadi. "Taqvodorlik kitobi"da ud cholg'usi xususida alohida to'xtalib, unga quyidagi ta'rifni beradi: "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud deb ataluvchisi eng mashhur va zamonaviydir". Ta'rifdan anglash mumkinki, ud cholg'usi o'sha zamonda, qolaversa bugungi zamonda ham o'zining ijro xususiyati, ovozining yoqimlilik bilan cholg'ular orasida ajralib turadi. Urmaviy ud cholg'usiga ta'rif berar ekan, uning besh qo'sh tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari bam, masnas, masne, zir hamda eng yuqori tori had deb nomlanishi aytiladi. Udning kvartaga mos sozlangan besh qo'sh tori va etti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy, Ibn Sino, Al-Husayniy, Marog'iy, Jomiylar ham q'z asarlarida qayd qilib o'tgan.

XVII asrda yashab o'tgan buxorolik musiqashunos tafakkir Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, barbot, chag'ona, ud, rud, rubob, qomuz, g'ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqqa cholg'ulari nomlarini qayd etib, ular haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi. Darvish Ali o'tmishdoshlari singari torli,

mizrobli cholg'ular orasida tebranish ohangiga ko'ra eng yaxshi sanalgan udni cholg'ular "shohi" ekanligiga batafsil ta'rif beradi. Demak, anglash mumkinki, hozirgi davrda ham amaliyotda foydalanib kelinayotgan tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobuz, fijjak Darvish Ali yashagan davrda keng tarqalgan cholg'ulardan bo'lgan ekan. Musiqa amaliyotida dastlab ansamblda uyg'un va yorqin tovush rang-barangligini hosil qiladigan torli-noxunli va torli kamonchali cholg'ular qo'llanilganligini Darvish Ali bergan ma'lumotlar tasdiqlashga asos bo'ladi.

Darvish Alining yozishicha Shoh Quliy-G'ijjakiy ajoyib ijrochilik mahoratiga ega bo'lgan hamda cholg'u kuylarini yaratgan usta musiqachi bo'lgan. Sulton Ahmad ismli shaxs esa nayni mohir ijrochisi sifatida o'sha davr sozandalari tomonidan tan olingan. U chalgan nayning sehirli ohanglari san'at ixlosmandlariga chuqur taassurot qoldirgan. Buxorolik Shayx Shamsiy-Rabonniy esa o'ta mohir rubob cholg'uchi sifatida sozandalar orasida katta hurmatga sazavvor bo'lgan. Uning rubobda ijrosi kishilarga juda kuchli ta'sir qilgan. Yozilishicha, Rabonniy chalgan rubob ovozi, ohangini eshitib turgan odamlar uning betakror ijrosidan hayratga tushgan va berilib tinglaganlar.

Darvish Alining ma'lumotlariga ko'ra cholg'u ansambllari Sulton Muhammad saroyida turli ko'rinish va mazmundagi tantanalarda, dam olish kechalarda, martabali kishilarni qabul qilisha jarayonida, shuningdek, yaqin kishilar davralarida o'z san'atlarini namoyish etib turgan. Saroyda 60 kishidan tashkil topgan va "nog'ora xona" (nog'ara va damli cholg'ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona) nomi bilan faoliyat yurutgan cholg'uchilar ansambli bo'lganligini Darvish Ali alohida qayd qilib otadi. Darvish Ali sozandalarning mahorati xususida to'xtalib: "Sulton Husayn saroyida ansambl rahbari – mehtar vazifasini etuk nog'orachi, tengsiz cholg'uchi, bu dunyoning katta-yu kichik mo'jizalari ko'rki Sayid Ahmadbin mehtariy-Miroqiy" bajarganligini ta'kidlab o'tgan.⁴ Shu tariqa Darvish Alining yozib qoldirgan ma'lumotlari o'sha davrda xalq cholg'ulari ijrochiligi aholi orasida keng tarqalganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlangan. Xalq cholg'ulari haqidagi ma'lumotlarni badiiy asrlarda, kitoblar minatyuralarida uchramiz. Firdavsiy, Sa'diy, Navoiy, Nasimiy, Fuzuliy, Dehlaviy va boshqa adabiyotch mutafakkirlarning asarlarida 60 dan ortiq cholg'ularning nomlari qayd etilgan. Masalan, Firdavsiyning XIV asrda yozgan "Shohnoma" asarida VI asrda faoliyat yuritgan Barbadning ud asbobini chalayotganligi tasvirlangan. Bu asarda tasvirlangan cholg'ulardan anglash

⁴ Семенов А. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвиша Али. Ташкент, 1946.

mumkinki, o'sha davrlarda cholg'ular ikki guruhga bo'lingan. Birinchisi, xonaki cholg'ulardan, ya'ni: chang, rud, lyutna, fleyta, naydan iborat bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi esa karnay, litavralar, buben, baraban, gong kabi shovqinli-damli cholg'ular bo'lganligini tasavvur qilish mumkin. "Shohnoma"ning XV asr o'rtalarida ko'chirilgan nusxasidagi miniatyura parchasida chang, tanbur, ud, cholg'ulari suratlari tasvirlangan. O'rta asr miniatyuralarida nay cholg'ulari xonaki ansambli tarkibida tasvirlangan. Shuningdek, XIV asrda yashab o'tgan Abdul Fazl Bayhaqiy asarlarida rud, barbad, tanbur kabi torli mizrobli cholg'ularni hamda karnay, litavra, baraban singari cholg'ular nomlarini zikir etilgan.

E'tborga loyiq bo'lgan jihatlardan yana biri shundaki, XIV-XV asr miniatyuralarida cholg'ulardan tashqari qarsak jo'rligida ijro etilgan raqslar tasviri ham ifodalangan. Shu o'rinda Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari qo'lyozmasida chang, lyutna, ud kabi cholg'ularning ifoda etilganligini aytish mumkin.

XIV oxiri XV asr boshlarida adabiyot va san'at, jumladan musiqa san'atining O'rta Osiyoda yanada rivojlanganligini tarixiy manbalarda qayd etilgan materiallardan bilish mumkin. Bu davrda yashab o'tgan xalqning ijtimoiy hayotida musiqa, ayniqsa muhim ahamiyat kas etgan. Shu o'rinda musiqaning temuriylar ijtimoiy hayotida muhim o'ringa ega bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. "Zafarnoma"ning bir miniatyurasida Amir Temurning safarga chiqishi tasvirlangan bo'lib, unda dutor cholg'usi aks ettirilgan. Boshqa bir suratda esa devor ustiga turib karnay chalayotgan kishi tasvirlangan. Bu tasvir Amir Temur qo'shinlarining g'alabasiga bag'ishlanganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

O'rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o'ziga xos ko'rishishlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha xususiyatli musiqa asboblari chala olgan, balki o'zlari ham musiqa bastalaganlar. Shu bilan bir qatorda ularning ko'pchiligi o'z davrining yetuk musiqachilari bo'lganligidan tashqari cholg'u asboblari yasaydigan malakali usta ham bo'lishgan. Bu o'z navbatida musiqiy ustaxonalarni paydo bo'lishiga olib kelgan.

XV — XVII asr yozma yodgorliklarining qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, bu davrga kelib O'rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyati o'z kamolatiga yetgan. Chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bulamon kabi cholg'ularda ijro etadigan mohiy sozandalar hamda xonandalar bo'lganki, ular o'ziga xos ansambllarni tuzishga ham muvoffaq bo'lgan. Yakkanavoz ijro san'ati ham rivojlangan. E'tiborlisi shundaki, shahar hunarmandlarining musqaviy faoliyati kengaygan va shu boisdan ham ular orasidan ko'pchilik ijrochilar chiqqan va cholg'uchilik kasbi ular uchun jamiyatga o'ziga xos yo'l ochgan.

Bu borada Vosifiy o'zining "Esdaliklari"da ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, qobiz chalishda yuqori mahoratga ega bo'lgan va majlislarning hurmatli qathashchilariga aylangan hunarmandlarning nomlarini keltiradi. Nazm va navo majlislarining muntazam bo'lib turishi yosh ijrochilar uchun o'ziga xos musobaqa va ko'rik bo'lgan. Yoshlarning bir necha cholg'ularda chalishining asosiy poydevorlaridan biri ham aynan ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishi bo'lgan.

XIV-XVII asr adabiyoti va tasviriy san'at asarlarida ham uzoq o'tmishda musiqa cholg'ularining turlarini tasdiqlovchi materiallar berilgan. Temuriylar davri va keying ikki yuz yillik davr kitoblar miniatyurasi xalq cholg'u ansamblining ikki turda bo'lganligini ko'rsatadi: birinchisi – doyra va nay jo'rligida chertma torli ansambl (xonaki tipdagi); ikkinchisi - damli va urma cholg'ular (karnay, sunray, bulamon, doyra, nog'ora) ansambli. Ansamblning ikkinchi turi ko'p hollarda harbiy orkestr sifatida foydalanilgan.

XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsir ta'riflangan yirik asralar yetarli darajada yaratilmagan. Bunga sabab, feodal tuzminig kuchaishidir. Ulkan davlatning Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarga bo'linib ketishi musiqa san'ati taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'zbek musiqa san'ati mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi va o'ziga xos musiqa cholg'ulari shakllandi. Amirlik va xonliklarda xalq musiqasining yangi turlari yaratiladi. Joylarda mavjud musiqa cholg'ulari va ijrochilarga bog'liq holda turlicha cholg'u ansambllari tuziladi. Ular tarkibiga g'ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo'shnay, doira kabi musiqa cholg'ulari kiritiladi. Ansambllarning asosiy faoliyati maqom asarlari ijrosi bilan uyg'unlashadi.

O'zbek xalq cholg'ulariga katta e'tibor berib borilishi natijasida ularning ijrochilik imkoniyatlari yanada kengayib, takomillashib boradi. Xalq orasidan mohir sozandalarning yetishib chiqishi cholg'u ijrochiligi madaniyatining o'sib borishini ta'minlab boradi. Bu, o'z navbatida, yakkanavozlik shaklidagi cholg'uchilikning rivojlanishi, turli xalq cholg'u asboblardan iborat ansambllarning tashkil etilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bularning barchasi musiqa ustalaridan cholg'ularni yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu tariqa cholg'u asboblari yasaydigan ustalarning tinimsiz mehnati, izlanishlari natijasida qashqar rubobi, chang singari cholg'ularning o'ziga xos ovoz tarannumiga ega bo'lgan nusxalari paydo bo'la boshlaydi. XIX asrda nay, qo'shnay, sunray, karnay, bo'lamon, chang, qashqar rubobi, afg'on(Buxoro) rubobi, tanbur, dutor, do'mbra, g'ijjak, sato, doira va boshqa cholg'ular ijrochilik amaliyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. XIX asrning cholg'ushunoslik sohasidagi ahamiyatli tomonlaridan biri shu bilan xarakterlanadiki, bu davrda cho'g'u asboblari yasaydiganbir qator mohir

ustalar yetishib chiqadi. Shunday ustalar qatoriga misol qilib: To'ychi hofiz, Shorahim Shoumarov, Usta Usmon Zufarov, Abdusattor dutorchi, Abduqodir naychi, Shabodat tanburchi, Ashurali Mahram va boshqalarni aytish mumkin. Ular qadimiy cholg'ularning tuzulishini takomillashtirish va ylarning nusxalarini yaratishda harakat qilganlar va shu xizmatlari orqali o'zbek xalq musiqasi xazinasini boyliklarini saqlab qolishga muvoffaq bo'lganlar. Ustalar yasagan yangi cholg'ular asta-sekinlik bilan xalq madaniyati, ularning turmush tarziga kirib borgan hamda ansambllar tarkibidan mustahkam o'rin olgan.

Shu o'rinda qayd qilib o'tish joizki, XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek xalq cholg'ulari sohasida jiddiy o'zgarishlab bo'ladi va uning yangidan-yangi shakllari paydo bo'ladi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, bo'lamonchi, g'ijjakchi, qashqar va afg'on rubobchilari paydo bo'ladi. Xalq cholg'ularining nifuzi oshib, musiqa ixlosmandlari orasida keng yoyiladi.

Shunday qilib, musiqa merosimizning ijrochilik sohasi buyuk allomalar tomonidan tarix sahifalarida yoritib kelingan, uning kelib chiqishi esa moziylarga borib taqaladi. Buning tasdig'ini yurtimizda bir qator joylarida olib borilgan turli arxeologik qazilmalardan topilgan tasviriy san'at yodgorliklarida ko'rish mumkin.

Ansambli ijrochiligi xususida gap ketganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ularning ilk namunalari Ayritom (II asr) yodgorliklarida ko'zga tashlanadi. Ibodatxonaning ilk qadamgoh peshtog'iga bo'rttirib ishlangan tasvirda gullarga burkangan bir nechta sozanda ayollarning qo'lida arfa, ud, nog'ora, qo'shnay (avlos) kabi musiqiy cholg'ulardan iborat cholg'uchilar ansambli tasvirlanganligini misol qilib aytish mumkin. Musiqashunos olim, arxeologiya sohasidagi mutaxassis T. Vizgo "Ayritom frizi O'rta Osiyoda o'sha davrda ansambli ijrochiligi mavjud bo'lganini tasdiqlovchi ilk ashyoviy dalil" ekanligini ta'kidlaydi. Ansambli ijrochiligining o'ziga xos ko'rinishlarini Xorazmning "Tuproq qal'a" qasridan (III-IV aa.) topilgan yodgorliklarda ham kuzatish mumkin. Saroy devori rasmlarining birida arfa, yon atrofida vayron qilingan devor bo'laklarida esa qum soatga o'xshash nog'ora va ikki torli cholg'ularning tasvirlari topilgan. Ular bu erda ansambli ijrochiligi aks ettirilgan, degan taxminni hosil qiladi. Shuningdek, o'sha davrda turli musiqiy cholg'ulardan iborat ansambllarning (chang-barbat-daf-nay; chang-daf; chang-tanbur-nay-daf, chang-g'ijjak-rubob-daf va h.k.) biroz ixchamlashgan turlari ham kuzatiladi. Ansambli ijrochiligi masalalariga oid ma'lumotlar buyuk allomalar Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr al-Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa olimlar risolalarida ham bayon etilgan. Barcha manbalarda o'sha davrda ijrochilik madaniyati o'z

kamolotiga yetgani, ijrochilik san'atining umrboqiyligidan, asrlar o'tsa-da, jamoa bo'lib ijro etish an'analari saqlanib qolganidan dalolat beradi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xalq cholg'ulari ijrosi tarixida biq qator ijobiy muvoffaqiyatlarga erishganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda musiqachilar orasida ustoz-shogirdlik an'analari va yoshlarga musiqa ilmini, jumladan, cholg'u ijrochiligini o'rgatish ishlari ancha rivojlanadi. Bu o'z navbatida juda ko'p cholg'uchi-ijrochilarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan.

Shunday qilib, o'zbek milliy cholg'u sozlari tarixiga nazar tashlansa o'tmishda ularning yakkanavozlik, ansambl shakllarida ijro etib kelinganligiga guvoh bo'lamiz. Cholg'u asboblarni xromatik soz va keng tovushqatoriga ega bo'lmagan. Ko'pchilik asboblarning torlari ichak(kapron)dan bo'lganligi sababli ovozi kuchsiz sadolangan. Ayrimlarida esa o'rama pardalar bo'lgan va shu bois ijroda bir qator qiyinchiliklar tug'dirgan. Lekin xalqimizning madaniy turmush tarzi o'sib borishi va musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishining ortib borishi cholg'u ijrochiligi san'atining nota yozuvi asosida yozilgan kuy va qo'shiqlarini ijro etishni taqazo etadi. Bu o'z navbatida, milliy cholg'u sozlarimizni takomillashtirish orqali zamon talablariga muvofiq keluvchi yangi cholg'u sozlar namunalarini yaratish g'oyasini hosil qiladi. Aslini olganda bu g'oyaning vujudga kelganligining asosiy sabablaridan biri - XIX asr oxirlariga kelib musiqa ijrochilik amaliyotida milliy cholg'u sozlarimizning mustahkam o'rin olganligidir. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan mohir ijrochilar nay, qo'shnay, sunray, karnay, bulamon, dutor, dombra, tanbur, qashqar va afg'on ruboblari, sato, g'ijjak, doyra, qayroq, safoil kabi cholg'u asboblarning musiqa san'ati va madaniy hayotda tutgan o'rnini asoslab berishga o'z hissalarini qo'shgan. Tarixda ularning nomlari o'zlari mohirona ijro etgan musiqa asboblari nomlarini qoshib aytilishi bilan saqlanib qolingan. Abdusattor dutorchi, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnaychi, Ro'zimatxon changchi, Usta Masaid doyrachi va changchi, Usta Olim Komilov doyrachi, Usta Usmon Zufarov va boshqalarni misol keltirish mumkin. Bularning ulkan xizmatlaridan yana biri shunda bo'lganki, ular o'zaro hamkorlikda o'zbek xalq milliy cholg'u sozlarining shaklan tuzilishini takomillashtirish va mohirona ijro etish uchun qulay bo'lgan yangi variantlarini yaratish hamda xalq orasidan yetishib chiqayotgan iste'dodli yo'shlarga cholg'u asboblارimiz ijro etish sir-asrorlarini o'rgatishga jonbozlik ko'rsatgan.

Ma'lumki, har bir savolga tarixda qandaydir bir hodisaning qaysi yo'l va shakllarda paydo bo'lganiga, ushbu hodisa uning rivojlanishida qanday ulug'vor bosqichlar sodir bo'lganiga va uning rivojlanishi nuqtai nazariga qarab, bu narsa endi nimaga aylanganiga qarash kerak. Gap shundaki, xalq cholg'u ijrochiligi o'z

tarixida bir qator yo'l va shakllarda rivojlanib kelgan. Masalaga shu nuqtai nazardan yondashib aytadigan bo'lsak, xalq cholg'ular ijrochiligi XX asrga kelib o'ziga xos yo'l va shakllarda rivojlanib kelgan. Ya'ni, o'zbek musiqasining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, XX asrning dastlabki 20 yilligigacha u faqat og'zaki an'analar musiqasi sifatida rivojlanib borgan, bu jihatni o'zbek musiqa san'atida nota yozuvini bilmaslik va o'z navbatida polifonik(ko'p ovozli) musiqaning xalqaro miqyosda boyitish va rivojlanishiga xalaqit berganligi bilan izohlash mumkin. 1920 yilardan boshlab odamlarning, shu jumladan o'zbek xalqining ma'naviy rivojlanishida yangi davr boshlanganligi tarixdan ma'lum. Bu davrga kelib o'zbek musiqasi sobiq Ittifoqning qardosh xalqlari musiqasi bilan keng hamkorlik yo'liga kirdi. Xalq ta'limi organlari, xususan musiqa va pedagogik jamoatchilik oldida bir qator muhim vazifalar, ya'ni yosh avlodini musiqa madaniyati xazinasini bilan tanishtirish, shu bilan maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda musiqa bo'yicha ta'lim va tarbiya berish, jamiyatda yangi odamni tarbiyalashning samarali vositalarini joriy etish ishlariga alohida e'tibor beriladi. O'sha davrda mamlakat markazida, keyin esa chetida musiqiy mustaqillikning keng harakati rivojlandi, bu ommaning musiqiy madaniyati uchun katta ahamiyatga ega edi.

O'tmish tarixi shundan dalolat beradiki, 1917 yilgacha bo'lgan davrdagi xalq musikachi va ijrochilari yaratgan an'analar cholg'ularning keyingi avlodi ijodida tarkib topgan va davom etgan. Musiqachi-ijrochilar qayta tuzilgan madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda ishga kirishib ketgan. Taniqli tanburchi va xonanda Shorahim Shoumarov 1919 yilda Toshkentdagi "Namuna" maktab-internati qoshida xalq cholg'ulari ansamblini tuadi. Bu ansambl keyinchalik Toshkent musiqa texnikumini tashkil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 20-yillarda o'quv yurtlari, zavodlar, fabrikalar qoshida, qishloq joylarda "Ko'k ko'ylak", "San'atchi qizlar", "Sanoyi nafisa" kabi musiqiy jamoalar tuziladi. Tashkil qilingan ijodiy jamoalar tarkibida naychi, changchi, dutorchi, tanburchi, g'ijjakchi, doirachi, nog'arachilar va qashqar rubob sozandalari bo'lgan xalq cholg'ulari ansambllari ham bo'lgan. Xalq cholg'ulari ansambllari Farg'onada, Andijonda, Samarqanda ham tuziladi. Ularga mashhur cholg'uchilar usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Ahmadjon Umirzoqov, Yusufjon Shakarjonov, usta Ro'zmat Isaboev, Matyusuf Xarratov, Usta Toyir Marufjon Toshpulatov, Muhiddin Mavlonovlar rahbarlik qilishgan. Ularning samarali ijodi tufayli, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atidan ko'pchilik bahramand bo'lgan.

Hamma joyda musiqa va xor to'garaklari tashkil etilib, xalq musiqa maktablari, xalq konservatoriyalari, bolalar va kattalar uchun barcha turdagi musiqa kurslari ochiladi. 1919 yilda Toshkent shahrining ishchilar tumanida musiqa

maktabi, Turkiston Xalq konservatoriyasining filiali - "Temir yo'l vokzali konservatoriyasi" nomi ostida tashkil etiladi. 1919 yil 26 martida shaharning eski qismi hududida bolalar uchun musiqa maktabi ochiladi va u erda o'zbek xalq cholg'u asboblari chalish o'rgatiladi. V.A.Uspenskiy va N.N.Mironov (musiqa nazariyasi), V.A.Karelin, shuningdek, o'zbek musiqasining chinakam ixlosmandlari - Shorahim Shoumarov, Abdusolat Vaxobov va boshqalar bu erga o'qituvchi sifatida taklif etilgan. Ushbu maktablarda o'quvchilar musiqa nazariyasiva va musiqiy savodxonlik elementini o'rgana boshlaganlar.

Buxoroda "Sharq musiqa maktabi" deb nomlangan birinchi musiqa maktabining ochilishi (5 yillik o'qish bilan), amaliy faoliyatining aniq dalillaridan biri bo'lib, u mehnatkash yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirishga qaratilgan.

Buxoro Xalq Respublikasi Xalq ta'limi Naziratining 1921 yil 15 iyundagi qarori (17-sonli bayonnoma) bilan Buxoro shahrida musiqa maktabini tashkil etishga qaror qilingan bo'lib, maktab o'quvchilariga qishgi va yozgi formalar (kiyim bosh) taqdim etilgan. 63 kishidan iborat Buxoro musiqa maktabi 1921 yil 11 sentyabrda o'z faoliyatini boshlaydi. Bu Buxoroning mehnatkash xalqining madaniy hayotidagi faoliyatida katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea edi. Maktabning birinchi o'qituvchilari yoshlarga ta'lim berish uchun o'zlarining barcha qobiliyatlari va bilimlarini berganlar. Maktabning birinchi o'qituvchilari mashhur iste'dodli xalq musiqachilari: Ota G'iyos Abdug'ani, Akamulloy Tairjon, G'ulomi Garmon, Otajalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Levi Boboxanov, Xoji Abduraxmon bo'lgan. Ular musiqa sohasidagi faoliyatini Buxoro amirligi davrida boshlagan bo'lsalarda, yangi musiqa maktablarining ochilishi ularga butun kuch, bilim va ko'nikmalarni yangi, musiqa madaniyatiga xizmat qilishga bag'ishlash imkoniyati berilgan. Ular turli cholg'u asboblari yoshlarga ta'lim berish bilan bir qatorda pedagogik ishlarni ham olib borishgan.

Buxoro musiqa maktabi vokal va xalq cholg'ular kabi ikkita bo'limdan iborat bo'lib mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda dastlab o'quvchilarga o'zbek xalq cholg'ularini chalishni va maqom qo'shiqlarini an'anaviy tarzda, yani slux(eshitish qobiliyati) asosida bir ovozli ijro yo'li bilan kuylashga o'rgatilgan. O'qituvchilar o'quvchilarga ijro uslublarini, cholg'ularni qanday sozlashni tushuntirganlar va bu borada turli mashqlarni ijro etish ustida ham ishlar amalga oshirilgan. Musiqa asbobida dastlabki chalish texnikasini o'rganib, o'zlashtirib olinganidan keyin, ular o'sha yillarda asosiy musiqiy va pedagogik qo'llanma

bo'lgan Buxoro Shashmaqomi cholg'u bo'limini o'rganishga kirishganlar. Albatta, xalq qo'shiqlari va cholg'u asarlari ham o'rgatilgan.

"Sharq musiqa maktabi" bilan bir qatorda "Namuna" musiqa maktabi faoliyat yuritadi va bu maktab tez orada "Al-Farobiy xalq konservatoriyasi" nomi bilan xalq orasida keng taniladi. "Al-Farobiy xalq konservatoriyasi"ning ochilish yilida 76 o'quvchi qabul qilingan. Dastlab maktabda ikkita bo'lim - torli va damli asboblari mavjud edi. 11 yildan so'ng esa pianino va vokal bo'limlari ham ochiladi. E'toborli tmonlarida biri shuna ediki "Al-Farobiy xalq konservatoriyasi"ga bir vaqtni o'zida ham kattalar, ham bolalar qabul qilingan. Ularning aksariyati musiqiy tayorgarlikka ega bo'lmasada, lekin eshitish qobiliyati, ritmi va xotirasi yaxshi bo'lgan har kim u yerga kirib o'qishi mumkin bo'lgan. Har yili musiqa maktabi o'quvchilariga yanada qiyin vazifalar yuklana boshlangan. Musiqa maktabi nafaqat o'quv-uslubiy markaz sifatida faoliyat yuritgan, balki shaharning kontsert hayotining markaziga ham aylangan. Maktab hayotida ajoyib tashkilotchi, tashabbuskor va jonboz musiqachi, folklorshunos V.V.Uspenskiyning o'qituvchilik faoliyati katta rol o'ynagan. U musiqa ta'limi sohasiga musiqa savodi kursini joriy etgan va shu bilan bir qatorda nafaqat o'zbek, balki boshqa xalq musiqa san'atini ham o'rganishga da'vat qilgan.

1920 yildan e'tiboran Xorazmda ham xalq ommasini musiqiy madaniyat bilan tanishtirishga katta e'tibor berilgan. O'sha davrlarda kattalar uchun ham, bolalar uchun ham ko'plab milliy havaskorlik musiqa to'garaklari paydo bo'ladi. 1923 yilda Xiva shahrida musiqa maktabini tashkil etilishi va unda bolalar o'zbek xalq cholg'u asboblari chalishni o'rganishlari, musiqa ta'limida va bolalarni estetik tarbiyasida muhim rol o'ynadi. Mintaqadagi boshqa musiqa maktablarida bo'lgani kabi Xiva shahridagi musiqa maktabi o'quvchilariga dars berish og'zaki an'analarga asoslangan holda olib borilgan.

Matyoqub Xarratov va uning o'g'li - iste'dodli kompozitor, turli xil xalq cholg'ulari ijrochisi - Matyusuf Xarratov Xiva musiqa maktabida o'qituvchilik ishlariga katta e'tibor beradi. Birinchi navbatda, ular yoshlarning ijrochilik faoliyatini rivojlantiradi, yangi ijro texnikasi va ifoda vositalari bilan boyitadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha davrdagi barcha musiqa maktablarida o'qitishning xususiyati va usullari darslarning individual shaklida emas, balki guruh shaklida o'qitilishida bo'lgan. "Xalq ta'limi" jurnalining maqolalaridan birida "Ijro etish usullari to'g'risida ..., ijrochining qo'llari va barmoqlarining harakati va qanday chalishi yoki jo'rnavozlikda qo'shiq kuylashi haqidagi barcha

bilimlarni rahbar ma'ruza sifatida hisobotini ma'lum qilishi kerak” deb ta'kidlanga.⁵

1920-30 yillarda kadrlar masalasi juda keskin bo'lgan. O'qituvchilarning aksariyati maxsus musiqiy ma'lumotga ega bo'lmaganlar, ko'pincha ular o'zlarining usullari bo'yicha dars berisgan. Musiqiy fanlarni o'qitishning yagona metodologiyasi, xalq cholg'u asboblarning barqaror dasturlari mavjud bo'lmagan. Ko'pgina ta'lim muassasalarida mashg'ulotlar rasmiy ravishda olib borilgan, faqat musiqa asboblarni sluxda chalish bo'yicha texnik ko'nikmalar rivojlantirilgan. Boz ustiga, musiqiy asboblari yetarli bo'lmagan, bunga asosiy sabab moddiy bazaning, shuningdek, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan dasturlarning yo'qligi edi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun birinchi navbatda o'qituvchilarni tayyorlashga jiddiy e'tibor berish kerak edi. Shu maqsadda 1918 yil iyul oyida O'rta Osiyoda birinchi musiqiy o'quv muassasasi - Turkiston Xalq Konservatoriyasi ochiladi, u tashkil topganidan uch oy o'tgach, musiqiy-pedagogik ta'lim muassasasi sifatida ish boshlaydi. Tabiiyki, Turkiston Xalq Konservatoriyasi musiqiy madaniyatni rivojlantirish uchun butun o'lkani kadrlar bilan to'liq ta'minlay olmagan. Shuning uchun ham musiqiy ta'lim- tarbiyani izchil tashkil etishning eng samarali usullarini izlash kerak edi.

1921 yil oxirida san'at va kasb-hunar ta'limi bo'yicha birinchi Butunrossiya anjumanlari, butun mamlakatda musiqa maktablarining mavjud bo'lishi uchun yangi shartlar to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ushbu farmon asosida 1922 yil Toshkentda va respublikaning boshqa shaharlarida asosan xalq konservatoriyasi negizida musiqa texnikumlari tashkil etilgan. Musiqa texnikumlari san'atning turli sohalarida o'qituvchilar va musiqa hamda mehnat maktablari o'qituvchilariga maslahat beruvchi mutaxassislarni va ijrochilarni tayyorlash vazifasi yuklatildi. Ta'kidlash joizki, texnikumlarda ansambl va orkestr bo'limlari mavjud bo'lib, ular musiqa sohasidagi maktablarida o'quv ishlarini yanada takomillashtirishga yordam bergan.

O'sha yillardagi musiqiy ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosati musiqiy ijrochilik san'atining, shu jumladan, yoshlarni o'zbek xalq cholg'u asboblari tez sur'atlarda chalishga o'rgatish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. O'zbek musiqa tarixi kitobida: "Vazifa shundan iboratki, xalq an'analarini saqlab qolish bilan bir qatorda, ko'p ovozli orkestrning yangi ijro an'analarini yaratish va rivojlantirish orqali zamonaviy davridagi san'atni tarib qilish” kerakligi

⁵ Львов Н. Народные музыкальные школы. Народное просвещение – 1919. - №34. – С. 28.

haqida yozilgan. Biroq, yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa fanlaridan dars beruvchi, y'ani xalq orasidan yetishib chiqqan musiqachilar milliy musiqani yaxshi bilgan bo'lsada, ammo musiqiy nazariy tayyorgarlikka ega bo'lmagan. Bu ansambl va orkestrlarni yaratishga to'sqinlik qilgan. Faqat 30-yillarga kelib musiqa sohasida amalga oshirilgan bir qator ijobiy ishlar natijasida o'zbek xalq cholg'u asboblarning birinchi orkestrlari paydo bo'la boshlagan. 1919 yil 22 sentyabrda nashr etilgan "Ogonyok" jurnali sahifasida Sats N. o'zining "Дети на сцене"(Bolalar sahnada) maqolasida kashshoflarining 1-Butunittifoq yig'ilishida o'zbek maktab o'quvchilarining chiqishlarini tasvirlab quyidagilani yozadi: "Yo'l-yo'l qalpoqchalar va rang-barang do'ppilar kiygan qora ko'zli o'zbek kashshoflarining orkestri juda yaxshi chiqish qildi".

T.Jalilov tashabbusi bilan 1923 yilda tashkil etilgan "Milliy musiqa to'garagi" ansambliga alohida e'tibor bilar qaraladi. Bu ansambl tarkibi 24 ijrochidan iborat bo'lib, asosan xalq cholg'u kuylarini ijro etgan. E'tiborli tomomnlaridan biri shundaki, ansambl cholg'ulari tarkibida simfonik orkestrning ba'zi bir cholg'ulari ham bo'lgan.

O'zbekiston radiosi qoshida atoqli musiqiyshunos olim, akademik Yu.Rajabiy tomonidan 1927 yilda tashkil etilgan unison ansambl cholg'u ijrochiligi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bu jamoa ijrochilari keyinchalik D.Zokirov nomidagi xalq cholg'u asboblari orkestrini asosini tashkil etgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ansambl tashkil etilganining dastlabki kunlaridan e'tiboran unig tarkibidan usta Usmon Zuparov tomonidan takomillashtirib yasalgan dutor va g'ijjak bas hamda tanbur cholg'ulari o'rin olgan. Lekin bu cholg'ular o'zining tuzilish hajmini kattaligi sababli 1934 yilga kelib ansambl tarkibidan chiqariladi. Ansambl jamoasi I.Hamzin rahbarligida mashg'ulotlar o'tkazishi, konsertlar berishi bilan birga nota savodxonligini ham o'rganib boradi. Lekin yaxshi natijalarga erishilmaydi va ansamblning unison shaklidagi ijrosi saqlanib qoladi. Bu holatni yaxshilash uchun Shorahim Shoumarov, Matyusup Xarratov, Usta Ro'zimatxon Isaboevlar kabi xalq ustalari faol izlanishlar olib boradilar.

Shu o'rinda o'zbek xalq musiqasi an'alarining davomchisi, Toshkentlik mohir xalq cholg'uchisi-dutorchi, tanburchi, naychi Yunus Rajabiyning (1897-1976) ijodiy faoliyatiga ma'rifatparvarlik keng musiqiy-ijtimoiy xususiyatlar xos ekanligini ta'kidlash joiz. Uning ko'p yillik ijodiy faoliyatining eng ajoyib samarasi besh jildlik o'zbek xalq musiqasini yozib olib, nashrga tayorlaganligidir. 1927 yili Yunus Rajabiy O'zbekiston radio qo'mitasi qoshida 12 cholg'uvchi (xonanda va sozandalar)dan iborat xalq cholg'ulari milliy ansambl tashkil etadi.

Bu ansamblga u Toshkentdagi o'sha paytda mashhur musiqachilar - qo'shnaychi Xayrulla Ubaydullaev, dutorchilar Abdusoat Vahobov, Orif Qosimov, tanburchilar Rixsi Rajapov, Mahsudxo'ja Yusupov, g'ijjakchilar Imomjon Ikromov, Nabi Hasanov, Mahmud Yusupov, naychilar Dadaali Soatqulov, Said Kalonov, changchilar Nigmatjon Do'stmuhammedov, Faxriddin Sodiqov, Mahamatjon Rasulov, doirachi Dadaxo'ja Sottievlarni jalb etgan. Ansambl repertuarida o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda zamonaviy bastakor, shu jumladan Yunus Rajabiyning "Chorgoh", "Ko'chabog'i", "Bayot", "Birlashingiz", "Fabrika", "G'alaba", "Hammamiz", "Ilg'or", "Mirzadavlat" kabi asarlari o'rin olgan. Keyinroq bu ansamblida respublikaning mashhur xonandalari Toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Buxorolik domla Halim Ibodov, samarqandlik dutorchi va xonanda hoji Abdurahmon Umarov, xorazmlik tanburchi va xonandalar Matyoqub Xarratov, Safo Mugoniy, Toshkentlik Nazira Axmedova kabi san'atkorlar ishlagan.

XX asrning 30-yillarida o'zbek musiqa san'atining jadal rivojlanishi boshlangan. Bu vaqtga kelib, yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari respublikada musiqa ta'limi sohasida boshqa bir qator o'quv muassasalari faoliyat ko'rsata boshlaydi va ularda mahalliy millat bolalari o'zbek xalq cholg'u asboblari ta'lim oladilar. Ammo bular zamon talablariga to'laqonli javob berolmas edi. Boz ustiga, yuqorida qayd qilib o'tilgan musiqa maktablarida yoshi kattalar va bolalar ham o'qib turganlar. Shular sambabli respublikada musiqiy ta'limni rivojlantirish, xususan, yoshlarni to'laqonli musiqiy kadrlar bilan jihozlangan musiqa o'qitish muassasalarini yaratish vazifasi kun tartibida bo'ladi. Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yosh, iste'dodli bolalarni musiqa sohasida o'qitish samaradorligini oshirib borish va shu yo'l orqali kelgusi uchun yetuk sozanda, ijrochilarni yetkazib berish bo'lgan.

Shu maqsadda 30-yillarning oxirida bolalar musiqa maktablarining yangi tarmoqlari yaratiladi. Ulardan birinchisi Toshkentda, Glier nomidagi bolalar musiqa maktabi-internati ochiladi. Bolalar musiqa maktablari shuningdek Andijon, Faron, Buxoro, Samarqand, Qo'qonda ham paydo bo'ladi. 1936 yilda esa Toshkentdagi Kashshoflar saroyi qoshida ilk bor yetti yillik bolalar musiqa maktabi ochiladi. Ushbu dalillar musiqiy ta'limning rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'yanligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning cholg'chilik ijrosi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - ko'p ovozli musiqa san'atini, jumladan ansamblarni respublikadagi keng omma hayotiga tadbiq etish edi. 1929 yilda Leningrad(hozirgi Sankt-Peterburg) shahrida bo'lib o'tgan butunittifoq musiqa anjumanida milliy cholg'u asboblari ta'lim

berishning o'ziga xos qiyin jihatlari ta'kidlab o'tiladi. Shunga ko'ra anjumanda quyidagi qaror qabul qilinadi: "xalq cholg'u asboblarining ko'pligi inobatga olinib, ... bunday asboblarni musiqani ommaga yetkazish va uni ommalashtirish uchun eng yaxshi va eng kuchli vosita deb bilish, xalq cholg'ularining minimal ansambllari uchun standart(o'lchov, mezon)larni belgilash; har bir sohaning mutaxassis rahbarlarini jalb qilgan holda xalq cholg'ularini takomillashtirish bo'yicha eksperimental ustaxonasini yaratish orqali davlat musiqiy ishonchi mahsg'ulotlarini takomillashtirishga intilish; cholg'u asboblari torlarining sifatini yaxshilash, bunday asboblarni ta'mirlash ustaxonasini tashkil qilish; xalq cholg'u asboblarni o'rganish va takomillashtirishga hissa qo'shish va ularni xalq orkestrlariga kiritish bo'yicha tajriba o'tkazish". Ushbu anjuman qarorlari O'zbekiston musiqiy jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Qarordan ko'rinib turibdiki, yosh avlodni tarbiyalashda xalq vositalarining rolini oshirish, ayniqsa, ularni musiqa sohasida jamoaviy o'qitish orqali tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Ammo eski, temperiratsiyalnmagan o'zbek xalq cholg'u asboblari ushbu muhim vazifalarni bajarish uchun talablarga javob bermadi, bu esa ko'p ovozli cholg'u ansambllari va orkestrlarini tashkil etishga imkon bermagan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun turdosh va oiladosh musiqa asboblarining yangi turlarini yaratish, har bir cholg'u asbobi ovoz diapazoninii kengaytirish, tempratsiyalangan xromatik tovush qatoriga ega qildirish, ovoz kuchini oshirish kabi muhim vazifalar shu davrning muhim masalalaridan biriga aylangan.

Musiqashunos rus olimi, musiqa asboblarimiz imkoniyatlarini chuqur o'rgangan professor V.M.Belyaev "**O'zbekiston musiqa asboblari**" nomli kitobida: o'zbek xalq cholg'u asboblarini takomillashtirish va shu orqali Yvropa nota yozuvini ijro etish imkoniyatini beruvchi, standart tuzilishga ega bo'lgan cholg'ularning ishlab chish taklifini yozadi.

Xalq musiqashunoslari, musiqa asbobi yasovchi ustalar: Sh.Shoumarov, M.Xarratov, U.Zuparov va boshqalar musiqa asboblarini takomillashtirish ishlarini olib boradi. Ularning maqsadi - milliy sozlarning ovozini kuchaytirish, diapazonini kengaytirish, ba'zi bir cholg'ularning esa tuzulishini yaxshilash va chalish uchun qulay, sifatli shaklini yaratish edi.

XX asrning 30-yillari o'zbek musiqa san'atidagi ahamiyatli tomonlaridan birini shunda ko'rish mumkinki, bu davrda O'zbekistonda milliy cholg'u asboblarini nota tizimida o'qitish va shu orqali turli ansambl hamda orkestrlar tashkil etish masalasi ko'tariladi.

Milliy sozlarimizni nota asosida o'qitish dastlab 1936 yilda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida yo'lga qo'yiladi. Mazkur musiqa bilim yurtining musiqa ustaxonasi milliy sozlarning takomillashtirish markazi bo'ladi va A.I.Petorosyans rahbarligida loyihachi-ustalar: V.A.Romanchenko, A.A.Kevxoyans, S.E.Didenkolar faoliyat yuritadi. Keyinchalik yosh mohir ustalar – Xirojiddin Muhiddinov, Abdunabi Abduaforov, A.Tarasov, V.Shtikov, M.Turdiyevlar chol'u asboblarning yangi avlodlarini yaratish, takomillashtirish ishlariga jalb qilinadi.

Milliy sozlarning takomillashtirish birinchi bo'lib 1935 da “Bolalarni badiiy tarbiyalash Markaziy uyi”(ИДХВД)da boshlanadi. Musiqa madaniyati yutuqlarini targ'ibot qilib borish maqsadida 1936 yilda O'zbekiston davlat filarmoniyasi tashkil etiladi va unda “sexlar” deb nomlangan badiiy jamoalarda orkestr, xor, balet jamoalari faoliyat yuritadi. Orkestr jamoasi esa 98 kishidan iborat bo'lib cholg'u asboblari ijrosi unison ansambl shaklida bo'lgan. 1938 yilning noyabr oyida nota yozuvi asosida ijro etuvchi o'zbek milliy cholg'u asboblari orkestri tashkil etiladi. Shu tariqa, takomillashtirilgan va 12-paonali teng xromatik tovushqatoriga ega bo'lgan musiqa asboblari ijro etishga o'tiladi. 1943 yilga kelib milliy sozlarni takomillashtirib borishga yo'naltirilgan maxsus laboratoriya tashkil etiladi. Laboratoriyaning faol ish yuritishi natijasida milliy sozlarning takomillashtirilgan 5 oilasi yaratiladi va ko'p ovozli musiqa asarlarini chalish imkoniga ega bo'lgan orkestr hamda oiladosh asboblardan iborat turli shakldagi ansambllarni tashkil etishga imkon yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq milliy cholg'u asboblarning takomillashtirilishi natijasida yaratilgan yangi variantlari nafaqat milliy musiqa asarlarini, balki professional kompozitorlarning murakkab shakldagi musiqa asarlarini, shuningdek jahon xalqlari musiqa asarlarini ilro etish imkoniyatini hosil qildi. A.I. Petorosyans rahbarligida amalga oshirilgan ijodiy ishlar natijasida cholg'u asboblarning shaklan ko'rinishi ixchamlashtirildi, tovush jarangdorligi yaxshilandi, diapazoni kengaytirildi, texnik ijro imkoniyatlari oshirildi. Shularning evaziga o'zbek cholg'u ijrochiligi tarixiga yangi sahifalar ochildi, ya'ni ko'p ovozli orkestr, ansambllarni faoliyat yuritishiga zamin yaratildi.

Demak, cholg'u asboblarni takomillashtirilishi ularning akustik(tovush jarangdorligi) xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, ularni nota asosida chalishni osonlashtiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gijjaklar, dutorlar, ruboblar, changlar oilasi kabi musiqa asboblarni ishlab chiqarish, colg'uchilikda yuqorida sanab o'tilgan asboblarda musiqa asarlarini ijro etishda katta ustunlik berdi. E'tiborli tomonlaridan yana biri shundaki, musiqa asboblarni

takomillashtirish laboratoriyasida A.I.Petrosyants rahbarligida olib borilgan tajribalar natijasida temperatsiya va xromatik tovushqatiriga moslashtirilgan o'zbek xalq cholg'u asboblari istiqbolli imkoniyatlarini kengaytiradi va ko'p ovoqli musiqa asarlarini ijro etishi uchun keng yo'l ochib beradi. Eng muhim tomoni - ushbu ijodiy ishlar natijasi o'zbek xalq cholg'u asboblariida nota asosida musiqa asarlarini ijro etish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida xalqaro ijodiy aloqani targ'ib qilishda, musiqiy savodxonlikni ommaviy tarzda o'zlashtirish jarayonini osonlashtirgan. Bularning barchasi yosh avlodning musiqi-estetik tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi: cholg'u musiqasiga qiziqish uyg'otib, ijro mahorati darajasini oshirish, musiqiy va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, shuningdek, turli ansambllar va orkestrlarni tashkil qilishda muhim omil bo'lgan. Ammo 1949 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan uchinchi respublika badiiy havaskolar olimpiadasida joylarda, birinchi navbatda ansambllar va orkestrlarni tashkil etishdagi kamchiliklar mavjudligi aniqlanadi. Shu sababli, respublika hukumati o'zbek xalq cholg'u asboblarining ortib borayotgan ijro imkoniyatlarini hisobga olib, pedagogik jamoatchilik oldida ansambllar va orkestrlarni tashkil qilish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, cholg'u musiqasiga barqaror qiziqishni uyg'otish va yosh avlod o'rtasida musiqa madaniyatining asoslarini shakllantirish kabi muhim vazifani qo'yadi.

Ushbu vazifalarni bajarish zarurati bilan bir qatorda, musiqa pedagogikasi sohasidagi mutaxassislarni, jumladan, o'zbek xalq cholg'u asboblari mutaxassislarni, xususan, ansambl va orkestr sinflarida faoliyat olib boradigan mutaxassislarni tayyorlash sifatiga katta e'tibor beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 60-yillarda respublikadagi musiqa muassasalarida qashqar rubabi, rubob-prima, chang, gijjak, dutor va boshqa milliy cholg'ular sinflari ochilgan bo'lib, bu sinflarda cholg'u asboblarini chalishni o'rganishni takomillashtirishga katta yordam beradi, ansambl va orkestrlarni tashkil etish uchun katta imkoniyatlar ochadi va ko'p ovoqli san'atga qiziqish faollashadi. Musiqiy pedagogikasining rivojlanishiga 60-yillarda respublikaning iqtidorli kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlar ham yordam bergan. Ularning majoziy mazmuni, ifodalilik vositalari va sof texnik tomoni klassiklardan sezilarli darajada farqlanib, yangi, qiziqarli ijrochilik va pedagogik vazifalarni vujudga keltiradi. Bu nafaqat ijrochilik mahoratini rivojlantirishga yordam bergan, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy madaniyatini rivojlantirib, ularning estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Xalq cholg'ularini chalishni takomillashtirish maqsadida "Chang darsligi"(A.Odilov va A.Petrosyants-1961 yil), "ijjak darsligi"(S.Aliyev va

R.Felissiant-1961 yil), “Rubob darsligi”(F.N.Basilyev – 1963 yil), “Dutoda chalish dasligi”(M.A.Asilov va F.N.Vasilyev -1969 yil) singari darsliklar va o’quv qo’llanmalari yaratiladi. Ushbu darsliklarning ahamiyati shundan iborat bo’lganki, ularda cholg’u asbobida ijro uslubi, har bir asbobning ovoz imkoniyatlari, texnik jihatdan o’zlashtirib olish jihatlari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan materiallar bilan ahamiyatli bo’lgan. Ular boshlang’ich o’qishga mo’ljallangan va o’quvchilar uchun juda foydali hisoblanib o’quv va badiiy materiallarning o’lchovli hamda ketma-ket shaklda beilganligi bilan ham yanada ahamiyatli bo’lgan.

Ushbu dasliklar bilan bir qatorda boshqa bir qator o’quv qo’llanmalar, ayniqsa ko’p ovozli ansambllar va orkestrlarni tashkil qilish va takomillashtirishda samarali yordam ko’rsatadigan o’quv qo’llanmalari nashr etiladi. Snulardan “Dutor ansambllari uchun p’essler”(A.H.Liviev- 1962 yil) qo’llanmasini misol tariqasida aytish o’rinli. Shu singari nashr etilgan boshqa o’quv qo’llanmalarida ansambl va orkestrlarning maqsadi va vazifalari, ishning mazmuni, o’qitish va tarbiya usullari, ya’ni o’quv va tarbiyaviy ishlarning butun jarayoni yoritilgan.

ANSAMBL JAMOALARI VA SAN’ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

19-asr oxiri va 20-asr boshlarida karnay, surnay, doira, nag’ora, katta baraban kabi damli-zarbli cholg’ular ansambli, shuningdek doira va nay, qo’shnay, bulamon kabi puflama(damli) cholg’u asboblaridan iborat aralash ansambllar faoliyat ko’rsatgan. Bu xildagi ansambllar maishiy va ijtimoiy hayotda faol qatnashgan. Ansambllar repertuarining asosini harbiy musiqa, xalq teatri va sirk namoyishlari, xalq raqsi kuylari bilan birga cholg’u asarlari tashkil etgan. Asarlar marshohna xakter ko’rinishida bo’lgan. Sarbozcha, Suvora, Duchuba, Darboz, Charx, Asqariy, Norim-norim kabi asarlar Ijro etilgan. Aralash ansambllarning chiqishlari asosan konsert xarakteriga ega bo’lgan va choyxonalarda, xususiy uylarda o’z san’atini namoyish etgan, shuningdek, to’y hamda oilaviy bayramlarda xizmat qilishgan. Guruhlar tarkibiga qo’shiqchi, ba’zan esa bir nechta raqqoslar ham kirgan bo’lib "Azim Daryo", "Gulbahor", "Dilxiroj", "Dutor Bayoti", "Jonon", "Ilg’or", "Rok Qashkarchasi", “Samoyi dugoh”, “Tanovar”, “Chaman yalla”, “Cho’li Iroq”, “O’zganча”, “Qalabandi Ufari”, “Hanuz”, Mushkiloti dugoh”, “Mug’ilchasi” kabi qo’shiq va raqs kuylarini ijro etgan. Ushbu turdagi unison ansambllari barqarorlashganligi bois bugungi kunda ham mavjud. Dutorlar, tanburlar va changlarda unison musiqasi ijro etilganda, juft simlar chertilganda paydo bo’ladigan tovushlarda ko’p ovozli elementlari vujudga keladi. Bunda kvarta, kvinta, oktava kabi intervallar xarakterli bo’ladi.

Tarixdan ma'lumki, XX asrning 20-yillaridan boshlab O'zbekistonda yangi davr hukum sura boshladi va jamiyatda, jumladan, musiqa hayotida yangi g'oyalari paydo bo'la boshlaydi. Eng muhimlaridan biri – milliy cholg'u asboblarni qayta ishlash, takomillashtirish g'oyalari vujudga keladi. Cholg'u asboblarini qayta qurish va takomillashtirish ansambl ijrosining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi ularning yangi turlari paydo bo'ladi. Shunday qilib, XX asrning 20-30-yillarida musiqiy asboblarning barcha turlarini o'z ichiga olgan yirik an'anaviy ansambllar (orkestrlar) yaratildi. Ana shu ansambllardan biri 98 ijrochidan iborat bo'lgan va T. Jalilov boshqargan "Etnografik orkestr" edi. Bu orkestrda Usta Usmon Zufarov tomonidan yaratilgan "katta gijaklar", "katta dutorlar" kabi past registrlil musiqasi asboblari birinchi marta yangraydi. Keyinchalik, ushbu ansambl asosida N. Mironov 24 musiqachidan iborat bo'lgan va nota asosida ijro etadigan "notali orkestr" nomli jamoani tashkil etadi. Ansambl ("Orkestr") o'zbek navolari va dunyo xalqlarining qo'shiqlaridan tashqari: ruscha "Oy porlaydi" («Светит месяц»), ukraincha "Reve ta stogne Dnibr shirokiy", gruzincha "Suliko", tojikcha "Aspandijoyiman", ozarbayjoncha "Irati", "Saboyshame" kabi asarlarni ijro etgan.

O'zbekiston xalq artisti Tamara Xonim tashabbusi bilan O'zbekiston davlat filarmoniyasida xonandalar, raqqosalar, sozandalardan iborat yangi bir ansambl tashkil etiladi. Sozandalar orasida taniqli musiqachilardan E. Shukurullaev (rubab), G. Salixov (doira), P. Rahimov (chang), R. Hamdamov (nay), S. Karakash (fortepiano) bor edi. Ularning roli asosan hamroh qo'shiqchilar va solistlarga jo'rnavozlik qilish bilan cheklangan. Ushbu ansamblning repertuarida dunyo xalqlarining ashulalari, o'zbek laparlari va yallalari yangragan. Bu ansambl 1940 yillarning boshlarida cholg'uchilar va Tamara Xonim yagona qo'shiqchi hamda raqqosachi sifatida faoliyat yuritadigan kamer ansambliga aylantiriladi. Ansambl a'zolari xalq qo'shiqlari va raqslarini ommalashtirish maqsadida eng yaxshi namunalarini to'playdi va ijro etish yo'llarini tiklaydi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekiston musiqa san'ati yilnomasida shonli sahifa sodir bo'ladi. Front konsert brigadasi tarkibiga kirgan o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambllari juda ko'p xayrili ishlarni amalga oshiradi. Konsert va teatr muassasalari rassomlari va musiqachilari, O'zbekiston davlat filarmoniyasining jamoalari, Toshkent va Leningrad konservatoriyalari o'qituvchilari va talabalaridan iborat bo'lgan mazkur ansambllar urush jabhalarida to'rt yuzdan ziyod konsert beradi. Gavxar Rahimova boshchiligidagi brigada Shimoliy-G'arbiy front va Moskva mudofaa zonasining oldingi harbiy qismlariga faol ravishda xizmat qiladi. Ushbu brigada tarkibiga taniqli musiqasi ijrochilari: M. Qosimov (nay), S. Yo'ldoshev (g'ijjak), G. Azimov (doyra), G. Grigoryan (tor), M.

Niyozov (g'ijjak), S. Gabrielyan (g'ijjak) kirgan. Musiqachilar bir vaqtning o'zida frontcha qo'shiqlarni ham yaratib kuylaydilar.

Taniqli rejissyor M.Muxamedov boshchiligidagi "O'zbekdavlatfilarmoiniyasi"ning yoshlar brigadasi frontning oldingi qatoriga tashrif buyurishadi. Ansambl tarkibiga g'ijjakchi S.Aliyev (yetakchi), naychi D.Soatqulov, rubobchi M.Mirzaev va E.Shukurllayev, doyrachi Sh.Xamdamov kabi sozandalar kirgan. Repertuar asosini o'zbek xalq musiqasi, hajviy qo'shiqlar, cholg'u kuylari va raqlari tashkil etgan. O'zbek xalq cholg'ulari ansambli konsert brigadalaridan birini changchi F. Sodiqov boshqargan.

Urushdan keyingi davrda ansambllar ijrosi yanada rivojlanadi. O'zbekiston radiosi qoshida yangi turdagi domra seksteti ansambli yaratiladi. Ansamblning cholg'u tarkibi domra prima, domra alt, domra bas, domra kontrabas, rubab prima va qashqar rubobdan iborat bo'lgan. Ansamblda V. Martykovskiy (yetakchi), V. Yevdokimov, F. Vasilev, I. Kogan, V. Serdyukov, B. Valberg faoliyat yuritgan. H.Nosirova, S. Xo'jaeva, B. Davidova, D. Mulloqandovlar yakkaxon xonanda solist sifatida faoliyat yuritgan. Ansamblning asosiy vazifasi xalq musiqasi va o'zbek bastakorlarining asarlarini radio orqali ommalashtirish edi. Ansambl repertuaridan G. Mushel, M. Burxonov, M. Liviev, S. Yudakov, B. Gienko, X. Rahimov, S. Bobayevlarning asl asarlari o'rin olgan.

1950-60 yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasida turli tipdagi ansambllar tashkil topadi. Jumladan, dutor prima, alt, an'anaviy(tipik), bas, kontrabas dutorlaridan iborat bo'lgan dutorchilar ansambli yaratiladi. Noxonli va torli-chertma sozlar guruhi asboblari (ruboblar va dutorlar) ansambllari, torli-zarbli sozlar guruhi (changchilar) ansambllari, torli-kamonli cholg'ular (g'ijjaklar) oilalaridan iborat torli kvintetlar va g'ijjakchilar kvinteti yaratiladi. Shuningdek, g'ijjakchilar, g'ijjak (qobiz) baschilar, afg'on rubabchilari va udchilarlar unison ansambllari ham shakllanadi.

Respublikamizning konsert tashkilotlari ham turli ansambllar bilan boyitiladi. Jumladan, "Lazgi", "Shodlik", "Go'zal" ashula va raqs ansambllari, dutorchilar ansambli, O'zbekiston Davlat televideniesi va radiosining maqomchilar ansambli faoliyat yurita boshlaydi. 1946 yilda "O'zbekdavlatfilarmoniyasi" qoshida ashula va raqs ansambli tashkil etiladi. Ansambl qoshida esa nay, chang, rubob-prima, qashqar rubob, afg'on rubobi, bas dutor va kontrabas g'ijjak va doira chaladigan 15 nafar cholg'u asboblaridan iborat ko'p ovozli cholg'u ansambli ham tashkil etiladi. A. Maqsudov (nay), S. Yo'ldoshev (g'ijjak), B. Sharipov (doyra), U. Xamidov (afg'on rubobi) kabi tajribali sozandalar ansamblning cholg'u qismining asosini tashkil etgan. Jamoaning musiqa rahbari kompozitor H.Rahimov xorij

kompozitorlari asarlari va dunyo xalqlari musiqasini cholg'ulshirib ansambl repurtarini boyitib boradi. E'tiborli tomonlaridan biri shundaki, mazkur jamoa 1951 yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'atining dekadasida o'z chiqishlari bilan muvaffaqiyatli ishtirok etadi. Uzoq yillar davomida M. Turg'unboeva, G. Izmailova, K. Mirkarimova, E. Yo'ldoshev, Y. Ergashev, K. Ismoilova kabi ajoyib san'atkor-ijrochilar ansambl bilan hamkorlik qilgan.

1957 yilda ashula va raqs ansambli tarqatib yuborildi va uning asosida turli davrlarda yangi ijodiy guruhlar tashkil etiladi: "Bahor", "Shodlik", "Lazgi", "Go'zal", Uyg'ur ansamblari shular jumlasidandir. Taniqli raqqosa, xoreograf, xalq artisti M. Turg'unboeva tashkil etgan va badiiy rahbar bo'lgan "Bahor" xalq raqsi ansamblining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ansamblda naychi R. Hamdamov, doyrachilar K. Dadaev, T. Sayfuddivov, rubobchi X. Lutfullaev, qo'shnaychi S. Sobirov va musiqa rahbari, changchi B. Aliyevlar uzoq yillar faoliyat yuritadi. Repurtiardan bastakorlar M. Mirzaev va Y. Rajabiyning "Paxta", "O'zbek vals", "Uch dugona" asrlari, shuningdek, "Namangan olmasi", "Besh Qarsak", "Tanovor", "Bayot" kabi o'zbek xalq qo'shiqlari va raqslari o'rin olgan. Ansambl muvofaqiyatli faoliyatli uchun 1973 yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi.

1958 yilda tashkil etilgan O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Shodlik" ashula va raqs ansamblining faoliyati ham tahsinga loyiq. Ansamblning cholg'uchilar guryhi 12 sozandadan tashkil topgan. Ansamblga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, g'ijjakchi S. Yo'ldoshev badiiy rahbarlik qilgan. 1958 yilda O'zbekiston davlat filarmoniyasida tashkil etilgan "Lazgi" ashula va raqs ansambliga esa O'zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova uzoq yillar badiiy rahbarlik qilgan. Bu ansambl cholg'u tarkibi nay, chang, rubob, dutorlar, g'ijjak, doyra, akkordeon kabi musiqa asboblardan iborat bo'lgan. Jamoaning asosiy vazifasi - o'zbek xalq musiqasi, dunyo xalqlarining qo'shiqlari va raqslarini targ'ib qilish hisoblangan. Jamoaga turli yillarda N. Djumaniyazov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, rubabchi A. Otajonov, R. Sharipova boshqargan. Hozir bu jamoga O'zbekiston xalq artisti O. Sobirov badiiy rahbar sifatida faoliyat yuritmosda.

1973 yildan e'tiboran O'zbekiston davlat filarmoniyasining "Go'zal" vokal-xoreografik ansambl faoliyat yurita boshlagan. Ansamblning birinchi rahbari taniqli bastakor M. Tojiev edi. Ansambl yosh iste'dodli ijodkorlar va respublika san'ati yutuqlarini targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan. Ansamblning cholg'uchilar takibini changchi T. Sobirov, g'ijjakchi Sh. Yuldashev, naychi D. Kimyogarov, qashqar rubobchi M. Madumarov, dutorchi T. Pattaxov va doyrachi R. Akbarbekovlar tashkil etgan.

Shu o'rinda 1951 yilda O'zbekiston Televideniyesi va radio eshittirishlar davlat qo'mitasi huzurida maqomchilar ansamblining tashkil topganini yana bir bor qayd qilib o'tmoqchimiz. Maqomistlar ansamblining cholg'u tarkibiga: nay, chang, ruboblar, tanbur, sato, dutorlar, g'ijjaklar va doyra bo'lgan.

1961 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida tashkil topgan changchilar ansambli tarkibidan chang oilasining asboblari o'rin oladi. 1972 yilda esa g'ijjaklardan iborat yana bir ansambl, ya'ni kvartet ansambli tashkil topadi. Uning tarkibinin B. Rasulev (I g'ijjak), B. Yaminov (II g'ijjak), X.Komilov (qobiz bas) va M. Toshmuhamedov(g'ijjak alt)dan iborat cholg'uchilar tashkil etgan. G'ijjak kvarteti musiqa ijro etishning yangi shakli sifatida konsert dasturlarini muvaffaqiyatli ijro etadi.

1979 yilda esa taniqli musiqachi-bastakor, lirik qo'shiqlar va cholg'u kuylari muallifi, O'zbekiston xalq artisti, ajoyib g'ijjakist G'.Toshmatov dutorchilar ansamblini tshkil etgan. Ansambl ijrochilarining o'ziga xos xususiyati shundaki, dutorchilar xalq an'analarini saqlab qolgan holda dutor chalish bilan bir vaqtning o'zida qo'shiq kuylashadi. Ba'zi hollarda esa ularning ijrosiga yakka raqqoslar hamrohlik qiladi.

Shunday qilib, ansambl ijrosi san'atining amaliyoti har xil turdagi ansamblarni tashkil etish mumkinligini asoslab beradi. 2 qo'shnay, 2 naydan iborat yog'och-puflama asboblari ansambli; 4 chang oilasidan iborat ansambl, chang-pikkolo, 2 ta chang, tenor va bas changlardan iborat bo'lgan kvartet yoki kvintet ansamblari; 2 ta primo-rubob, qashqar rubobi va afg'on, bas va kontrabas dutorlaridan iborat noxunli hamda torli-chertma sozlar seksteti; prima ruboblar ansambli; 2 ta prima, 4 ta alt, 2 ta bas va 1 ta kontrabasdan iborat dutorlar oilasining ansambli; 2 g'ijjak, alt, bas g'ijjak va kontrabas qobiz kvarteti yoki g'ijjaklarning kvintetini tashkil etish mumkinligini misol aytish mumkin. Shuningdek, 1 nay, 1 qo'shnay, 1 chang, 2 qashqar va 2 afg'on ruboblari va doiradan iborat aralash ansamblarning ko'p ovozli va an'anaviy xalq musiqasini ijro etishi mumkinligini aytib o'tish joiz.

Hozirda mamlakatimiz potytaxti Toshkent shahri, Qoraqalpoqiston avtonom Respublikasi, barcha viloyatlar, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida turli ko'rinishdagi ansamblar faoliyat yuritmoqda. Bu shundan dalolatki, musiqa asarlari va xalq kuylari hamda qo'shiqlari vositasida xalqning ma'naviy madaniyatini muntazam o'stirib borish uchun davlatimiz tomonidan belgilangan vazifalarni bajarib borishda ansamblar ijobiy ishlarni amalga oshirib borishi kerak.

UCHINCHI QISM

Ansambl turlari va ularda ijrochilik

Milliy musiqa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, avvalo, xalqimizning o'tmish va hozirgi kundagi madaniyati hamda san'atini ohanglarda ifodalab kelmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda o'zbek xalqining asl musiqasi o'z ifodasini hech qachon yo'qotmaydi. Bu borada har tomomnlama yetuk va mohir sozandalar xizmatini, ularning o'zaro hamkorlikda, ansambl jamoasi shaklida faoliyati uyritib kelayotganligini alohida ta'kidlash o'rinli.

Ma'lumki, ansambl iborasi fransuzcha "ensemble" so'zidan olingan bo'lib – birgalikda degan ma'noni bildiradi. Cholg'u asboblarida birgalikda chalish, jo'rnavozlikda qo'shiq kuylab raqslar ijro etish ansamblning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ansambl musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi, bir guruh sozanda va xonandalarning bir butun badiiy jamoa holida chiqishidir. Ansambl tarkibiy tuzulmasi va faoliyat yuritishiga ko'ra o'z nomiga ega bo'ladi. Masalan, vokal cholg'u ansambli, cholg'u asboblari ansambli, maqom ansambli, raqsa ansambli va hokazo. Ansambl atamasi yaxshi tuzilgan va yuksak ijrosi bilan ajralib turadigan badiiy jamoalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Ansamblning asosiy xususiyati va vazifalaridan biri shundaki, uning tarkibidagi har bir ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlar mazmun-mohiyatini, g'oyaviy tuzulmasini badiiy idrok etishi, o'z mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, o'rni kelganda jo'rnavozlik vazifasini bajarib borishidir. Ansambl tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi o'ziga xos alohida bilim, saviya, mahoratga ega bo'lsada, lekin ularning barchasi bir maqsad sari faoliyat yuritishi talab etiladi.

Oliy ta'lim tizimida ansambl fanidan dars bruvchi o'qituvchining asosiy va muhim vazifalaridan biri shundaki, u har bir cholg'uchining ijrosiga alohida e'tibor bilan qarashi, cholg'u asbobida asar mazmun-mohiyatini to'la-to'kis ifodalab berishni ta'minlasi kerak. Chunki, uyqorida qayd qilib o'tilganidek cholg'uchi (talaba)larning bilim saviyasi, ijro mahorati bir xilda bo'lmasligi mumkin. Jumladan, ular orasida asarni to'liq yod olmaganlari, ba'zi bir kamchiliklar bilan ijro etadiganlar bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ham o'qituvchi ijro jarayoni paytida shu jihatlarga alohida e'tibor berishi zarur. Zero, ijrodagi har bir kamchilik, xatoliklar ansamblning umumiy ijro saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Barcha turdagi ansambllar, jumladan an'anaviy ijrochilik ansablida sozlarning o'zaro uyg'unlik kashf etishi muhim ahamiyat kasb etadi. G'ijjak, doira, chang, rubob, tanbur, qo'shmay, dutor, nay, ud sozlarining uyg'unligidagi ijrosi

ansamblni bir maqsad sari yo'naltirish, asarlar mazmun-mohiyatini ifodalshga o'z ulushini qo'shishi bilan xarakterlanadi. Ansambl tarkibidagi cholg'ular va ularning ijro xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishlik esa har bir talaba-ichrochi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, turli xildagi cholg'ularga nisbatan tajribasining ma'lum darajada o'shib borishiga da'vat etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, an'anaviy ijrochilikda yakkanavozlik, jo'rnavozlik va uni qay darajada o'zlashtirib borishlik alohida ahamiyatga ega. Yakkanavozlik va jo'rnavozlikda asarni o'zlashtirib borishlik musiqaning umumbashariyatga xos bo'lgan ichki xususiyatlariga bog'liqdir. Musiqiy ijro usuli va ohangning hamjihatlikdagi uyg'unligi natijasida badiiy-musiqaviy obraz pirovardiga yetadi. Shu bois, ansamblidagi har bir cholg'uvchi cholg'u musiqasining asosi bo'lmish ijro uslublari ilmidan voqif bo'lishi maqsadga muvoffiqdir. Jumladan, zarb usluni, uning ritmik tuzulmasini aniq tasavvur qilib o'z cholg'i asbobida ijro etishi zarur. Bu jihat o'zbek musiqasida doyra usullari vositasida shakllanadigan ohang bilan bevosita bog'liqligini qayd etib o'tish o'rinli. Doyra jo'rnavozlikda alohida yetakchi vazifani bajaradi.

Shunday qilib, ansamblidagi har bir sozanda doyra usullari haqida tasavvur, tushunchaga ega bo'lishi shart, shundagina uning ijro etayotgan asari ravon, mukammal hamda uyg'unlik jozibasiga ega bo'ladi.

Cholg'u asboblari tarixidan ma'lumki, XX asrning 30-50 yilarida sozlar mumkin qadar ko'paytirilidi, natijada keng hajmdagi tovushqator, o'ziga xos tovush tembri hosil etildi. Bu o'z navbatida, amaliyotda turli xil ashula va raqs hamda dutorchilar ansamblari, turli vokal va orkestrlar jamoasini tuzish imkonini berdi. E'tiborli tomonlaridan biri shundaki, 50 yillar oxirida o'zbek mumtoz musiqasiga alohida e'tibor berilib, O'zbekiston radiosi qoshida professional maqomchilar ansambl tashkil etiladi. Bu ansamblga o'z zamonasining eng yetuk cholg'u ijro etuvchi sozandalar, maqomdon xonandalar taklif etiladi.



Maqomchilar ansamblini musiqa ijrochiligi tarixi va amaliyotida eng nufuzli hamda mukammal shakllangan jamoa deb hisoblashga asoslar yetarli. Chunki bu ansambl qisqa davrdagi faoliyati davomida fundamental asar hisoblanmish

Shashmaqomning barcha nasr bo'limi musiqiy namunalarini va bir qator mushkilot qismlaridan asarlarni o'zlashtirib magnit tasmlarga yozdirishga va musiqa oltin fondiga qoldirishga muvassar bo'lishgan. Radioning oltin xazinasidan joy olgan musiqiy me'rosining ushbu namunalari har bir yosh avlodga an'anaviy ijro masalasida dasturi amal bo'lib xizmat qilib keldi va bundan keyin ham xizmat qiladi. Bu jamoaning ijodiy faoliyatini yanada yaxshilab borish, mahoratli ijrochilarni tayorlab berishda O'zbekiston davlat konservatoriyasining an'anaviy ijrochilik kafedrasini xizmati juda katta bo'lib kelmoqda.

Shunday qilib, maqomchilar ansambli singari boshqa turdagi ansambllar sonini yanada ko'paytirish, jumladan, inson ruhiyatiga bir me'yorda ta'sir etuvchi ovozga ega ansambllarni tuzishish maqsadga muvofiqdir. Tuzilgan ansambl tarkibida sozlarning sonidan qat'iy nazar, asosiy e'tibor ularning ijodiy faoliyati, ohangrabolik jihatdan yoqimli, kishini o'ziga maftun etadigan go'zal tarranumiga qaratilishi lozim. Ayni paytda Buxoro, Xorazm, Toshkent – Farg'ona, Samarqand, Andijon viloyatlari va boshqa joylarda faoliyat olib borayotgan maqom ansambllarining ijobiy faoliyatini alohida qayd qilib o'tish lozim.

Shu o'rinda ansambl turlari va ularda ijrochilikning o'ziga xos xususiyatlar haqida to'xtalish o'tish joiz:

Bir xil cholg'ulardan tashkil topgan ansambl

Bir xil cholg'ulardan tashkil topgan ansambllar turiga: doirachilar, rubobchilar, changchilar, dutorchilar, g'ijjakchilar va shunga o'xshagan bir xil cholg'ulardan tashkil topgan ansambllarni misol keltirish mumkin.



Bu xildagi ansambllar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularda (doirachilar'an tashqari) ham unison, ham ko'p ovozli asarlarni ijro etish imkoniyati mavjud. Shu o'rinda ma'lumot tariqasida aytib o'tadigan bo'lsak, o'tgan asrning 70-80 yillarida qashqar rubobchilari hamda dutorchilar ansambli joylarda keng tarqalib ommalashgan. 80-yillar oxiriga kelib esa doirachilar, changchilar ansambllari ommalashdi va shu ansambllar uchun kompozitorlar, bastakorlar tomonidan maxsus musiqa asarlari ham yaratildi. Shu o'rinda bastakor, qashqar rubobining mohir ijrochisi Muhammadjon Mirzayevning xizmatlarini alohida qayd qilib o'tish kerak. U rubobchilar ansambllarini tashkil etish va keng ommalashtirishga juda katta hissa qo'shgan. Xalqimizning sevimli cholg'u asboblaridan biri bo'lgan dutorning ijro imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda esa G'anijon Toshmatovning xizmati katta. U tashkil etgan dutorchi

qizlarlar ansambli nifuzi juda yuqori bo'lib, uning tarkibida ko'pgina taniqli cholg'uchilar, ashulachilar o'z vaqtida faoliyat yuritgan. Z.Suyunova, Q.Esanova kabi taniqli xonandalar shular jumlasidandir.

Doyrachilar ansamblining ham nifuzi juda yuqori. Doirachilar ansambllarida o'z mahoratini namoyish etgan G'afur Azimov, To'ychi Inog'omov, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlarni alohida qayd qilib o'tish o'rinli. Shuningdek changchilar ansambllari ham xalqimizga juda manzur bo'lgan. Bu borada professor Ahmad Odilovlarning mehnati katta bo'lib, u tomonidan tuzilgan ansambllarning targ'iboti katta rol o'ynaganini aytib o'tish o'rinlidir.

Turdosh cholg'ular ansambli

Har bir millat o'ziga xos musiqiy madaniyatga ega. Musiqa madaniyati rivojga esa cholg'u asboblari muhim rol o'ynaydi. Bu borada torli cholg'u asboblarning o'z o'ringa ega ekanligini alohida qayd qilib o'tish o'rinli. Torli cholg'u asboblari o'zining juda katta imkoniyatlarga egaligi turli ansambllar hamda orkestr tarkibiga uchratish mumkin. Jumladan, kamer ansambli nomi bilan Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan torli cholg'ular ansambllari musiqa madaniyatini rivojiga muhim ahamiyat kasb etib kelganligi tarixdan ma'lum.

Bizda bu xildagi ansambllar Yevropa mamlakatlariga nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Ya'ni ansambllar o'zbek xalq cholg'ularining qayta ishlanishi va takomillashtirilishi natijasida cholg'u oilalarining yangi avlodi paydo bo'lganidan keyin tashkil etila boshlangan. Zero, o'zbek xalq cholg'u asboblarning takomillashtirilishi tufayli ma'lum bir cholg'u asbobiga har tomonlama yaqin, o'xshash, lekin ovoz hajmiga, shuningdek, ba'zilarining sozlanishiga ko'ra farq qiluvchi turlari yaratiladi. Shu xildagi turdosh cholg'ular, o'z navbatida, asarlarni turli rangbaranglikda, ansambl shaklida ijro etish imkonini oshiradi. Masalan, an'anaviy g'ijjak asosida yaratilgan alt, bas va kontrabas gijjaklar o'zaro hamkorlik, birgalikda ijro etuvchi ansamblni shakllantirish imkonini yaratdi. Qashqar va afg'on ruboblari tarkibiga prima rubobining qo'shilishi esa rubobchilar ansamblini tashkil etish mumkinligini amaliyot ko'rsatib berdi. Shuningdek, turdosh cholg'ulardan tashkil topgan ansambllar qatoriga nay va kichik naylardan tashkil topgan ansambllardan nay oilasi ansamblini ham aytish mumkin. Changlar oilasiga mansub: pikkalo, prima, tenor, bas changlari birligida changlar oilasi ansamblini va hokazolarni misol keltirish mumkin. Faqat shuni unutmaslik kerakki, bunday ansambllarda qaysi cholg'udan nechtasi ishtirok etishi ularning sadolanishiga qarab belgilanadi. Ansamblda cholg'ular sonini belgilashda esa, albatta, ularning kuchli yoki kuchsiz tembr xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Ansamblning tembr jihatdan sifatligi, ohangrabolik, nafislikni o'ziga xos ko'rinishlarda ifodalashi uchun kuchli tembrli cholg'ulardan mumkin qadar kamroq, kuchsiz tembrga ega cholg'ulardan esa ko'proq faodalanish turish maqsadga muvofiqdir.

Turli cholg'ulardan tarkib topgan aralash ansambl

Amaliyotdan ma'lumki, turli cholg'ulardan tarkib topgan va aralash ansambllar deb yuritiladigan ansambllar boshqa turdagi ansambllarga nisbatan keng tarqalgan. Turli cholg'ulardan tarkib topgan aralash ansambllar ikki va undan ortiq cholg'uchilar ishtirokidagi jamoaga nisbatan aytiladi.



Bu xildagi ansambl tarkibiga tembri va turi har xil bo'lgan cholg'ularni kiritish bilan har tomonlama mukammal aralash ansambl tashkil etish lozim bo'ladi. Turli cholg'ular ishtirokidagi ansamblning o'ziga xos xususiyatli tomonlaridan biri shundaki, u milliy ruhdagi ijroni har tomonlama ifodalay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol tariqasida, puflab chalinadigan cholg'ulardan nay, qo'shnay; mezboli cholg'ular guruhidan qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur; chertma cholg'ulardan dutor, urma jarangli cholg'ulardan chang, tirnama cholg'ulardan qonun; kamonli cholg'ulardan g'ijjak, urma cholg'ulardan doira ishtirokidagi ansamblni aytish mumkin. Bunda eng asosiy e'tibor cholg'ular tovushining o'zaro bir-biriga qo'shilishi natijasida o'ziga xos uyg'unlashuv darajasini hosil qilishi va shu tariqa tovush sifatini yaxshilanishiga qaratish kerak.

Duet, trio, kvartet, kvintet va undan ortiq tarkibdagi ansambllar

Duet ansambli



Duet so'zi - nem. "Duett", lot. "duo" so'zidan olingan bo'lib "ikki" degan lug'oviy ma'noni bildiradi. Duet tarkibi ikki ijrochidan tashkil topgan bo'lib, shu xilda tuzilgan ansambl hisoblanadi. Musiqa asari ham ikki ijrochga mo'ljallab yaratiladi. Nota partiyasi esa har bir ijrochi uchun alohida bo'ladi.

Duet opera, oratoriya, musiqali drama asarlarida qo'llaniladigan vokal ansambli sifatida ham namayon bo'ladi. Musiqa dramaturgiyasida duet muhim ahamiyat kasb etadi. Duet shuningdek, operettada ansamblni xoreografiya elementlari bilan bog'laydi.

Duet ansambllari Evropada fortepiano hamda boshqa cholg'ular ijrosida faoliyat yuritib kelganligi musiqa tarixidan ma'lum. Shunga ko'ra ikki fortepiano yoki boshqa cholg'ular ijro etishiga mo'ljallab juda ko'p asarlar kompozitorlar

tomonidan yozilgan. Ba’zida musiqa asarlari “Sonata dueti” (“Сонатный дуэт”) deb nomlanadi. Bu ikki cholg’uch (ansambl) uchun yozilgan sonatadir.

Trio ansambli

Trio italyancha “trio” – “tre” – *uch so’zi* ma’nosini bildiradi. Uch ijrochidan tuzilgan ansamblga trio ansambli deyiladi. Bu atama ashulachilardan tarkib topgan uchlikka *tertset* deb aytiladi. Uch ijrochi uchun yozilgan musiqa asarlari partiyasi har bir cholg’u uchun mustaqil bo’ladi. Cholg’u ansambli amaliyotda fortepiano cho’g’usi triosi keng tarqalgan. Shunga binoan, fortepiano uchun trioga moshlashtirilgan asarlar juda ko’pchilik kompozitorlar tomonidan yaratilgan. Bu xildagi trio tarkibiga skripka, violonchel va fortepianolar kiradi.

Shuningdek, torli trio ansambli ham bo’lib, u skripka, alt va violoncheldan tuzilgan kamer ansambli, birinchi va ikkinchi skripka va altdan ham tuzilishi mumkin.



I.A.Akbarov tomonidan tuzilgan “Musiqa lug’ati” risolasida trio va shu turdagi ansamblarga quyidagi tushuntirishlar berilgan: “Aniq, ravon ritmlar bilan yozilgan uch qismli marsh, val’s va boshqa pyesalarning o’rta qismi. Odatda ikkinchi qism boshqa qismlarga nisbatan ohista, ohangdorligi, taraqqiy qiluvchi musiqa xarakteri bilan ajraladi. Trio nomi o’tgan asrda yaratilgan cholg’u kuylaridan kelib chiqqan bo’lib, buning o’rta qismlari esa butun orkestrdagi hamma cholg’u asboblarda ijro etilgan.”⁶

Kvartet ansambli

To’rt kishilik vokal yoki cholg’u ansambli. Manbalarda kvartet ansambli tuzulmasi haqida bir qator izohlar qayd etilgan. Jumladan, kvartetning torli tuzulmasi tarkibi ikki skripka, bir alt va bir violoncheldan iborat bo’lishi qayd

⁶ И.А.Акбаров “Музыка луг’ати”. Т.: “Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 й. 359 б.

etiladi. Yg'och asboblarni kvarteti ham amaliyotda mavjud bo'lishi va u fleyta, goboy, klarnet va fagotlardan iborat tarkibda tuzilishi aytilgan.

Suningdek, vokal ijro san'atida ham kvartet tuzulmasi mavjud. Bu xildagi vokal kvartetlarning tarkibiy tuzulmasi - soprano, alt, tenor va bas ovozlaridan iborat bo'lib, aralash kvartet deb ataladi.

Shu o'rinda erkaklar va xotin-qizlarning alohida tarkibli kvartet ansambllari mavjudligini aytib o'tish joiz. Jumladan, erkaklar kvarteti tarkibi - ikki tenor, bariton va bas ovozlaridan iborat tuziladi. Xotin-qizlar kvarteti esa ikki soprano, meststo - soprano va kontralto ovozlaridan tuziladi. Bu kvartetlar ichida amaliyotda juda ko'p tarqalgani va musiqa adabiyotidan keng o'rin egallagani torli kvartet hisoblanadi.



To'rt sozandaning ijro etishi yo to'rt ashulachining qo'shiq aytishi uchun ko'pgina musiqa asarlari yaratilgan. Jumladan, buyuk kompozitorlar - Motsart, Glier, Shostakovich va boshqalar torli kvartet ijrosi uchun bir qancha asarlar yaratdganlar. E'tiborli tomonlaridan biri shundaki, kompozitorlar torli kvartet asarlarini sonata shaklida yozgan. O'zbekiston kompozitorlaridan V. Meyen, Ikrom Akbarov, D. Zokirov, S. Yudakov, B. Gienko, D. Soatqulov va boshqalar torli kvartet uchun musiqa asarlari yaratdilar.



Shu o'rinda qayd qilib o'tish mumkinki, tarkibida fortepiano mavjud bo'lgan kvartet ansambli ham amaliyotda faoliyat yuritadi. Bu turdagi kvartet tarkibi skripka, alt, violonchel va fortepianodan tuzilgan bo'lib kamer ansambli deb yuritiladi. Lekin kvartet ansamblining bu turi kamdan - kam qo'llaniladi.

Kvintet ansambli

Kvintet so'zi italyanча “*quintetto*,” lotinча “*quintus*” so'zlaridan olingan bo'lib *beshinchi* degan ma'noni bildiradi. Kvintet cholg'u hamda vokal ijro san'atida qo'llaniladi. Besh cholg'u ijrochidan tuzilgan shakl kvintetni bildiradi. Agar torli kvartetga klarnet qo'shilsa bu kichik jamoa kvintetga aylanadi. Shunday tarkibli cholg'uchilar jamoasi bo'ladiki, qaysiki, torli kvartetga fortepiano ham qo'shiladi. Bu xildagi to'daga fortepianali kvintet deyiladi.



Qayd qilib o'tganimizdek, voka kvinteti ham bo'ladi.

Sekstet ansambli

Sekstet – nems tilida “*sextett*”, lotinча “*sextus*” so'zlaridan olingan bo'lib *oltinchi* degan lug'oviy ma'noni bildiradi. Shuningdek, sekstet iborasi italyanча “*sestetto*”, frantsuzча “*sextuor*”, inglizча “*sextet*” sozlarida ham ifodalanadi.



Sekstet oltita ijrochidan tuzilgan ansambl hamda har bir ovozi mustaqil partiyani tashkil etuvshi, olti ijrochi uchun yozilgan musiqa asaridir. Sekstet cholg'u va vokal ijrochiligida qo'llaniladi. Operada esa ishtirok etuvchi 6 kishining orkestr jo'rligidagi ijrosidir. Cholg'u seketeti odatda to'liq sonato-simfonik mazmunga xoslikni o'zida ifodalaydi. Musiqa tarixida qayd etilishicha cholg'u sekstet ijrochiligining ko'p tarqalgan dastlabki namunalari L.Bokkeriniga tegishli



Cholg' u sekstetlari 20 asrda ham tashkil etilgan. Damli cholg' ular uchun ham musiqa asrlari oz bo'lsada yaratilgan bo'lib ular tarkibi turlicha bo'lgan. Misol tariqasida sobiq Ittifoq davrida tuzilgan musiqa qomusida⁷ kompozitor L.Yanachenkaning flyeta, goboy, klarnet, bas-klarnet, valtorna va fagot uchun yozilgan “Молодость”(“Yoshlik”) syutasi misol keltirib o'tilgan. I.Brams, A.Dvorjak, P.I.Chaykovskiy, Mendelson-Bartoldi va boshqa bir qator kompozitor sekstet ansambli ijrosi uchun asarlar yaratgan.

O'zgar olmaydigan, doimiy birlikni tashkil etadigan, barqaror tarkibli sekstetlar aniq va murakkab asarlarni har zamonda chalib kelgan.

Septet ansambli

Septet – nems tilida “*septett*”, latincha “*septem*” so'zlaridan olingan bo'lib *etti* degan lug'oviy ma'noni bildiradi. Shuningdek, septet iborasi italyan tilida “*settetto*”, frantsuzcha “*septuor*”, inglizcha “*septet*” so'zlarida ham ifodalanadi. Septet etti ijrochidan tuzilgan ansambl hamda har bir ovozi mustaqil partiyani tashkil etuvshi, etti ijrochi uchun yozilgan musiqa asaridir. Septet cholg' u va vokal ijrochiligida qo'llaniladi. Operada esa ishtirok etuvchi 7 kishining orkestr jo'rligidagi ijrosidir. Opera septeti odatda so'ngi (final) pardadagi o'ziga xoslikni ifodalaydi. Cholg' u septeti asarlari ba'zi hollarda sonato-simfonik mazmunga xos bo'lgan tarzda yoziladi. Ko'pchilik holatlarda esa ular syuta xarakteiga ega bo'lib, qo'shimcha konsert va serenada janriga yaqinlashtirilgan. Shuningdek, aralash cholg' ular tarkibidan iborat bo'ladi. Septetning dong'I chiqqan namunalaridan – skripka, alt, violenchel, kontrabas, klarnet, valtorna, fagot kabi cholg' ular tarkibidan iborat turi hisoblanadi. Shuningdek, flyeta, gaboy, valtorna, alt, violonchel, kontrabas, fortepiano; flyeta, gaboy, klarnet, bas-klarnet, fagot, valtorna, truba; klarnet, valtorna, fagot, skripka, alt, violenchel, fortepiano turlari mavjud. Etti musiqachi sozandadan iborat ansambl septet uchun yozilgan asarlarni ijro etadi.

Oktet ansambli

Oktet – italyanacha “*ottetto*”, frantsuzcha “*octette*” yoki “*octuor*” inglizcha “*oktet*”, latincha “*okto*” kabi so'zlaridan iborat shakllangan bo'lib *sakkiz* degan lug'oviy ma'noni bildiradi. Oktet sakkizta sozandadan tuzilgan ansambl. Har birining o'ziga xos mustaqil partiyasiga ega sakkiz ijrochi-sozanda uchun yozilgan musiqa asari. Shuningdek, kam hollarda, 8 kuylovchi ovoz uchun yozilgan asar. Vokal oktetti asarlari odatga ko'ra turli tarkibdagi cholg' ular – fortepianodan to to'liq orkestr jo'rligigigacha yoziladi. Bunga misol qilib F.Shubertning I.V.Gyoti matniga asoslab 8 erkak ovozi, 2 skripka, 2 violenchel va kontrabas uchun yozgan “Песнь духов над водами” (“Suv ustidagi ruhlar qo'shig'i”) asarini aytish mumkin.

⁷ Музыкальная энциклопедия. М.: Изд. «Советская энциклопедия» 4-том. 1978 г. с.910.



Sakkiz cholg' u ijrosi uchun ansambl asari XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq paydo bo'lgan. Mualliflar sifatida Ye.Gaydn, V.A.Motsart hamda yosh Betxovenni misol keltirish mumkin. Biroq, bu xildagi asarlar qo'shimcha konsert va serenade janriga yaqinlashtirilgan. Oktetning nomi XIX asrga kelib odatiy tus oladi va kundalik hayot tarzidan o'rin egallaydi.

XIX-XX asrlarda cholg' u oktetni mazmunan va shaklan muayan sonata ko'rinishidagi ko'p qismli kamer asarlari sifatida xarakterlangan. Torli oktetni odatda o'zining tarkibiy tuzulmasiga ko'ra ikki barobar ortiq bo'lgan kvartetga o'xshaydi. Lekin torli oktet tarkubidagi cho'g'ular ikki barobar ortiq bo'lgan kvartet tarkibiga qarama-qarshi asoslanib o'zaro qo'shiladi va erkin holda uyg'unlashadi.

Amaliyotda damli cholg'ular oktetni ham uchraydi. Tarkibida fleyta, klarnet, 2 fagot, 2 truba, 2 tranbon bo'lgan oktetni misol aytish mumkin. Eng keng tarqalga, ko'p uchraydigan oktet turi - aralash tarkibli ansambl hisoblanadi. Shu xildagi oktet tarkibida 2 skripka, alt, violenchel, kontrabas, klarnet, valtorna, fagota, shuningdek, klarnet, fagota, valtorna, skripka, 2 alt, vilonchel, va kontrabas tarkibli oktetni ham aytib o'tish joiz.

Nonent ansambli

Nonent – italyancha “*nonetto*”, latincha “*nonus*”, nemischa “*nonett*”, inglizcha “*nonet*” kabi so'zlaridan iborat shakllangan bo'lib *to'qqiz* degan lug'oviy

ma'noni bildiradi. To'qqiz sozandadan yoki 9 ashulachidan tuzilgan ansambl. Sikli sonata shaklida 9 sozanda uchun yozilgan musiqa asari. Nonent 9 ashulachi uchun ham yozilishi mumkin. Zero, operada 9 ashulachi uchun ansambl bo'ladi. Cholg'u nonenti sonata-simfoniya sikli shaklidagi ko'p qismli kamer asarlarini o'zida ifodalashi bilan xarakterlanadi. Cholg'u nonenti tarkibi asosini odatga ko'ra – torli kvartet yoki kvintet hamda ulrga qo'shilishi mumkin bo'lgan turli yog'ochli damli cholg'ular, valtorna tashkil etadi. Aralash tarkibli nonent XVIII asrdagi serenade cho'g'u janri xarakteriga yaqinlashtiradi. Nonet XIX asrga kelib paydo bo'ladi. Uning eng dastlabki namunasi nemis kompozitori, skripkachi, dirijyor va pedagog L.Shporaning shu janr bo'yicha yozgan asari tashkil etadi. Shuningdek, F.Laxner, Ye.Reyenberger, Ch.Stanford, A.Baks, A.Xaba kabi kompozitorlarning ham nonent rivojida hissasi katta.

Nonet janri kam ommalashganligi, aniqrog'i keng tarqalmagn. Shu sababli ham nonentning barqaror ijochilari amaliyotda juda kam kuzatiladi. Nonent ansambli kvartetchilar ansambli singari kerakli cholg'u ijrochilarini chetdan oladi.

O'zbek xalq cholg'u asboblarining xususiyatlari

O'zbek xalq cholg'u asboblari turli millatlar musiqasini nota bilan chalishga imkon beradigan shaklda qayta ishlangan musiqa asboblaridan tashkil qilinadi. Qayta ishlangan cholg'u asboblaridan tashkil topgan ansamblda turli katta-kichiklikda temperastiyalanib ishlanganiga ko'ra, unda eng past (yo'g'on) va eng baland (ingichka) tovushlarni chalish mumkin.

Cholg'u asboblarining xilma-xilligi, tovushlarining rang-barangligi, boy shtrix va ijroviy texnik imkoniyatlarga ega bo'lganligi o'ziga xos kolorit (tovush uyg'unligi) va ifodali cholg'u ansamblini hosil qiladi.

Kamonli-torli cholg'u asboblarining tovush sifatiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lganligi tovushlar ohangdoshligi va uyg'unligini juda yaxshi ta'minlay oladi.

Tirnama cholg'u asboblar guruhi kamonli-torli cholg'u asboblari guruhidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Tirnama cholg'u asboblarning tuzilishi turlicha, torlari po'lat yoki paydan iborat. Chalib tovush hosil qilishda esa turli vosita (plastmassa, temir, charm noxun) va usullardan foydalaniladi. Shularga ko'ra ularning tembr xususiyatlari bir-biriga mos kelmasada, lekin tovushlari ijro usullarini birlashtirish xususitlariga ega. Shu o'rinda aytish joiz, akademik aralash ansambl ijrosida tembr xususiyatlari bir-biriga mos keluvchi cholg'u asboblari: afg'on rubobi, dutor bas, qashqar rubobining uchinchi tori, prima rubobining uchinchi va to'rtinchi torlari ijrosida o'rinli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Prima rubobining birinchi va ikkinchi torlari, qashqar rubobining birinchi va changning yuqori registdagi torlarining sadolanishi o'ziga xos hamkorlikdagi tovush rang-baranglikni hosil qiladi.

Kamonli-torli va tirnama cholg'u asboblari guruhi ansamblning ovoz kengligini to'liq qamrab oladi. Ularning har bir guruhi unison ijro xususiyatiga ega bo'lganligi bois aralash ansamblning asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, urma cholg'u asboblari kuchli dinamik o'zgaruvchanlik tovushga ega. Ansambl ijrosi davomida ular ijro dinamikasi alohida e'tibor qaratish va ansamblning umumiy tovushidan ustunlik qilmasligini ta'minlab turish kerak.

Zamonaviy o'zbek xalq cholg'u asboblari ansamblning ijroviy imkoniyati keng. Bu o'z navbatida, kompozitorlarning turli tarkibdagi ansambllar uchun turli tonlikdagi musiqa asarini yozishga da'vat etadi.

Shunday qilib, o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambli o'zining musiqiy-badiiy ifoda sifati va imkoniyatlari bilan o'ziga xos o'ringa ega. Ansambl asarlardagi badiiy voqelikni yorqin, ifodali ochib beradi. Musiqa asboblarning o'zaro uyg'unlikda ijro etishi ansamblning ta'sirchanlik xususiyatini oshiradi. Tinglovchida musiqa madaniyati haqida yangi qirralarni hosil qiladi, yangi tasavvurlarni shakllantirib boradi.

O'zbek xalq cholg'u asboblarning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, u oiladosh cholg'u asboblardan iborat – duet, trio, kvartet ansambllarini tuzish imkonini beradi. Ularga misol chang, dutor, ruboblardan iborat tuziladigan ansamblni aytish mumkin. Shuningdek, ikki yoki uch oiladosh musiqa asboblari: dutor-rubob, dutor-chang, dutor-rubob-changlardan iborat ansambllarni ham tuzish mumkin. Bu xildagi ansambllar tarkibini puflama yoki kamonli-torli asboblari bilan boytish mumkin. Masalan, dutorlar ansambliga doyra, rubob, gijjak, yoki chang qo'shish orqali ularning tovush sifati va rang-barangligini oshirish imkonini hosil qilinadi. Bularning barchasi joylarda, badiiy havaskorlik jamoalari qoshida turli tarkibli ansambllar ochib faoliyat yuritish imkonini beradi.

Ansamblida ijro etish qoidalari

Talabalarning ansamblida ijro mahoratini egallashi ko'p jihatdan ularning ansamblida turg'un o'ringa ega bo'lib to'g'ri joylashtirishga bog'liq bo'ladi.. Cholg'u sozini to'g'ri ushlashi etikasiga, cholg'udan tovush chiqarish mahoratini egallab borishga, ijro malakalarini muntazam o'stirib borish hamda jamoaviy ijro qoidalari to'liq rioya etishlik ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shuningdek:

- ijrochining cholg'u asbobini chalishdagi harakatlarining qulay bo'lishi, o'rindiqqa to'g'ri o'tirishi, qomat va yelkalarini chiroyli ko'rishda bo'lishi;
- chap qo'lga cholg'u dastasiga to'g'ri joylashishi, ijro qilganda barmoqlarni prdalarga to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibiga rioya qilish;
- o'ng qo'lga doir qoida va talablarga to'liq rioya qilish hamda ijro harakatlarining erkinligiga erishish;

- talabalar asar ijrosini boshlashda yetakchi cholg'uchi, o'qituvchining imo-
ishorasi yoki doirachiga e'tibor qaratishlari;
- asarni chalish qoidalariga rioya qilish, dinamik rang-baranlik talablarini bajarib
borish, ijroni bir vaqtda boshlab bir vaqtda tugatishlari;
- ijro davomida jamoaviy ijro madaniyati, etikasiga rioya qilishlari;
- ijro vaqtida sozanda o'zi chalayotga soz tovushini eshitishi, ohangraboligini his
qilishi va butun ansambldagi cholg'ular tovushini eshitishi, ohang ifodaliligini his
qilishi;
- ansamblning yaxshi sadolanishi, ijroning sifati va jozibadorligiga erishishni
ta'minlashda o'z hissasini o'shishi talab etiladi.

Ansambl faoliyatini boshqarish

Cholg'u ijrochiligidagi asosiy vazifalardan biri - uni pedagogik nuqta nazardan to'g'ri boshqarishdir. Pedagogik boshqarish musiqa ijrochiligining eng muhim talablaridan biri bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Pedagogik faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u ansambl fanidan dars beruvchi o'qituvchidan boshqaruvchilik, pedagogik, tashkilotchilik qobiliyati va mahoratning bo'lishini talab etadi. Ansamblni boshqaruvchi o'qituvchi birinchi navbatda puxta nazariy bilimga ega bo'lishi, ansambl tarkibidagi barcha cholg'ular xususiyati, ijro imkoniyatlarini yaxshi bilishi, ularning ansambl ijrochiligiga moslashtirish yo'l va usullarini, repertuardagi har bir musiqa asari shakli va o'ziga xosligi (fakturasi)ni erkin tahlil qilishni, aralash ansambl partiturasini puxta o'qiy bilishni, asarlarni ansambl asboblari ijrosi uchun moslashtira olishni bilishi kerak. Shuningdek, garmonik, intonastiyali, tembrli rivojlangan o'quv qobiliyatiga, ritmni aniq his qilish malakasiga hamda vokal san'ati asosini yetarlicha farqlay oladigan bilimga ega bo'lishi darkor.

O'qituvchining asaosiy vazifalaridan yana biri shundaki, u ansambl ijro sifatini yaxshilab borish uchun muntazam izlanishi, aralash tarkibli ansambldagi har bir cholg'u partiyasi tovush sadosining sofligi va dinamikasining to'g'ri ta'minlab borishidir. O'qituvchi o'z ko'rsatmalarini aniq ifodalab borishi va ansambl a'zolarining asarlar ijrosi davomida o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qilib borishi asarning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunib olish jarayonini yengillashtiradi. Natijada ansamblning ijro sifati yaxshilanadi.

Ansambl rahbari yaxshi nutq madaniyatiga ham ega bo'lishi kerak. Chunki asarning musiqiy-badiiy g'oyasi, tuzilish xususiyatlari, mazmun-mohiyati va notalar vositasida ifodalanadigan obrazlar karakterini tushuntirish ishlari aynan nutq orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan qaraganda, nutq ansambl a'zolari bilan o'zaro til topishish, bir-birini tushunib faoliyat yuritish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin umumiy ijroni pedagogik nuqta nazardan to'g'ri boshqarib borish uchun yetuk texnikaga ega bo'lishni unutmash kerak. Shuning

uchun ham ansambl rahbari ijro uchun tanlangan har bir musiqa asarini musiqiy-badiiy jihatdan puxta o'rganib borishi va buning uchun juda ko'p mashq qilishi talab etiladi. Asarlarning asta-sekin murakkablashib borishi, shuningdek, ansambl ishtirokchilarining ijro etish malakasining o'sishi o'qituvchining ko'rsatmalarini yanada aniq tushunib olishlariga katta yordam beradi.

Ansambl mashg'ulotlarini o'tkazish uchun tavsiya va ko'rsatmalar

Ansambl boshqaruvchisi (o'qituvchi) jamoaning umumiy ijrosining muvoffiqligi va uyg'unlashuvini hamda ijro sifatining yaxshilab borishi maqsadida barcha qiyinchiliklarni o'z zimmasiga olshi kerak. Aynan shu yo'l orqali ansambl ishtirokchilari e'tiborini o'ziga jalb qila oladi.

O'qituvchi, avvalo, har bir talabanning ansamblida ijro etish qoidalariga qat'iy rioya qilishga odatlantirishi kerak. O'qituvchining asar ijrosiga oid talablari, uslubiy tavsiyalari, ko'rsatmalari tushunarli, aniq va ortiqcha harakatlarsiz bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki har qanday ortiqcha harakat, noo'rinli talablar, ko'rsatmalar ijrochilarni chalg'itib qo'yadi. Natijada turli to'xtashlar, ijroning buzilish holatlari yuzaga keladi.

Ansambl darslari davomida musiqa asari ijrosi va texnik kamchiliklarni to'laqonli tuzatib borishga imkoniyat bo'ladi, lekin shunga qaramay, ta'lim metodlaridan o'rinli foydalanish, og'zaki tushuntirish ishlarini olib borish birmuncha foydali bo'ladi. Chunki jamoaviy ijroning sifat darajasi har bir ishtirokchining ruhiy holati, ichki hissiyotiga bog'liq. Agar ijrochilardan ba'zisining kayfiyati nimadandir buzilgan yoki xayolida boshqa biror ish hukum surayotgan bo'lsa uning ijrosida, albatta, kamchilik hosil bo'ladi. Natijada ansamblning ijro darajasi barqarorsiz bo'lib, kutilgan natijani bermaydi. Bunday holatlarni oldini olish uchun o'qituvchi ijrochilar diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib, kayfiyatni ko'taradigan so'zlar, ba'zi hollarda hazil-mutoyibalardan foydalanishi mumkin. Lekin bunday ishlar qisqa va o'z o'rnida ishlatilishini unutmaslik kerak.

O'qituvchining ansamblida ijro etayotgan talabalarga ta'lim berishda va tarbiyaviy ta'sirchanligini ta'minlashda uning shu sohadagi bilim darajasining puxta va yetukligiga bog'liq. U har bir cholg'u asbobining ijro imkoniyatini chuqur bilishi va butun ansambl tarkibidagi asboblarning ijro xususiyati, shtrixlarni qo'llash usullarini bilish va ulardagi o'zaro uyg'unlashuvlikni puxta egallab olshi kerak. Shunday holatlar bo'ladiki, sekstet, septet, oktet ansamblar partiyasi notalarini chalayotgan ikki ijrochining shtrix qo'llashi bir-biridan farq qilib qoladi. Masalan, o'noltialik notani ijrosida bir ijrochi simga mizrobni pastga urib, ikkichisi esa yuqoriga chertib chalishi natijasida sadodagi uyg'unlik buziladi. Shunday holatlar boshqa asboblarda ham sodir etilishi mumkin. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun ham o'qituvchining har bir cholg'u asbobning ijro xususiyatlari to'g'risida yaxshi bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ansambl tarkibidagi cholg'ularni tiniq sozlash juda muhim. Yaxshi sozlanmagan cholg'u umumiy ijro sadosiga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa boshqa

ijrochilar diqqat-e'tiborini buzadi va tovushlarni idrok etib chalish jarayonini qiyinlashtiradi.

Ansambl mashg'uloti jarayonida musiqa asari ustida ishlash uchun bir qator uslubiy talablarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Jumladan:

1. Ansambl ijrosi uchun badiiy jihatdan o'ziga xos qimmatga ega bo'lgan asarlarni to'g'ri tanlash;

2. Yangi asarni o'rganishga kirishdan oldin uning mazmun-mohiyati, muallifi, yaratilishi tarixi haqida tushunchalar berish;

3. Asar ijrosiga tegishli badiiy va texnik vazifalarni aniq belgilash va ularni bajarishga katta e'tibor bilan yondashish;

4. Ijrochilik sifatini yaxshilab borish maqsadida ansambl bilan ishlashning yangi shakl va usullarini izlash;

5. O'quv materialini izchil taqsimlab ansambl mashg'ulotlarini o'tkazish;

6. Mashg'ulotning dastlabki qismida serharakat bo'lishini talab qiladigan murakkabroq asar ustida ishlash;

7. Aralash ansambl uchun moslashtirilgan musiqa asari partiturasini o'rganish jarayonida ba'zi partiyalarda ijrochi uchun noqulay murakkab va ustalik bilan ijro etilishini talab qiladigan qismlar ijrosini to'g'ri ta'minlash choralari ko'rish;

8. Musiqa asarini ijro etishda barmoqlarni cholg'u pardalariga joylashish tartib-usullarini ko'rsatish;

9. Talabalar bilan muloqot yuritish madaniyatini to'g'ri amalga oshirish;

10. Mashg'ulot davomida tasoddiy xatolikka yo'l qo'ygan ba'zi bir ijrochi uchun ansambl ijrosini to'xtatmasdan, imo-ishora bilan ijrochi diqqatini jalb qilish;

11. Asar ijrosi va ansambl faoliyatini yaxshilash bo'yicha qilingan barcha ijodiy tashabbus, ishlar uchun jamoani iliq so'zla bilan rag'batlantirib turish.

Qo'yilgan barcha talablar va vazifalarni bajarilishiga tinimsiz qilinadigan mehnat evaziga erishish mumkin. O'qituvchi talab etgan vazifalarni ijrochi-talabalar ichki tuyg'u, hissiyot bilan qarshi olishlari kera. Bularsiz asar ustida ishlashda ijodiy birlik bo'lmaydi. Qo'yilgan vazifalarni bajarilishini talab qilish esa – o'qituvchining bebaho sifatlaridan biridir. Mashg'ulotlarini har tomonlama qiziqarli va mazmunli tashkil etilishi ijrochilik sifatini hamda ichki intizomni yaxshilaydi. Mashg'ulotlar davomida talabalarni ansamblga qiziqtiruvchi mavzular, muammolar xususida suhbatlar, savol-javoblar o'tkazib turilishi ham kerak. Bu, talabalarni mashg'ulotlarga jiddiy yondashishiga, butun ijodiy kuch bilan musiqiy-badiiy vazifalarni bajarishga undaydi. Ijodiy ko'tarinkilikni

mashg'ulot oxirigacha saqlanib qolishiga da'vat etadi. Bu o'z navbatida, ansamblning umumiy ijodiy faoliyatini yanada yaxshilab borishga, o'qituvchining ansamblda yanada ko'proq ijodiy ishlarni amalga oshiriga o'ziga xos zamin yaratadi.

Ansambl ijrochilarida mahoratni

o'stirish masalalari

Ansambl ijrochilarining mahoratini o'stirish va shu orqali ularda ijro ko'nikmasini hosil qilish masalalari ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ansamblida jamoa bo'lib asarlar ijro etish mazmunida: ritmni his etish tarbiyasi, ansamblni his qilish tarbiyasi; nyuansirovka (cholg'u guruhlar va butun ansambl tovushlari rang-barangligi); badiiy didni o'stirish (jumlar ustida ishlash); ijodiy intizom tarbiyasi (diqqat, harakatchanlik) va boshqa masalalar yotadi.

Ritmni his etish ansambl ijrochilari uchun muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Musiqa asaridagi tovushlarni uzun-qisqaliklari jihatdan bo'lgan munosabatlarini his etish, vazn va maromni tushinib cholg'u asbobida chalish ansambl ijrosida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir musiqa asrining o'ziga xos ritmi bor. Musiqa tovushi bilan ritm chambarchas bog'lanmasa ijroning sifati pasayadi va musiqiy-badiiy obraz to'laqonli ro'yobga chiqmaydi. O'qituvchi har bir musiqa asaridagi ritmik tuzulmani talaba-ijrochilar tasavvurida shakllantirib borishi kerak. Cholg'u guruhlar va butun ansambldagi cholg'ularning birgalikda ijro etish jarayonida ijroning badiiy uyg'unligi, ya'ni ansambl (birgalikdagi) ijrosini ta'minlash ham muhimdir. O'qituvchi birinchi navbatda, cholg'ular guruhlarida ijro ansamblini to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. So'ng esa guruhlar hamjihatligidagi ansamblni hosil qilishi kerak. Bularning barchasi butun ansambl ijrosining sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Ansambl faoliyatida nyuansirovka, ya'ni cholg'u guruhlar va butun ansambl tovushlarining sadolanish rang-barangligi alohida o'rin tutadi. Ansambl cholg'ulari nyuansirovkasi o'qituvchining talablariga, uning ishoralarining ifodaliligiga va ularni qanday qabul qilinishiga bog'liq. O'qituvchining vazifasi, avvalo, asardagi dinamik belgilarni puxta o'rganib, tahlil qilishidadir. Asar muallifi fikri, xalq kuylari g'oyasining ijrosidan kelib chiqib dinamik belgilar vazifasini to'g'ri bajarish kerak.

Ko'pchilik mualliflar ansambl uchun musiqa asari yozganda yoki aralash chog'lular ansambl ijrosi uchun moslashtirish (instrumentovka) jarayonida dinamik tuslarni qaysi jumalarda qo'yishga alohida e'tibor qaratadi. Ayrim asar mualliflari ansamblda ijro etuvchilardan cho'g'uda tovushlarni o'ta kuchli (**ff**) chalmaslik talabini qo'yadi. Ular asarni kuchsiz (**p**) tovushda yoki o'rta kuchli (**mf**) tovushda ansambl bo'lib ijro etishini ma'qul ko'radi. Bu shundan dalolatki

o'ta kuchsiz yoki kuchsiz yoki o'rta kuchli ko'rinishidagi ansambl ijrosi sifatli, yoqimli, ta'sirchan, bo'ladi.

An'anaviy ansamblda urma cholg'ularning o'rta kuchli tovushda ijro etilishi uning qimmatli sifatlaridan biri hisoblanadi. O'rta kuchli tovushni hosil qilish har bir ijrochidan o'ziga xos mohirlikni talab etadi. Bu nuans ijrochidan faqat tovush kuchiga ega bo'lishigina emas, balki ijrochi qo'l barmoqlari bilan torni pardaga qattiq bosib, damli cholg'u ijrochilari esa yumshoq nafasda tovush hosil qilib, bir vaqtni o'zida tovush kuchini pasaytira olishni ham talab qiladi. Bunday holatda ansambl sadosi barqaror chiqadi.

Ansambl darslari jarayonida, umuman faoliyati davomida ijrochilar uchun ijodiy sharoitning yaratilishi, ularni faoliyatga to'liq jalb qila olish, qo'yilgan musiqiy-badiiy vazifalarni katta qiziqish bilan, xolisona bajarishga erishtirish o'qituvchining to'g'ri ishlash usullariga bog'liq. Jumladan, talabalarni mashg'ulotlarda faollik ko'rsatib asarlarni qiziqish bilan chalishga intiltirish kerak. Shuningdek, bir-birlarining ijrosiga to'g'ri munosabatda bo'lib, do'stona vaziyatda faoliyat yuritishga odatlantirish kerak. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki, ansamblda ijro etish talabalarda ma'naviy madaniyatni o'shirib boradi, axloqiy va aqliy tarbiyani o'stiradi, badiiy didni to'g'ri shakllantirib, musiqa san'atini tushunishga, jamoaviy yaratuvchanlik mehnatiga o'rgatadi.

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, har bir cholg'u sozi o'ziga xos ijro imkoniyatlariga ega. Ularning ansambl ijrosidagi o'rnini, ahamiyati haqida talabalarning tasavvurga ega bo'lishlari asar ijrosida katta samara beradi. Shu o'rinda qayd qilish joizki, ansamblda ijro etuvchi talabalarni to'g'ri joylashishini, musiqa asbobini to'g'ri ushlash qoidasi rioya qilishni, shtrixlarni o'z orni bilan ishlatib cholg'uda chiroyli tovush hosil qilishini kuzatish, shuningdek, talabaning xatolarini o'z vaqtida tuzatib borish o'qituvchining muhim pedagogik vazifalaridan biridir.

Talabalarga o'rgatiladigan har bir asarini mukammal bilish ham o'qituvchining muhim pedagogik vazifalariga kiradi. O'qituvchi asarning yaratilish tarixi, qanday o'lchov, sur'at va usulda ijro etilishi, dinamik belgilari xususiyati va ularni o'z orni bilan bajarish qoidasiga rioya qilish haqida tushuncha berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir muhim jihatga, ya'ni asar muallifi maqsadi, agar xalq kuyi bo'lsa uning g'oyaviy mazmuni haqida ham tushuncha berish ahamiyatlidir. Bularning barchasi talabalarda chalinayotgan asarga nisbatan ijobiy, foydali tasavvurni hosil qiladi. O'qituvchi shuningdek, ijrochilik mahoratiga aloqador vazifalarni aniq belgilab olib ularni qanday bajarish usullarini talabalarga o'rgatishi kerak. Vazifalarning bajarilishini talab qilish esa muhim ahamiyat kasb etib, ansamblning ijodiy birligi va muvaffaqiyatli ijrosini ta'minlaydi.

Ansamblning jamoaviy ijro shaklda faoliyat yuritishini unutmazlik kerak. Gap shundaki, jamoaviy ijro ansambl qatnashchilarining har biri bilan to'g'ri muomala qilishni, ular shaxsiga hurmat bilan yonashishni talab etadi. Bu borada o'qituvchi talabalar bilan ish yuritishi uchun o'z uslubini topishi kerak. Masalan,

mashg'ulot vaqtida talabalardan birortasi asar ijrosida adashib ketib noto'g'ri chalishi, hatijada ansamblda to'xtashlar bo'lishi mumkin. Bunday holatda xatolikka yo'l qo'ygan talabani koyish, qattiq tanbeh berish pedagogik taktikaning xatosi hisoblanadi. Sababi, har qanday koyish, tanbeh kishi psixikasiga salbiy ta'sir qiladi. Xatoga yo'l qo'ygan talaba garchi o'z kamchiligi bo'yicha tanbeh olayotgan bo'lsadi, baribir qaysidir ma'noda ruhiy tushkunlikni o'zida sezadi. Bunday holatda "o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak"?, degan haqli savol tug'iladi. Biz ham ish faoliyatimizda talabalar tomonidan sodir etilgan shu xildagi xatolarga guvoh bo'lganmiz. Shunda xatoga yo'l qo'gan talabaga qarab: "ana xolos, sizdan bunday xatolikni kutmagan edim. E'tiborsizlik bo'ldi shekilli yoki xaylingiz boshqa voqealar tomon parvoz qildimi?", "Yo'l qo'ydim xatoga, qoldim baloga", "Yashasin rubobchi do'stim", "Bir bora xato chalish, kechirimlidir" kabi hazil-mutoyibali so'zlarni aytib "diqqat-e'tiborni ijroga qarating, boshqa xatolikka yo'l qo'ymaslikka harakat qiling", deganmiz. Natija yomon bo'lmagan. Talaba boshqa xato qilmaslikka intilgan. Ba'zi bir talaba hazil-mutoyiba tariqasida aytilgan tanbehli so'zlarni teskari tushunib xafa bo'lgan holatlarini ham tajribamizda kuzatganmiz. Bunday holat asosan bizga hali notanish bo'lgan talabalar bilan, ansambl fanining o'qitilishining dastlabiki darslarida sodir bo'lgan. Bunday holatni shunday izohlash mumkinki, birinchidan, talabalarning xarakterini hali o'rganib chiqilmaganligi, munosabatlar o'rnatilmaganligi, o'qituvch va talaba o'rtasida muomala madaniyatining shakllanmaganligi, bir-birini tushunmaslik bo'lsa, ikkinchi tomondan, har qanday hazil-mutoyiba, tanqid, tanbehni eshitishga toqati bo'lmagan, tezda arazlab qoladigan talabalarda kuzatiladi.

Shunday qilib, ansambl ijrosini to'xtatib turib talabaga tanbeh berish noo'rin, balki ijro vaqtida ishora yoki so'z bilan uning diqqatini jalb qilishi va qilgan xatosini yaxshi muomala bilan tushuntirishi lozim. Ansamb jamoasining asarni ifodali, yoqimli, jozibali, chiroyli ijrosi har bir cholg'uchining kayfiyatiga ham bog'liq bo'ladi. Aytmoqchimizki, ansamblda kuy ijro etayotga talabadan birortasining kayfiyati yomon bo'lsa, qolgan talabalar kayfiyatiga, qunt bilan ijro etishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvch shularni e'tiborga olishi va ansambl ijrosini yaxshi kayfiyatda boshlashi uchun iliq so'zlar topib talabalarni ruhlantirishi, mashg'ulotning boshida jamoa kayfiyatini ko'tarishga molik sho'x asarni chaldirish maqsadga muvofiq bo'ladi

Ma'lumki, ansamblda ijro etayotgan har bir talabaning o'ziga xos, bir-biridan farq qiladigan bilim, saviya, tushunchasi bo'ladi. Ularning musiqiy his-tuyg'ulari ham bir xilda bo'lmaydi, albatta. Oqituvch talabalarning barcha sifat darajalarini inobatga olgan holda ansambl faoliyatini boshqarib borishi kerak. Asar ustida ishlash jarayonida esa talabalarning his-tuyg'ulari, kechinmalari, ijro texnikasidan foydalanib musiqa asrini o'rgatishi mumkin. O'qituvchining muhim pedagogik vazifalaridan biri, mashg'ulotga ajratilgan vaqtdan unumli fodalana bilishidir. O'qituvchi mashg'ulot vaqtida tejamlilik printsipi talablariga rioya qilishi va uni samarali o'tkazish uchun vazifalarini bajarish texnologiyalarini oldindan ishlab chiqishi hamda puxta tayyorgarlik ko'rish kerak. Har bir mashg'ulotda bajariladigan ishlar rejasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq. Asar

ustida ishlash usullarini esa oldindan belgilab olishi ijobiy samaraga erishishga katta yordam beradi.

O'qituvchi mashg'ulot ish rejasini tuzganda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsalarini to'g'ri belgilashi kerak. Shuningdek, mashg'ulot jarayonining umumiy davomiyligida talabalar bilan birgalikda bajaradigan ishlar ko'lamini aniq belgilab olishi zarur. Talabalar ijro etadigan musiqiy asarni puxta tahlil qilish, cholg'uda chalib o'rganishi, ijroga tegishli bo'lgan hamma ma'lumotlar bilan tanishib chiqish o'qituvchining muhim vazifalaridan biridir. Talabalarga beriladigan uy vazifalari, asarni ijro etish bo'yicha topshiriqlarni oldindan rejalashtirishni unutmaslik kerak. Ansambldan dars beruvchi o'qituvchining musiqaiy-badiiy ish faoliyati izlanuvchanlikni, nazariy va amaliy ishlarni yaxshi o'zlashtirib borishni talab etadi. O'qituvchining izlanuvchanligi, ansambl ishlariga oid belgilangan vazifalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib borishi, o'z navbatida, uning individual ish uslubi, mahoratini rivojlanishini ta'minlaydi.

Qayd qilib o'tilganidek o'qituvchining yaxshi nutq madaniyatiga ega bo'lishi jamoa faoliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tushuntirish, asarni ijro etish, kuylash, ayniqsa aralash ansambl ijrosi jarayonida dirijorlik qilish va hokazolarda og'zaki metoddan fodalanadi, albatta. Dirijorlik elementlaridan o'rinli foydalanish ham foydali bo'ladi va asarni o'rgatishda yaxshi samara beradi. Chunki mashg'ulot paytida asarni musiqa asbobida chalish jarayonida turli to'xtashlarni oldini olish, ijroni ifodaliligini ta'minlab borish uchun dirijyorlik qilish orqali ta'sir qilishi mumkin.

UCHINCHI QISM

Ansamblda asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash

Musiqiy ta'limda asarlarni o'rgatish jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim pedagogik shartlaridan biri, loyihalashdir. O'qituvchining ansambl faolida musiqa asarlarini talabalarga o'rgatishi va talabalar tomonidan ularni o'zlashtirib olinishiga oid musiqiy faoliyatlari mazmunini hamda vositalarining loyihalaniishi belgilangan pedagogik vazifani hal etishga erishtiradi.

Zamonaviy pedagogik sharoitida ansamblning ta'lim jarayonini loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv zarurligini taqazo etadi. Bu, o'z navbatida, ansambldan dars beruvchi o'qituvchining kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalashning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ansambl faoliyatida musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalash – o'qituvchining kasbiy faoliyatining ko'rinishi bo'lib, ta'lim jarayonining texnologik tuzilmasi, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi

bilan tavsiflanadi. Loyihalash mahsuli esa ansambl faoliyatida musiqa asarlarini o'rgatish jarayonining loyihasi sanaladi.

Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko'rinishi hisoblanada. Uni amalga oshirishda ansamblda ta'lim berish jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Shunga ko'ra, ansamblda musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalashda quyidagilar:

- ijro uchun tanlangan musiqa asarlarining jamiyat va musiqa taraqqiyoti uchun xizmat qilishi;

- talabalarining ansambl darslari jarayonida o'rgangan musiqa asarlarining ta'lim natijalariga bog'liqligi;

- ansambl jamoasi ijro etish uchun tanlangan musiqa asarlarining talabalar individual xususiyatlari, bilim, malaka, ko'nikmalari bilan o'zaro muvofiq kelishi;

- musiqa asarlarini talabalarga o'rgatish maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining umumiy musiqiy ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilishlarini inobatga olish zarur.

Shuningdek, ansamblda musiqa asarlarini talabalarga o'rgatish jarayonini loyihalashda ta'lim jarayonini loyihalashning quyidagi qonuniyatlariga rioya qilish kerak:

- musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar(texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiypsixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanishi;

- musiqa asarlarini o'rgatish vositalari talabalarining individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanishi;

- loyihalash strategiyalari ansambl fani o'qituvchisining bilimi, mahorati va boshqa individual uslubiga muvofiq tanlanishi;

- asarlarni talabalarga o'rgatishning loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog'liqligini unutmazlik kerak.

Ansambl ta'limida asarlarni o'rgatish tizimini loyihalashda esa:

- 1) asarlarni o'rgatishga oid musiqiy faoliyat mazmunini tahlil qilish;

- 2) asarlar vositasida amalga oshiriladigan musiqiy ta'lim natijalarni oldindan ko'ra bilish;

- 3) asarlarni o'rgatish bo'yicha rejalashtirilgan musiqiy faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalarni bajarishga alohida e'tibor bilan yondashish kerak.

Ansambl ta'limini loyihalash jarayoni o'z xususiyati bilan boshqa yo'nalishlardan farq qilishi bois asarlarni o'rgatish tizimini loyihalashda o'qituvchi

tomonidan birin-ketin amalga oshiriluvchi va aniq belgilangan tashxisni qo'yish kerak. Unda yakunlanuvchi tahliliy faoliyat, oldindan ko'ra bilish va loyihalash kabi ijodiy faoliyatlarda namoyon bo'ladigan maqsad o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq. Zero, tashxis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Shunga ko'ra, ansambl ta'limida asarlarni talabalarga o'rgatish jarayoni maqsadini amalga oshirish uchun taqvim reja, bajariladigan ishlar ko'lami belgilab olinishi zarur. Beriladigan musiqiy ta'limning samarali hal etish uchun esa ansambldagi har bir vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishiga alohida e'tibor qaratish ahamiyatlidir. Chunki ansambl ta'limida asarlarni o'rgatish jarayonida pedagogik vaziyat yetarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda asarni musiqiy mazmun-mohiyatini puxta tushunib olish bo'yicha qo'yilgan pedagogik vazifalarni hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Tajribalardan ma'lumki, Oliy ta'lim tizimida endigina o'z faoliyatni boshlagan ansambl fani o'qituvchisi tajribasizligi tufayli pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga qiynaladi, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. Shu sababli u o'zicha yo'l tutib pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladi, ammo jiddiy xatoga yo'l qo'yadi.

Ansamblida talabalarga musiqa asarini o'rgatish bosqichida o'qituvchining duch keladigan birinchi muammosi - bu musiqiy-pedagogik faoliyat mazmunini loyihalash sanaladi. O'quv dasturi yoki ta'lim oluvchi talabalar shaxsi musiqiy ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsad va sharoitlarga muvofiq holda talabalarga ansambl ijrochiligi haqida nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- talabalar ansambl ijro etadigan musiqa asarlari bo'yicha tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi;
- talabalarning dastlabki musiqiy tayyorgarlik darajasi, asarlarni ijro etish uchun bilim saviyasi, ularning ansambl asarlarini o'rganishga tegishli o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari;
- o'qituvchining shaxsiy, shuningdek, ansamblning moddiy texnik bazasi.

Bu o'rinda ansambl faoliyatida musiqa asarlarini o'rganishga tegishli o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Unda:

- 1) talabalar ijrosi uchun taqdim etiladigan musiqa asarlari;
- 2) talabalarga musiqa asarlarini cholg'u asbobida mustaqil ijro etish, mazmun-mohiyatini anglash uchun beriladigan vazifalar;

3) talabalar tomonidan asarlarni ijro etish, musiqiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olgan ma'lumot (bilim, malaka, mahorat) turlari o'z aksini topadi.

Demak, ansambl fanidan dars beruvchi o'qituvchi asarlarni o'rgatish bo'yicha loyihalash texnologiyasini qo'llashda talabalarning ehtiyojlari, musiqa asbobida chalish imkoniyatlari, mahoratlari, ansambl ta'limi jarayonining ma'lum bosqichida darsga tayyorlash imkoniyati, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish, qobiliyatlarini o'stirishni asosiy masalalar sifatida tan olsagina muvaffaqiyat qozonadi. Shuni unutmaslik kerakki, ansambl fani o'qituvchisi faoliyatida kelajak uchun mo'ljallangan musiqa asarlari va ularni talabalarga o'rgatish yo'llarini tezkor loyihalash turli darslarda turlicha moslashtiriladi. O'qituvchi musiqa asarlarini talabalarga o'rgatish jarayonini loyihalashga kirishda ansamblning xoh u darsi, xoh konsertlarga chiqishi bo'lsin vazifaning yaxlit pedagogik jarayon tizimidagi o'rni bilishi lozim.

Bugigi kunda musiqiy ta'lim jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o'quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat'iy nazar tashkil etiladigan ta'lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra, ansambl faoliyatida talabalarga musiqa asarlarini ijro etishga o'rgatish jarayonining loyihasi quyidagi bosqichlarda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1-bosqich. Bu bosqich - ansambl faoliyatida talabalarga musiqa asarlarini o'rgatish jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi bo'lib bunda ansambl fani mundarijasidan joy olgan musiqa asarlari yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish nazarda tutiladi. Shuningdek, musiqa asarlarining mazmun-mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan badiiy-musiqiy g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat bo'ldi.

Ansaml ijrosiga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish o'qituvchi uchun talabalar e'tiboriga taqdim etilayotgan musiqa asari mazmuni xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ijro etishning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini berishi mumkin.

2-bosqich. Ansamblda ijro etiladigan musiqa asarlarining mazmun-mohiyati yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida asar jumalari bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, asarlarni ifodali, jozibali ijro etishga oid ta'lim maqsadiga erishish yo'lida ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan musiqiy-badiiy vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi.

3-bosqich. Bu bosqichda ansamblning ta'lim jarayoniga oid mazmunini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida, ansamblida ijro etiladigan musiqa asarlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Bu bosqichda, shuningdek, asarlar mazmun-mohiyatini talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan musiqiy-badiiy tushuncha, ko'nikma hamda ijroviy malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Bosqichning samarasi: talabalar tomonidan ansambl asarlari bo'yicha ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va ijroviy malakalarning sakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

4-bosqich. Bu bosqich loyihalashning eng muhim bosqichi sanalib, ansambl ijro etadigan musiqiy asarlarni talabalarga o'rgatish shakli, metod va vositalarini tanlash ishlari amalga oshiriladi. Aynan shakl, metod va vositalar yordamida asarlarni o'rgatish borasidagi nazariy bilimlar hamda amaliy ijro talabalarga beriladi va o'z navbatida talabalar ushbu bilimlarni qabul qilib oladilar. Ansambl ijrosi uchun rejalashtirilgan musiqa asarlarining mazmun-mohiyati, ijro etish qoidalari aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. Talabalarning asarlarni ijro etishga ijodiy yondashishi, o'zlarini erkin tutib cholg'u asboblarida chalishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Buning e'tiborga loyiq tomolaridan biri shundaki, talabalar shaxsiy ijro mahoratlarini namoyish qilish orqali tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchi esa ular ijrosini eshitib, ma'lum yo'nalishga solib turadi, umumiy ijroni nazorat qiladi, ijroviy xato-kamchiliklarni tuzatish bo'yicha maslahatlar berib boradi.

5-bosqich. Bu bosqichda o'rganilayotgan musiqa asari yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va ijro malakalarining talabalar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirish mumkinligi aniqlanadi.

6-bosqich. Ansambl asarlarini to'g'ri, ifodali ijro etish bo'yicha qo'shimcha mashq (topshiriq)lar tizimi ishlab chiqiladi va ularning samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi.

Asarlarni to'g'ri, ifodali ijro etish bo'yicha qo'shimcha mashq (topshiriq)lar tizimini quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Darslar jarayonida talabalar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan topshiriq va mashqlar:

a) asardagi ifoda vositalarini to'g'ri anglash va tushunib olish;

b) cholg'u asbobida tovushlarni balandlik jihatdan aniq, sof ijro etish, badiiy obrazni to'g'ri ifoda etish;

v) cholg'u ijrochiligi texnikasiga oid mashqlardan umumli foydalanish;

g) cholg'u asbobida milliy ohang, nola, qochirim-bezaklar ustida ishlash.

2. Darsdan tashqari sharoitlarda bajarilishi ko'zda tutilgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalari:

a) asarni qaysi shakl, uslubga xosligi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar to'plash;

b) asarni ritm-usulini his etib ijro etishni mashq qilish;

v) asarni musiqiy-badiiy ijrosi va yaxlit holda ijro etishni mashq qilish;

g) asarni qanday holat, vaziyatda ijro etilishi haqidagi ma'lumotlarni mustahkamlash.

Talabalar e'tiboriga havola etilayotgan mashqlar, topshiriqlar, uy vazifalari bir-birini to'ldirishi, o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikda bo'lishi kerak.

7-bosqich. Bu bosqichida talabalarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish amalga oshiriladi. Jumladan, talabalar tomonidan ansambl ijro etadigan asarlarni o'rganish yuzasidan bilimlarni o'zlashtirilganligi, shuningdek, asarlarni ijro etish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalari aniqlanadi.

8-bosqich. So'nggi bosqich sifatida asarlarni o'rgatish bo'yicha yaratilgan loyihaning ansambl ta'limi jarayoniga tatbiq etilishi va uning yakuniy darajasi (samaradorligi)ni o'rganish bilan nihoyalanadi.

Bu bosqichda musiqa asarlarini o'rgatish jarayonining umumiy ahvoli, nazariy va amaliy jihatdan erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni navbatdagi dars(mashg'ulot)lar davomida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi.

MUSIQA ASARLARI USTIDA ISHLASH

«Har qanday musiqa asari bu badiiy asar. Uni badiiy asar darajasida ijro etish sozandadan puxta bilim va yuksak mahorat talab qiladi. O'qituvchi bo'lg'usi sozandani tarbiyalar ekan, unda shu cholg'uga nisbatan mehr uyg'ota olishi kerak. Buning uchun o'qitishning dastlabki davrlaridanoq imkoni boricha shu cholg'uda

yaxshi jaranglaydigan, o'quvchiga yoqadigan asarlarni o'quv rejasi tarkibiga doimiy kiritib borishi lozim»⁸

Haqiqatdan, cholg'u ijrochiligi, jumladan, ansambl ijrosi uchun shu asambl ijrosida yaxshi jaranglaydigan, talabalarga yoqadigan asarlarni ishchi o'quv rejasi tarkibiga doimiy kiritib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarning mazmun-mohiyatiga ko'ra ifodali, yoqimli, jozibali ifodalanadiganini tanlanishi ansambl faoliyatini sermazmun, qiziqarli va samarali bo'lishiga katta foyda keltiradi.

Xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti ko'pchilik ijrochilar, olimlar, tajribali sozandalar tomonidan ma'lum darajada shakllantirilgan. Bu borada ayniqsa, yetakchi mutaxassislar bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, S.Taxalovning «Afg'on rubobida chalishga o'rgatish metodikasi», O.Nazarovning «Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti», Sh.N.Rahimovning «Dutor»(Darslik), N.Sharipovning «Rubob primada ijro etishni o'rgatish metodikasi», Sh.Rahimovning «Cholg'u ijrochiligiga o'rgatish metodikasi», A.Matyakubovning «An'anaviy ijrochilikda o'qitish uslubiyoti», O.Kamolxo'jaevning «Doira darsligi», G'.Ergashevning «Afg'on rubobi darsligi» kabi ko'plab qo'llanmalarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, cholg'ushunoslik, cholg'u va ansambl ijrochiligi bo'yicha: M.A.Ilhomovning «Cholg'u ijrochiligi», Sh.Rahimovning «Cholg'u ijrochilig»(dutor misolida), H.Nurmatovning «Qashqar rubobi», Sh.Rahimov va A.Saidovlarning «Cholg'u ansambli», A.Q.Lutfullaevning «Changchilar ansambli», H.Nurmatov, O.Nazarov va Sh.Janaydarovlarning «Cholg'uchilar ansambli», A.Turapovning «Ansambl sinfi» kabi uslubiy qo'llanmalari chop etilgan bo'lib ulardan amaliyotda fodalanib kelinmoqda. Shularga o'xshash yana boshqa bir qancha ishlarda ham cholg'u ijrochiligi masalalariga tuxtalib o'tilgan.

Zamonaviy musiqiy ta'limda, ayniqsa, xalq cholg'ularining ansambl shaklida o'qitish borasida musiqiy ijrochilik ko'lami tobora kengayib, ijro etilayotgan asarlarning janr va ijro yo'nalishlarini o'zlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Agar o'zbek xalq cholg'ulari ansambli ijrochiligi repertuariga nazar tashlasak, unda turli davrga mansub bo'lgan mualliflar asarlari, xalq kuylari namunalari, jo'rnavezlikda kuylanayotgan qo'shiqlarni ko'ramiz. Bularning barchasi o'zining mazmun-mohiyati, ijro xususiyatlariga ko'ra tarbiyalanayotgan yosh sozandalarning chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega

⁸ Nazarov O. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. - T.: «Og'set Print» MChJ, 2008. -77-b.

bo'lishlarini, ijro etish ko'nikmalarini kun sayin takomillashtirib borishlarini taqozo etadi.

Ansambllar turi jihatidan xilma-xil bo'lib, ularning har biridan dars beradigan o'qituvchi o'quv dasturida belgilangan talablar asosida ish yuritishi talab etiladi. Jumladan, ansambl ijrosi uchun musiqa tanlash va o'rgatishi uchun bir necha jihatlarga e'tibor berishi lozim bo'ladi. Ayniqsa:

- talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish;
- ijrochilarda mavjud bo'lgan kamchiliklarni o'rganib chiqish va asar tanlaganda ularni inobatga olish;
- musiqiy asarlar janridan kelib chiqqan holda ularni to'g'ri tanlash;
- musiqa asarini ijro etish uslubiyotini puxta o'zlashtirib olish;
- ijrochilik yo'nalishlari yoki maktablariga alohida yondashish.

Tajribalardan ma'lumki, musiqiy asar odatda muayyan bir cholg'u uchun yaratilsada, lekin amaliyotda bunday asarlar ansambllar faoliyatida ham ijro etilib kelinadi. Keyingi paytlarda musiqiy asarni aralash cholg'u ansambllari uchun moslashtirish anchagina ommalashdi. Bunday asarlarini o'rganish, mazmun-mohiyatini to'g'ri o'zlashtirish, ayniqsa, uni me'yoriga yetkazib ifodali, jozibali, ta'sirchan, chiroyli ijro etish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bu masalada avvalo, ansambl dan dars beruvchi o'qituvchi asarni har tomonlama tahlil qilib, uning mazmun-mohiyati, xarakteri, musiqiy-badiiy tuzulmasini teran tushunib olishi muhim. Mutaxassislarning qayd qilishlaricha, ansambl ijrosi uchun tanlangan musiqa asarini o'rganish va o'zlashtirish, uni to'liq idrok qilib olishdan boshlanadi. Buning uchun asarni obdon tahlil qilib chiqish, musiqa asbobida chalib ko'rish, imkoniyati bo'lsa boshqa bir ansambl (mumkin qadar professional ansambl) ijro etgan namunasining magnit tasma yozuvini tinglab chiqish va zarur vazifalarni belgilab olish kerak. Asarni tinglaganda yoki o'qituvchining o'zi musiqa asbobida chalib ko'rish jarayonida asar mazmunidan quyidagilarning tushinib, anglab olishni unutmaslik lozim:

* musiqa asarining ifodalanishi, ya'ni his-tuyg'uga ta'siri, musiqiy tovushlar vositasida voqelikning shakllanganligi, kayfiyatni ko'tara olishligi va asarning umumiy holati;

* musiqa asarida muallif g'oyasining ifodalanishi, maqsadi, yechilishi(ijro etilishi) mumkin bo'lgan vazifalarning mavjudligi;

* musiqa asaridagi umumiy g'oyaning ifodalanganligi.

Bularga e'tibor berish ansambl ijro etadigan musiqiy asarlarni yetarli darajada idrok qilib olish, ularning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunish, talabalarga o'rgatish usullarini belgilab olish imkonini beradi.

O'qituvchining muhim vazifalaridan biri shundaki, u turli musiqa asarlarini muntazam ravishda o'rganib, ijro etib, o'zlashtirib borishi, ansambl repertuarini yangi asarlar bilan boyitib turishi kerak. Har bir talabaning musiqiy asarni o'zlashtirish imkoniyati, bilim darajasi, mahoratining o'ziga xosligini doimo tahlil qilib borishi, ularga individual ravishda yondashib maslahatlar berib turishi, darsdan tashqari bo'sh paytlarda birgalikda mashq qilib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, musiqiy asarlar ustida ishlash muntazam ravishda amalga oshirib boriladi. Shunga ko'ra asar ustida ishlash jarayonining barchaga tegishli uchun umumiy qoidalari mavjud va ular asosan quyidagi bosqichlardan iborat ko'rinishda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich. Bu bosqich tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- musiqiy asar bilan tanishish, tahlil qilib chiqish;
- asar ijrosiga tegishli umumiy tasavvurni shakllantirish;
- ijroga doir rejani ishlab chiqish.

Asarni to'liq tahlil qilib, ma'lum bir tasavvur shakllantirib olingaligi va shularga asoslanib ijroga tegishli umumiy vazifalarni belgilab olinishi quyidagilar asosida o'z ifodasini topishi kerak:

Musiqa asariga ob'ektiv yondashuv:

- a) asar musqaning qaysi janrga mansub ekanligi (oddiy kuy, marsh, vals, raqs va h.k.);
- b) asarning umumiy tuzilishi, shaklini aniqlash;
- v) asarning musiqiy-badiiy obrazi (qiyofasi), xarakterli ko'rinishi (quvnoq, sho'x, hayajonli, g'amgin, qahramonona, hazil va h.k.);
- g) asarning qaysi davrda munosib yozilganligi, ohang va uning uyg'unlik(garmonik) tili, uslubi;
- d) mazkur asarni chalish orqali shakllanadigan an'analar.

Sub'ektiv yondashuv:

- a) talabalarning asarni ijro etishga nisbatan moyilligi, ijrochilikka xos temperamenti (lirik, romantik, qayg'uli, melanxolik);
- b) talabalarning ijroga doir obrazli fikrlashlari va ijodiy xayolotlari;
- v) talabalarning mazkur asar muallifi (xalq kuyi) haqidagi bilim darajasi, asar muallifi hayoti va ijodi (xalq kuyi)ga bo'lgan qiziqishi;
- g) talabalarning mazkur asar ijro yo'nalishini qanchalik o'zlashtirib borishi bo'yicha imkoniyatlari.

Olimlar, tajribali mutaxassislar, pedagogika fani o'qituvchilari bu bosqichdagi masalalarni o'zlashtirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyaning «toifalash jadvali»dan foydalanishni tavsiya etadilar. Shunga ko'ra toifa atamasiga - xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi alomat sifatida qarash lozim. Chunki musiqa asari bo'yicha ajratilgan alomatlar asosida talaba tomonidan olingan ma'lumotlarning birlashtirishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Masalan, o'zlashtirilayotgan musiqa asari muallifi haqidagi bilim, tushuncha, ko'nikmalarni tizimlashtirish va ularni mustahkamlash maqsadida toifalash jadvalini mustaqil topshiriq sifatida berish mumkin.

Ansambl ijrochiligi jarayonida yangi musiqiy asarni o'zlashtirishning dastlabki tahlil jarayonida talabalarga yozma topshiriqlar berish ham foydali bo'ladi. Bu, talabalarda mustaqil izlanishni shakllantiribgina qolmay, balki o'rganilgan ma'lumotlarni yodda saqlashda yaxshi samara beradi. Bu jarayonning eng asosiy omillardan biri shundaki, yangi asarni o'rganishda o'qituvchi talabalarning fikrini bir maqsadga to'g'ri yo'naltira olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichning asosiy yo'nalishi asarni ijro qilish rejasini amalga oshirishga qaratiladi. Bunda musiqa asarining mazmun-mohiyati, kuy yo'nalishi aniqlanadi. Shuningdek, asarning asosiy ijrochilik va musiqiy-badiiy vositalari bilan bog'liq masalalari ko'rib chiqiladi. Chunki aynan vositalar yordamida asar mazmuni va musiqiy-badiiy obrazi ochib beriladi. E'tiborli tomonlaridan biri shunda bo'lishi kerakki, ansambl ijrosi uchun tanlangan musiqa asarlari ustida ishlashda kuyning rivojlanib borish darajasi, undagi o'ziga xos jumlarlar, davriyalar, avjlar (kulminatsiya), kuy qismlari va shular bilan bog'liq boshqa tayanch jihatlar aniq belgilanadi. Ularning qaysi biri yetakchi, qaysi biri yordamchi bo'lishi bilan musiqa asarining xarakteri va vazifalariga bog'lik ekanligini unutmaslik kerak. Yana bir muhim jihat shundaki, asarning texnik xususiyatiga ko'ra sadolanishi, murakkabligi, ijro etilishi qiyin bo'lgan joylari belgilanib

olinadi. Ularni bo'laklarga bo'lib nota bilan xususiylkdan umumiylikka va umumiylikdan xususiylk prinsipi qoidalariga rioya qilib xatosiz o'rganiladi.

Shu o'rinda kompozitor S.Rahmatovning xalq cholg'u asboblari aralash ansambli uchun moslashtirilgan "Vals" asarini misol tariqasida ko'rib chiqamiz.

Asar yorqin, tezkor xarakterda bo'lib, "Tempo di Valse" sur'atida turli shtrixlarda chalinadi. Asarning ifodali ijro vositalari sifatida sanoq, applikator, shtrix va dinamikani aytib o'tish mumkin. Asarning aynan shu jihatlarini to'g'ri, ifodali bajarishda talabalarda jumlar oxiridagi notalar sanog'ini chalkashtirib yuborish, nuqtali yarimtalik, chorak, nimchorak, o'noltitalik notalar ijrosiga oid shtrixlar xarakterini topa olmaslik, tovushni tug'ri boshqara bilmaslik va barmoqlarni pardaga notug'ri bosib chalish kabi kamchiliklar kuzatiladi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun qisqa yoki bir oz uzoq chuzimli notalarni ovoz chiqarib sanash, kuyni chalib kuylash, o'ng qul uchun esa maxsus tremolo, torga pastga va yuqoriga chertib chalish shtrixida, nay cholg'usida esa har ikkala qo'l barmoqlarini pardalarga aniq bosib nafas to'lqinini to'g'ri yo'naltirish, shuningdek, forte-piano dinamikasida turli shtrixlarda muntazam mashq qilishlarning yaxshi samara berishi tajribada aniqlangan.

Asarning ijrosi davomida kuy yo'nalishining bir cholg'udan boshqasiga o'tib turishi, turli akkordlar, pauzalar, ligalar, forshlaklar, turli dinamik belgilar, tasoddiy alteratsiya belgilarining mavjudligi ijroda tovushlar aniqligiga erishishni qiyinlashtiradi. Bularni ansambl ijrochilari birgalikda, hamkorlikda o'zlashtirishi uchun amaliyotda turli kombinastiyalardan iborat bo'lgan mashqlar tavsiya etiladi. Asarning deyarli barcha qismida o'ng qo'l uchun murakkab bo'lgan metro-ritmik usulli qo'llaniladi. Bunda torli-chertma cholg'ularda asosan pastga-tepaga zarblarning to'g'ri tanlanishi, liga bilan bog'langan notalar tremolosining tepaga uzilishi, trel uslubini to'g'ri bajarilishi, changda pizz, nay va qashqar rubolarida tovushlarni bir biriga bog'lab ijro etishlar asosiy omil hisoblanadi. Chunki aynan shu zarblarning noto'g'ri qo'llanishi ansambl ijrosining mukammalligiga putur yetkazadi. Shuningdek, asarning oxirgi 32-takti boshqa tonlikda ijro etilishi uni tez o'zlashtirish uchun qiyinchilik hosil qilishi mumkin. Lekin bu jumlar o'zining mazmun xususiyatiga ko'ra talabalar qiziqishini oshiradi. O'qituvchi asarning bu xildagi jihatlariga alohida e'tiyor qaratishi kerak. Ko'pgina o'qituvchilarning bunga yetarlicha ahamiyat bermasligi esa cholg'u ijrochiligidagi eng dolzarb muammolardan biridir. Shu o'rinda, ansamblida o'qitish uslubiyotini takomillashtirish masalasining dolzarbligini aynan shunday kamchiliklarning bartaraf etilmayotganligini qayd qilib o'tish lozimdir.

Ushbu jarayonda talabalarning o'z ijrosini eshitgan holda tanqidiy baholash, asarning qiyin joylarini sekin sur'atda chalib o'rganishi tavsiya etiladi. Ayniqsa, texnik jihatdan murakkab bo'laklarini turli shtrixda va surinkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari vositasida asarni sekin sur'atda chalish uni o'zlashtirib olishga katta yordam berishi mumkin. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligiga tegishli artikulyatsiyaning legato, stakkato, glissando, portamento kabi turlari mavjud bo'lgan jummalarni sekin sur'atda chalib o'rganish musiqa asarini badiiy va ta'sirli chiqishiga yordam beradi. Shu o'rinda cholg'u asboblarida, jumladan ansambl shaklida chalish jarayonida tez-tez ko'zga tashlanib turadigan ba'zi kamchiliklarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ulardan biri applikatura masalasidir. Gap shundaki, musiqa cholg'u asboblarini ijro qilganda ansamblning barcha a'zosi cholg'u pardalariga barmoqlarni bir me'yorda to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibiga to'liq rioya qilmaydi. Bunday holatda asarni texnik jihatdan o'zlashtira olmaslik vujudga kelishi mumkin. Shuningdek, cholg'u pardalariga barmoqlarni bir me'yorda to'g'ri qo'yish va almashtirishdagi kamchiliklar tufayli asarning milliy bezaklari noto'g'ri, ba'zan noo'rin talqin etilishi oqibatida asar ijrosi jozibali chiqmaydi.

Kamchiliklardan yana biri, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llay olmaslikdir. Buning oqibatida kuyning mazmun-mohiyatiga putup yetadi. Asarlarning ma'lum bir cholg'u yoki boshqa bip ijro uchun yozilganligi cababli, ansamblida asarning asl nusxasi ijrosini ta'minlash aynan to'g'ri tanlangan ijro shtrixlari orqaligina amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Bunday asarlar ayniqsa, jahon kompozitoplari ijodiyoti namunalarini trio, kvartet, kvintet, sekstet va boshqa ansambl turlari ijrosida o'rganishda ko'p uchraydi.

Cholg'uchi-sozanda musiqa asarining kichik bo'laklari ustida qunt bilan ishlashi bilan bir qatorda uni bir butunligini hech qachon esdan chiqapmasligi kepak. Ayrim yetuk mutaxassislar asarni ba'zi-ba'zida butunicha chalib tasavvurni yanada boyitib borish mumkinligini aytadilar. Bu jarayondagi ijro davomida esa me'yop tushunchasi ustoz va shogirdning diqqat markazida bo'lmog'i lozim, deb hisoblaydilar .

Uchinchi bosqich. Bu bosqich o'z xususiyatiga ko'ra musiqiy asar ustida ishlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Unda asarning barcha qismlariga oid badiiy maqsadlari o'rganiladi. Jo'p bo'luvchi tovushlar yod olinadi. Badiiy vazifaning pirovard natijalari aniqlanadi. O'rganilgan qismlarni bip butun holga keltirish va ijro ifodasini takomillashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda, shuningdek, asarni barcha artikulyatsiya talablariga to'liq rioya qilgan holda ijro etish muhim omil hisoblanadi. Shunga ko'ra, ansambl ijrosi bilan uning

hamohanglik darajasini chuqur his qilgan holdagi umumiy bip butun ijpo amalga oshiriladi. Bu bosqichning muhim vazifalari - cholg'ular ansambli jo'rligini ta'minlash, asap dinamikasi va jummlarning to'liq ochib berish, asap tezligi ustida diqqat bilan ishlash hisoblanadi.

Asarni yod olish jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib bir qator omillarni bajarib borishni talab etadi. Jumladan, bu jarayonda ijrochining musiqiy eshitish qobiliyati, tovushlar vositasida ifodalanadigan musiqiy-badiiy obrazni his etish, sezish, asarni mantiqiy tuzulmasini qalbdan yod olishlar ishga solinadi. Talabalarning asar ustida ishlashda erishgan yutuqlarini magnet tasmasi yozuvi vositasida eshittirish va shu orqali musiqiy-badiiy ifodalilikni yanada chuqurroq anglatish mumkin.

Ma'lumki, musiqiy asarni hap bir sozanda o'zining his-tuyg'ulari orqali o'z talqinida ijpo etadi. Shu sababli unga hissiy talab qo'yilmasligi mumkin. Lekin ansambl ijrochiligi barcha sozandaning his-tuyg'usini bir maqsadda jamlanishini talab etadi. Ansamblda musiqiy asap ustida ishlash jamoaviy xususiyatga ega bo'ladi va bu jarayon hap bip talabaning qobiliyati, ularning ijpo imkoniyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. O'qituvchi ansambl faoliyatini o'z uslubi asosida tashkil etib asarning mazmun-mohiyatini ochib berishda barcha talablarga to'liq rioya qilishi kerak, albatta.

Shunday qilib, asar ustida ishlash muhim amaliy bosqichlardan iborat bo'lib quyidagilarga alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ansamblda ijro etuvchi har bir talabaning cholg'uda ijpo etish holatini to'g'ri shakllantirish;
- cholg'ularda tovush hosil qilish va jamoaviy ijro ko'nikmalari ustida ishlash;
- ansambl ijrochilarining applikator talablariga to'liq rioya qilishga odatlantirib borish;
- artikulyatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilish va uning talablarini to'g'ri bajarish;
- asarning musiqi-badiiy obraziga tegishli barcha ijpo yo'nalishlarini o'zlashtirish;
- talabalarda ijpo madaniyatini shakllantirish borasida jiddiy ish olib borish;
- talabalarda turli millat va xalqlar musiqa asarlaridagi musiqiy bezaklarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash mahoratini muntazam oshirib borish;
- talabalarda musiqa asarlari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish;

- ijpo texnikasini o'rtirish ustida muntazam ishlash.

Ansambl faoliyati jarayonida musiqa asarlarini o'rgatish uchun quyidagi usullarni qo'llanishini tavsiya etamiz:

- suhbat, hikoya usuli orqali talabalarda o'rganilayotgan musiqa asariga nisbatan muayyan qiziqish uyg'otish;
- musiqa asarini cholg'u asbobida jonli ijro etib tushuntirish;
- asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini tushuntirib berish;
- asarni shakli, xarakteri, musiqiy tuzilmasi haqida tushuncha berish;
- asarni jummalarga bo'lib o'rganish;
- asarni musiqiy-badiiy ijrosi ustida ishlash;
- ijroni baholab borish va xulosalar qilish.

Xalq cholg'ularida musiqiy asarlar ustida ishlash muhim pedagogik jarayonlaridan ekanligini his etgan mutaxassislar o'z ustida muntazam ishlab o'zlarining bilim va mahoratlarini oshirishlari hamda zamonaviy cholg'u ijrochilik san'ati yutuqlaridan boxabor bo'lib borishlari zarur.

Ansambl faoliyati natijalarini namoyish etishda o'qituvchi va talabalarning roli

Ansambl mashg'ulotlari davomida olib borilgan o'quv-uslubiy va tarbiyaviy ishlar bilan turli konstert yoki tadbirlarda chiqishlar ma'lum darajada farq qiladi. Musiqa asari talabalar tomonidan to'liq o'zlashtirib olinganidan keyingina uni sahnaga ijro etish ma'qul hisoblanadi. Ansambl ishtirokchilari orasida shunday talabalar bo'ladiki ular o'zining bilim, malakasiga ishonib to'laqonli o'zlashtirib olmagan asarni sahnaga chiqqanda jamoa bilan birgalikda xatosiz ijro etaman deb uylaydi. Bu xato, albatta. Chunki sahnaga chiqib, tomoshabin qarshisida turib ijro etish mashg'ulotdagidek imkoniyat, vaziyat, shart-sharoitlar bo'lmaydi. Mashg'ulotlar jarayonida kamchiliklarni bartaraf etish, asar mazmun-mohiyatini ochish uchun vaqt yetarli bo'ladi. Lekin konstert davomida asar qanday ijro etilishidan qat'iy nazar bir marotoba ijro etiladi. Shu nuqta nazardan ham konsert, ansambl mashg'ulotlari davomida amalga oshirilgan barcha ishlarning yakunini ko'rsatish darajasi hisoblanadi. Shuning uchun konsertda ijro etiladigan asarni barcha ijrochilar o'ta ziyraklik bilan chalishi va ansambl ijrosining umumiy sadolanishida o'z mahoratini to'liq namoyish etishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi esa ansamblagi barcha ijrochilarda ko'tarinkalik kayfiyatni hosil qilishi, ularni o'z kuchlariga ishontira olishi, sahnada qo'rqqmasdan, o'zlarini dadil tutib har qanday his-hayajonni yo'q qilib, erikinlik bilan asarni ijro etish orqali

uning badiiy maqsadini tinglovchilarga yetkazishlariga harakat qilishlariga undashi kerak.

Ansambl ijrochilarining o'qituvchining har bir ko'rsatmasining aniq va sifatli bajarishi ular o'rtasidagi o'zaro ishonchni, bir-birini tushunib asarning mazmun-mohiyatini, badiiy g'oyasini to'laqonli ifodalab berishni ta'minlaydi. Zero, hech bir narsa butun ansambl jamoasi samimiyligini, o'qituvchi ko'rsatmalarini o'ta e'tiborlik va ma'suliyat bilan bajarishini ommaviy konsertga chiqishdagidek ta'minlay olmaydi. Konserda ansambl jamoasi asar ijrosini har tomonlama ifodali bo'lishiga, o'z ijrosini yanada ta'sirli chiqishiga harakat qiladi. Buning uchun, albatta, ansambl mashg'ulotlari davomida asar ijrosiga jiddiy yondashib, uning mukammal ijrosini ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan qaraganda, asar ijrosiga jiddiy yondashib, uning mukammal ijrosini ta'minlanishi o'qituvchi bilan ijrochilar orasida o'zaro ijodiy hamkorlikning vujudga keltiradi.

Konsertdan oldin yoki konsert vaqtida kutilmagan voqea sodir bo'lganda ansambl ijrochilari o'zlarini boshqara bilishi, kutilmagan voqeani his-hayajonsiz, o'zlarini erkin tutib bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Chunki har qanday kutilmagan voqea yoki hodisa ijrochilar kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, natijada ular ijro vaqtida o'z hayajonini bosolmay turli xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Kutilmagan voqealarni oldini olish yoki ularni kamaytirishga yoki sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun, ansambl ijrochilarining konsertga chiqishini nafaqat ijodiy tomonlarini to'g'ri hal etishga e'tibor qaratish, balki tashkiliy tomonlarni yaxshi bo'lishiga ham tayyorlash kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, asarni yod olish sahna ijrosi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Gap shundaki, asarni yod olib shunchaki ijro etish emas, balki uning mazmun-mohiyatini tomoshabinga tushunarli, yoqimli tarzda yetkazish kerak. Shu bois o'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida asar ijrosini har tomonlama puxta o'rgatishni ta'minlashini unutmasligi zarur. Shuningdek, talabalarni sahna ijrosi paytidq o'zlarini xotirjam, har qanday his-hayajonsiz tutushga odatlantirib borish choralari ko'rib borishi maqsadga muvofiq. Zero, sahna ijrosi yoki kam sanoqli tomoshabin qarshisida nafaqat yosh ijrochilar, hatti tajribali, mohir sozandalar ham oz bo'lsada hayajonlanadi. Lekin birgina hayajon sababli sahna ijrosida kamchiliklar sodir bo'ladi, deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi, albatta. Ansambl mashg'ulotlari jarayonida musiqa asari ijrosi qanchalik puxta o'rganilgan bo'lsa uning sahnaviy ijrosi ham shunchalik nafis, go'zal, chiroyli bo'ladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sahnadagi ijroning muvoffaqiyati qaysi asarni birivchi bo'lib ijro etishga bo'g'liq bo'ladi. Yaxshisi, dastlab, talabalar yaxshi o'zlashtirib olgan, o'ta qiziqib ijro etadigan, sho'xroq, jozibali asar ijrosi bilan boshlash ma'qul. Bu, talabalarning o'z kuchiga, ijro mahoratiga bo'lgan ishonchini shakllantiradi, navbatdagi asarlarni ishonch bilan, mohirona ijro etishga zamin yaratadi. Ba'zi tajribali sozandalar konsert dasturining dastlabki chiqishida o'ta tez, jadal, murakkab asar ijrosi bilan boshlashni ma'qul ko'radi. Ularning fikricha

konsertning boshlang'ich jarayonlarida kuch yetarli darajada bo'ladi, oxirgi qismlarida esa charchash alomatlari sodir bo'ladi va shu sababli jadal, tezkor asarlarni me'yoriga yetkazilib ijro etilmasligi mumkin. Bu balki to'g'ridir. Lekin talabalarda o'ta ishonch bilan asarni sahnada ijro etish tajribasi ularda hali yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Ikkinchi tomondan qaraganda, konsertning so'ngi qismlarida yosh talabalarda charchash alomatlari sodir bo'ladi, albatta.


Aralash cholg'u asboblari ansamblining sahnaga chiqib asarlarni ijro etishida ba'zibir qoidalari borligi amaliyotdan ma'lum. Talabalar asar partiyasini garchi yoddan bilsada, lekin konsert vaqtida, albatta, partiyadan foydalanib asarni ijro etishi maqsadga muvofiq. Chunki ijrochilar jo'rovlik qilayotgan vaqtda ba'zi ijrochi, ayniqsa solo ijrochisi matnini yoddan chiqarib qo'yishi va shu sababli ijro buzilishi mumkin. Bunday holat sodir etilganda ansamblning boshqa ijrochilari ham qanday yo'l tutishga qiynalib qoladi. Ijrochilar bunday holatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan chiqib ketishi uchun ham partiyalar ularning puliti ustida bo'lishi shart. Ijrochi xatosini o'z vaqtida tuzatish esa ularning eng ajoyib sifatlaridandir. Ansamblning butun faoliyatini musiqiy-pedagogik jihatdan to'g'ri boshqarib borish uchun o'qituvchi o'z bilimi, mahorati va malakasini oshirib borishi zarur. Bu o'z navbatida, ansamblning badiiy jihatdan o'sishiga katta yordam beradi.

TO'RTINCHI QISM

Unison ansambl ijrosi uchun asarlar

SEGOH MAQOMIDAN "GARDUN"

M.M. ♩ = 108
1-xona




7 2-xona




13



19



25 Bozgo'y



3-xona



Bozgo'y



4-xona



Bozgo'y



Bozgo'y

The first two staves of music are in treble clef. The first staff begins with a 3/4 time signature, followed by a 2/4 time signature, and ends with a 3/4 time signature. The second staff continues the melody with a 2/4 time signature and ends with a double bar line.

ROK QASHQARCHA

o'rtacha tez

The first staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It features a series of eighth notes and quarter notes.

The second staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It continues the melody with eighth and quarter notes. A measure number '4' is written above the first measure.

The third staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It features a quarter rest followed by eighth and quarter notes. A measure number '8' is written above the first measure.

The fourth staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It continues the melody with eighth and quarter notes. A measure number '11' is written above the first measure.

The fifth staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It features eighth and quarter notes, including a measure with a quarter rest. A measure number '15' is written above the first measure.

The sixth staff of music is in treble clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). It continues the melody with eighth and quarter notes, including a measure with a quarter rest. A measure number '19' is written above the first measure.

23

Musical staff 23: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents.

27

Musical staff 27: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents.

31

Musical staff 31: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents. Trills (*tr*) are indicated above the notes.

35

Musical staff 35: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents. A dynamic marking *mf* is present with a hairpin.

39

Musical staff 39: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents.

43

Musical staff 43: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents.

47

Musical staff 47: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents. First and second endings are marked with *1.* and *2.*

51

Musical staff 51: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and quarter notes with slurs and accents.

55

59

63

a tempo

f

66

70

74

78

82

118



122



125



128



132



136



139



VATAN

Marcia ♩ = 120

T.Sodiqov

mf

11

f

21

p

31

p

41

f

51

f

61

f

72

f

82

f

91

Musical staff 91: Treble clef, key signature of one sharp (F#), starting with a treble clef. The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs.

101

Musical staff 101: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs.

111

Musical staff 111: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs. A dynamic marking *f* is present below the staff.

121

Musical staff 121: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs.

132

Musical staff 132: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs.

142

Musical staff 142: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs. A dynamic marking *f* is present below the staff.

152

Musical staff 152: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs.

158

Musical staff 158: Treble clef, key signature of one sharp (F#). The staff contains a sequence of eighth and sixteenth notes with various ornaments and slurs. A dynamic marking *ff* is present below the staff.

Go`zal

Moderato ♩=80

Sadriiddin Gulov musiqasi

Cholg`u ansambli



mf

G`ig`g`ak solo



p



Cholg`u ansambli



mf


G`ig`g`ak solo



mf



Cholg`u ansambli



Nasri Segoh

O'zbek xalq musiqasi.

Moderato

The musical score is written in a single system with 13 staves. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 4/4. The piece begins with a dynamic marking of *mf*. The notation includes various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. The score concludes with a first ending (marked '1.') and a second ending (marked '2.').

Samoi Dugoh

Dugoh maqomidan

Shoshilmasdan

- b) musiqiy asarning ijrosida badiiy ifodaviyligini ko’zlab ayrim joylarda tezligini biroz o’zgartirish*;
- c) musiqiy asarning badiiy ifodaviyligi dinamikasi;
- d) musiqiy asarning cholg’u ijrosi ifodasi.

Milliy sozlarida nota asosida o’qitish dastlab 1936 yilda qaysi bilim yurtida yo’lga qo’yiladi?

- a) Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida*;
- b) M.Ahrafiiy nomidagi Buxoro musiqa bilim yurtida;
- c) Samarqand musiqa bilim yurtida;
- d) Qo’qon musiqa bilim yurtida;

1923 yilda “Milliy musiqa to’garagi” ansambli kimning tashabbusi bilan tashkil etilgan?

- a) T.Jalilov tashabbusi bilan;*
- b) Yu. Rajabiy tashabbusi bilan;
- c) Uspenskiy tashabbusi bilan;
- d) A.I.Petorosyans tashabbusi bilan.

Akkord” bu...

- a) tovushlarning birin-ketin yangrashi;
- b) tovushlarning turli balandlikdagi o’rni;
- c) tovushlarning almashinib turishi
- d) uch va undan ortiq tovushlarning bir vaqtda yangrashi.*

1973 yildan e’tiboran qaysi ansambl faoliyat yurita boshlagan?.

- a) "Go'zal" vokal-xoreografik ansambli;*
- b) “Lazgi” ashula va raqs ansambli;
- c) Maqomchilar ansambli;
- d) Cholg’uchilar ansambli.

Kreshendo (<) so’zining lug’oviy ma’nosi..

- a) asta-sekin kuchaytirib;*
- b) asta-sekin pasaytirib;
- c) asta-sekin sekinlatib;
- d) asta-sekin harakatlantirish.

“Risolayi musiqaiy” asarining muallifi kim?

- a) Darvesh ali Changiy;*
- b) Farobiy;
- c) Ibn Sino;
- d) Jomiy.

Forte (f) so’zining lug’oviy ma’nosi..

- a) o’rta kuchli;
- b) biroz kuchli;
- c) kushsizga nisbatan kuchli;
- d) qattiq, kuchli*

Piano (p) so’zining lug’oviy ma’nosi..

- a) asta-sekin kuchsizlanish;
- b) sekin, kuchsiz;*
- c) asta-sekin kuchaytirish;
- d) birdaniga kuchaytirish.

Shorahim Shoumarov nechanchi yilda Toshkentdagi “Namuna” maktab-internati qoshida xalq cholg’ulari ansamblini tuzgan?.

- a) 1919 yilda;*
- b) 1920 yilda;
- c) 1921 yil;
- d) 1922 yil.

Sharq musiqashunosligi ilmining asoschisi kim?

- a) Farobiy;*
- b) Darvesh ali Changi;
- c) Marog’iy;
- d) Jomiy

Musiqashunoslikka bag’ishlangan “Musiqqa ilmi” kimning asari?

- a) Ibn Sino;*
- b) Darvesh ali Changiy;
- c) Marog’iy;
- d) Farobiy.

Cholg’ular o’z tuzilishiga ko’ra necha guruhga bo’linadi?

- a) 3 guruhga;*
- b) 4 guruhga;
- c) 5 guruhga;
- d) 6 guruhga.

Dinamika so’zining lug’oviy ma’nosi ..

- a) tovushlarning past-balandligi;
- b) tovushlarning uzun-qisqaligi;
- c) tovushlarning kuchli-kuchsiz ijrosi*
- d) tovushlarning ketma-ketligi.

1946 yilda tashkil etilgan ashula va raqs ansambli qachon tarqatib yuboriladi?

- a) 1957 yilda;*
- b) 1958 yilda;
- c) 1959 yilda;
- d) 1960 yilda.

Orkestr so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- a) musiqa asbobida chalib ashula aytish;
- b) sahna old maydonchasi;*
- c) birgalikda ijri etish;
- d) to'g'ri javob berilmagan.

Milliy cholg'ular ovoz hosil qilish xususiyatlari, tovush tusi, ohangdorligiga ko'ra nechta oilaga bo'linadi?

- a) 5 ta;*
- b) 4 ta;
- c) 3 ta;
- d) 6 ta.

Konsertmeyster bu...

- a) orkestrda guruh rahbari;
- b) jo'rnavoz pianinochi;*
- c) iqtidorli sozanda;
- d) a va b javoblari.

"Partitura" nima?

- a) ko'povozli musiqa asarining nota yozuvi;
- b) ansambl, xor, orkestr uchun nota yozuvi.
- c) bir cholg'u asbobi uchun yozilgan nota matni;
- d) a va b javoblari*.

Sato cholg'usi qaysi guruhga kiradi?

- a) Torli cholg'ular*;
- b) Damli cholg'ular;
- c) Zarbli cholg'ular;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

Chang cholg'usining tovushqatori qanday ataladi?

- a) Xromatik;*
- b) Diatonik;
- c) Frigiy;
- d) Lidiy.

O'zbek xalqining boy musiqa madaniyati, cholg'u san'ati nechanchi asrdan taraqqiy etishni boshlagan?

- a) 9-10 asr;*
- b) 6-7 asr;
- c) 7-8 asr;
- d) 8-9 asr..

“Pitsikato” qanday ijro uslubi?

- a) torli-kamonli cholg’ularda kamonsiz, barmoqlar bilan tirnab chalish uslubi;*
- b) noxunli cholg’u asboblarning chalish uslubi;
- c) doyraning chalish uslubi;
- d) to’g’ri javob berilmagan.

"Shodlik" ashula va raqs ansambli qachon tashkil etilgan?

- a) 1958 yilda;*
- b) 1957 yilda
- c) 1959 yilda;
- d) 1960 yilda.

Udning dastlabki nomi qanday atalgan?

- a) Barbod;*
- b) Tanbur;
- c) G’ijjak;
- d) Dutor

O’zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi dutorchilar ansambli asoschisi kim?

- a) Ganijon Toshmatov;*
- b) Ortiq Otajonov;
- c) Orif Alimaqsumov;
- d) Turg’un Alimatov.

Pul’t (frans. minbar) qanday moslama?

- a) musiqa asbolari qo’yiladigan maxsus moslama*;
- b) nota qo’yish uchun maxsus moslama;
- c) ortiqcha kitoblarni qo’yish uchun javon;
- d) ma’ruzachi hujjatalini qo’yadigan maxsus moslama.

Ar-Roziyning musiqaga oid risolasi?

- a) San’at haqida 12 ta risola;*
- b) Shifo;
- c) Sharq nota yozuvi;
- d) Ilmlar kaliti.

Repetitsiya qanday ma’noni bildiradi?

- a) lot. tilidan olingan qaytariq;
- b) mashq;
- c) tayorarlik;
- d) barcha javoblar to’g’ri*.

Farobiy yashagan davrda chang asbobida nechta sim bo’lgan?

- a) 15 ta;*
- b) 20 ta;

- c) 22 ta;
- d) 17 ta.

Sozanda kim?

- a) Cholg'u ijro qiluvchi, cholg'uchi*;
- b) Musiqachi.;
- c) to'ylarga boradigan qo'shiqchi
- d) a va b javoblari to'g'ri

Toshkentda dastlabki o'zbek xalq cholg'u aboblari ansambli nechanchi yilda tuzilgan?

- a) 1935 yil;*
- b) 1937 yil;
- c) 1934 yil;
- d) 1933 yil.

“Kitob al-musiqa al-kabir” kimni asari?

- a) Farobiy;*
- b) Jomiy;
- c) Ibn Sino;
- d) Urmaviy.

Usta Olim Komilov qaysi cholg'u asbobini mohirona chalgan?

- a) Doyra;*
- b) Rubob;
- c) Dutor;
- d) Chang.

Hozirgi davrda doira usullari nechta nota chizig'ida yoziladi?

- a) 4 ta*
- b) 3ta
- c) 5ta
- d) 2 ta

Turli musiqa asarlaridan olingan parchalar asosida tuzilgan pyesa qanday nomlanadi?

- a) Popuri;*
- b) Raqs;
- c) Ariya;
- d) Pol'ka

Fortepiano cholg'u asbobi qanday cholg'ular turiga kiradi?

- a) Torli klavishli urma cholg'u;*

- b) Urma torli cjolg'u;
- c) Kamonli cjolg'u;
- d) Urma cholg'u.

Ko'p ovozli musiqa turi nima deb nomlanadi?

- a) Polifoniya;*
- b) Sonata;
- c) Unison;
- d) Syuta.

Filarmoniya nima?

- a) Yuksak badiiy musiqa asarlari va ijrochilik san'atini targ'ib etuvchi konsert tashkiloti;*
- b) Qadimiy raqs turi;
- c) Cholg'u asboblari majmuasi;
- d) Teatrshunoslik.

Orkestrni ham ansambl' deyish mumkinmi?

- a) Mumkin*
- b) Simfoniya deyiladi
- c) Ba'zilarini
- d) Mumkin emas

Saraxbori Dugoh qaysi maqom turiga kiradi?

- a) Shashmaqom;*
- b) Xorazm maqomi;
- c) Uyg'ur maqomi;
- d) O'n ikki maqom.

Shashmaqomning birinchi qismi qanday nomlanadi?

- a) Mushkulot;*
- b) Nasr;
- c) Bayot;
- d) Dugoh.

Dutor prima cholg'usining torlari qaysi interval oralig'ida sozlanadi ?

- a) Unison
- b) Tertsiya
- c) Sof kvarta*
- d) Oktava

Maslas so'zining lug'oviy ma'nosi nima?

- a) Ud sozining ikkinchi tori nomi;
- b) Eng yuqori;
- c) Juda kuchli;
- d) O'ta kuchsiz.

1946 yilda "O'zbekdavlatfilarmoniyasi" qoshida qanday ansambl tashkil etilgan?

- a) Ashula va raqs ansambli;*
- b) Dutorchi qizlar ansambli;
- c) Maqom ansambli;
- d) Doyrachilar ansambli.

“Serenada” qanday asar?

- a) muhabbatga yo hurmatga loyiq bo'lgan kishining uyi oldida ijro etiladigan musiqa asari;*
- b) lapar janridagi asar;
- c) simfonik asar;
- d) opera asari.

Transpozitsiya(transponirovka) qanday ma'noni bildiradi?

- a) asarning bir qismi;
- b) tobushlar joyini o'zgartish, boshqa balandlikka ko'chirish*;
- c) asarning sur'ati;
- d) asar tuzulmasi.

Birinchi yaratilgan musiqa ritmining nomi?

- a) Zarbi qadim;*
- b) Durratuttoji qadim;
- c) Risolayi musiqaiy qadim;
- d) Raqs.

Lyutna qanday cholg'u asbobi?

- a) Sharq xalqlarining qadimiy tirnama Ud cholg'u asbobi;*
- b) Dutorning bir turi;
- c) Rubobning bir turi;
- d) Changning bir turi.

“Stakkato” qanday ma'noni bildiradi?

- a) tez chalich;

- b) qisqartirish;
- c) tovushlarni qisqa-qisqa, alohida, ajratib ijro etish*;
- d) tovushlarni cho'zib ijro etish.

Qaysi javobda al'teratsiya belgilari to'liq va to'g'ri belgilangan?

- a) diez, bemol, dubl bemol, bekar.
- b) diez, dubl diez, bemol, dubl bemol,;
- c) diez, dubl diez, dubl bemol, bekar.
- d) diez, dubl diez, bemol, dubl bemol, bekar*.

Frazirovka qanday ma'noni bildiradi?

- a) asari ijrosida dinamik belgilarni bo'rtirib berish
- b) asari ijrosida akkordlarni aniq bo'rtirish;
- c) musiqa asari ijrosida ayrim jummalarni aniq, badiiy bo'rtirib berish*;
- d) asari ijrosi davomida sur'atni o'zgartirib turish.

Intonatsiyay qanday tushuncha?

- a) misiqiy tovushlarni o'zgarib turishi;
- b) badiiy obrazni misiqqa tovushlari bilan to'g'ri ifoda etish*;
- c) ashulachining ovoz kengligi;
- d) cholg'u asbobining ovoz tembri.

Pauza qanday ma'noni bildiradi?

- a) o'tirib dam olish;
- b) ma'lum bir vaqtda to'xtab, keyin yurish;
- c) to'xtash, tinish, dam olish*;
- d) to'g'ri javob yo'q

Bemol'(b) belgisi qanday vazifani bajaradi?

- a) kalit oldida qaysi satrga qo'yilgan bo'lsa osha satrdagi barcha notalarni yarim tonga pasaytirib ijro qilishni bildiradi*;
- b) kalit oldida qaysi satrga qo'yilgan bo'lsa osha satrdagi barcha notalarni yarim tonga ko'tarib ijro qilishni bildiradi;

c) kalit oldida qaysi satrga qo'yilgan bo'lsa osha satrdagi barcha notalarni bir tonga pasaytirib ijro qilishni bildiradi;

d) kalit oldida qaysi satrga qo'yilgan bo'lsa osha satrdagi barcha notalarni bir tonga ko'tarib ijro qilishni bildiradi;

Doyra qanday cholg'u asbob turiga kiradi?

a) tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbobi*;

b) noxun bilan urib chalinadigan cholg'u asbobi;

c) titratib chalinadigan cholg'u asbobi;

d) to'g'ri javob berilmagan.

1961 yilda Toshkent davlat konservatoriyasida qanday ansambl tashkil etilgan?

a) Changchilar ansambli;*

b) Raqs ansambli;

c) Bokal ansambli;

d) Rubobchilar ansambli.

Toshkent davlat konservatoriyasida g'ijjajlardan iborat kvartet ansambli qachon tashkil topadi?

a) 1972 yilda;*

b) 1973 yilda;

c) 1970 yilda;

d) 1971 yilda.

Legato , bu....?

a) bir xil balandlikdagi notalarni o'zaro bog'lanib kelishini bildiradi;

b) turli balandlikdagi tovushlarni alohohida-alohida chalishni bildiradi;

c) To'g'ri javob berilmagan

d) bog'lab, silliqlab degan so'z ma'nosidan olingan bo'lib, bir tovushdan ikkinchisiga to'xtovsiz o'tishni bildiradi*.

Tembr deb nimaga aytiladi ?

a)Tovushning sifat xususiyati, uning rang–barangligi*

b) Tovushning balandligi uning xususiyati

c) Tovushning xususiyati uning pastligi

d) Tovushning xususiyati va uning sifati

Xalq cholg'ulari necha pag'onali teng tempratsiya asosida takomillashtirilgan?

- a) 9 pag'onali
- b) 11 pag'onali
- c) 6 pag'onali
- d) 12 pag'onali*

Divizi qanday ma'noni bildiradi?

- a) qisqarmagan;
- b) kamaytirish;
- c) bo'linish, ajralish* ,
- d) qo'shish.

“Ritm” so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- a) bie tekis oqim*;
- b) tovush balandligi;
- c) tovush uzunligi;
- d) tovush dinamikasi

“Glissando” nima?

- a) bir tobushda ikkinchi tovush ijrosiga barmoqni sakrab o'tish o'tish;
- b) bir tobushda ikkinchi tovushga sekin o'tish;
- c) bir tobushda ikkinchi tovushga sirg'anib o'tish*;
- d) bir tobushda ikkinchi tovushga o'tishda barmoqni pardadan uzib o'tish.

Duet nima?

- a) ikki ijrochidan tuzilgan ansambl;
- b) ikki ijrochga mo'ljallanib yaratilgan musiqa asari;
- c) ikki musiqa janri hamkorligi;
- d) a va b javoblari*.

Qashqar rubobi cholg'usining torlari qaysi interval oralig'ida sozlanadi?

- a) Orttirilgan kvarta;
- b) Oktava;
- c) Sekunda;
- d) Sof kvarta.*

“Arpedjio” qanday ma’noni bildiradi?

- a) Gitarada chalmoq;
- b) Arfada chalmoq*;
- c) Doyrada chalmoq;
- d) Nag’orada chalmoq.

Andijon shahrida faoliyat yuritayotga ansamb qanday nomlanadi?

- a) Meros;*
- b) Sumalak;
- c) Shodlik;
- d) Tanavor.

Ansambl sozandalari ijroni boshlash va tugallashda qaysi sozandaga bo’ysinadi?

- a) Doyrachiga;*
- b) Rubobchiga ;
- c) Dutorchiga;
- d) Fijjakchiga.

Uzoq o’tmishda cholg’ular ansambli ijrosi vositasida xalq raqslariga mansub qanday o’yinlar ijro etilgan?

- a) Barcha javoblar to’g’ri;*
- b) Yelka o’yini;
- c) Bosh o’yini;
- d) Qosh o’yini;

1927 yili Yunus Rajabiy O’zbekiston radio qo’mitasi qoshida 12 kishidan iborat bo’lgan qanday ansamblni tashkil etgan?

- a) Xalq cholg’ulari milliy ansambli;*
- b) Maqomchilar ansambli;
- c) Rubobchilar ansambli;
- d) Changchilar ansambli.

Kamer orkestri boshqa turdagi orkestrlardan nimasi bilan farq qiladi?

- a) Cholg’ular miqdori bilan;*
- b) Cholg’ularning nihoyatda ko’pligi bilan;
- c) Ijroda doyradan foydalanmasligi bilan;
- d) Dirijyor boshqaruviga ega emasligi bilan.

"Lazgi" ashula va raqs ansambli qachon tashkil etilgan?

- a) 1958 yilda;*

- b) 1959 yilda;
- c) 1960 yilda;
- d) 1961 yilda.

“Triol” - bu?

- a) bir notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl;
- b) uch notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl*;
- c) olti notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl;
- d) ikki notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl.

Y.Rajabiy nomidgi ansambl qanday ansambl deyiladi?

- a) Maqomchilar;*;
- b) Ashula va raqs;
- c) Folklor;
- d) Cholgʻu asboblari.

1946 yilda "O'zbekdavlatfilarmoniyasi" qoshida qanday ansambl tashkil etilgan?

- a) Ashula va raqs ansambli;*;
- b) Cholgʻu ansambli;
- c) Folklor ansambli;
- d) Maqomchilar ansambli.

GLOSSARIY

Abbreviatura (it. abbreviatura, lot. brevis – qisqa, - nutq yoki yozuvda qisqartirish) – nota yozuvini qisqartirish va o'nyalashtirish belgilari.

Avj (arab.- cho'qqi, baland) – 1. *Musiq*a asarining eng yuqori cho'qqisi, *pardasi*.
2. O'rta asr “*O'n ikki maqom*” tizimidagi ma'lum *sho'ba* nomi. Yaqin va O'rta Sharq xalqlari mumtoz musiqasida kichik, o'rta va katta (yuqori) avjlar ajratiladi.

Agogika (лот. Agoge – yurgizish, erishtirish) – musiqiy asarning ijrosida badiiy ifodaviyligini ko'zlab ayrim joylarda tezligini biroz o'zgartirish.

Adanter, tovush olgich (lot. *adapto* - moslashtiraman) – gramplastinkadagi ovozni qaytadan tiklash (eshittirish) maqsadida mexanik tebranishni elektr tebranishga aylantirish uchun ishlatiladigan moslama.

Ajam – o'zbek, tojik xalqlari musiqqa merosidagi cholg'u kuylari.

Akkord (ital. *akkordo*, frans. *akkord*, lot. *akkordo* - birdamlik) – uch va undan ortiq *tovushlarning* bir vaqtda yangrashi.

Allargando (it. *allyargando*) – kengaytirib, vazminlashtirib ijro etish.

Ambushyur (frans. *embouchure* – puflama cholg'u asbobining mundshtugi, teshik; *bouche* – og'iz) – puflama musiqqa colg'ulari ijrosida lab, til, yuz mushaklari harakati va holati.

Animato (ital. *animato*, - jonli) – musiqada jonli, hisli ijro etilish ko'rsatkichi.

Ansambl (fr. Ensemble - birgalikda)- 1. Vokal yoki cholg'u musiqqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi. 2. Bir to'lda san'atkorlarning bir butun badiiy jamoa holda chiqishi. 3. U qadar katta bo'lmagan xonanda yoki sozandalar jamoasi uchun yaratilgan musiqqa asari. Ijrochilar soniga qarab bu ansambllar turlicha ataladi. Ikki ijrochi – *duet*, uch ijrochi – *trio* yoki *terstet*, to'rt ijrochi – *kvartet*, besh ijrochi – *kvintet*, olti ijrochi – *sekstet*, etti ijrochi – *septet*, sakkiz ijrochi – *oktet* va h.k. Ba'zan ansambl so'zini orkestr yoki xor jamoasining kichraytirilgan turiga ham aytiladi.

An'anaviy soz – ajdodlarimiz qo'llagan, ko'p holda diatonik tovushqator tartibida tuzilgan qadimiy sozlar

Akademik soz – qayta ta'mirlanib pardalar xromatik tartibda keltirilgan aksariyat holda nota bilan chalishga moslashtirilgan cholg'ular turi.

Ango – arfasimon musiqa asbobi

Applikatura (nem. *Applicatur* - qo'yimoq, bosmoq) – musiqa cholg'u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to'g'ri qo'yish va almashtirish tartibi. Bu tartibning notalarda ko'rsatilishi ham applikator deyiladi. Applikator arab raqamlari bilan notalarning osti yoki ustiga qo'yiladi.

Artikulyatsiya (lot. *articulation, artikulo* – bo'linish, parchalanish) – nutq harakati unsurlari; chalish yoki kuylashda *tovush* hosil qilishning uslublari; talaffuzning aniqligi.

Vibratsiya (lot. *vibratio*- titrash, qaltirash) – tovushni to'lqinlatish.

Garmoniya (yun. *harmonia* – bog'lanish, mutanosiblik, *ohangdoshlik*) – musiqiy ifoda vositasi bo'lib, ko'p ovozlilikning har qanday tuzilishi (*gomofonik, polifonik*)da tovushlar ohangdoshligi va uyg'unlashuvi.

Gastrol – (nem. *Gast* – mehmon va *rolle* - rol) – yakkaxon, yakkanavoz san'atkor yoki jamoa (*teatr, ansambl, xor* va b.)ning boshqa shahar, chet mamlakatlarga safar qilib konsert berishi, tomosha ko'rsatishi.

Gruppetto – to'rt notadan tarkib topgan kuychan shakl. Ijro etilishida yuqori yordamchi (asosiy tovushdan sekunda yuqorida bo'ladi), asosiy tovush, pastki yordamchi (asosiy tovushdan sekunda pastda joylashgan) va yana asosiy tovush ijro etiladi.

Detashe (fpans. *detache, detacher* – bo'lish, ajratish). Torli-kamonchali cholg'u asboblarda har bir tovush kamonchani bir tomon (past yoki yuqoriga) tortilishida olish (ijro etish).

Diapazon (yun. *Diapason* – barcha (torlar) orqali)– xonandaning ovozi, cholg'u asbobining tovush hajmi. Musiqiy matodagi eng pastki va eng yuqorigi tovush oralig'i.

Diatonika (yun. *Diatonikos* – bir tondan ikkinchi tonga o'tish) – ladning asosiy bosqichlari izchilligidan vujudga keladigan musiqiy tovushlar tizimi. Tabiiy major, minor va o'rta asr lادلari uchun asos bo'lgan asosiy etti pog'onadagi ton va yarim tonlar diatonikaga kiradi.

Diatonik gamma – laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi. To‘liq diatonik gammada ettita tovush bo‘ladi.

Divizi (it. *divisi* – bo‘linish, ajralish, qisqartirilgani – *div.*) – orkestrdagi torlikamocha bilan chalinadigan cholg‘u asboblarda bir to‘da ijrochilarni ikki yo bir necha bo‘laklarga bo‘lib, har bir bo‘lingan to‘dani qo‘sh nota yoki akkord tovushlaridan birini ijro etishi. Qachonki divizi tugab birgalikda chalishi lozim bo‘lsa, *unison* (qisqachasi- *unis*) yoki *non divisi* – ya‘ni bo‘linmasdan, birgalikda deb yoziladi.

Dinamika (yun. *Dinamikos* - kuchli) – musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi. Dinamika tovushni turlicha ifodalash, ya‘ni bir yo‘la qattiq yoki sekin, asta-sekin kuchaytirish yoki sekinlashtirish, ayrim tovushlarni alohida ta‘kidlab eshittirish v.b. bildiradi. Dinamikaning asosiy turlari: *forte* - qattiq, kuchli; *piano* – sekin; *crescendo* – tovushni asta-sekin kuchaytirish; *diminuendo* – tovushni astasekin pasaytirish.

Dirijyor (frans. *diriger* – yo‘lga solish, boshqarish) – *orkestr*, *xor*, *ansambl* va boshqalarga musiqachi-rahbar. Musiqa asarlarini ijro etishla, asosan, maxsus qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatib boshqaradi.

Duet (ital. *duetto*, ital va lot. *duo* - ikki) – ikki ijrochidan iborat bo‘lgan **musiqiy ansambl** yoki ushbu ansamblga yozilgan asar.

Zarb (fors-toj. - urush) – o‘zbek **musiqa** san‘atida torli (*dutor*, *tanbur*) va urma (*doira*, *nog‘ara*) cholg‘ularida *tovush* chiqarish uchun qo‘l harakati bilan maxsus urushni bildiradigan atama.

Intonassiya (lot. *intonation*, *intono* – qattiq aytaman, ohangli aytaman) – ohang; nutq va *musiqada* o‘ziga xos ohang. Musiqani aniq, sof va tiniq ijro etmoq.

Interval (lot. *Intervallum* – oraliq, masofa) – ikki musiqiy tovush o‘rtasidagi oraliq. Bunda tovushlar bir vaqtda yangrasa *garmonik interval*, birin-ketin yangrasa – *melodik interval* deb ataladi. Asosiy intervallar – *prima*, *sekunda*, *terstiya*, *kvarta*, *kvinta*, *seksta*, *septima*, *oktava*.

Kamerton (nem. *Kamerton*, *Kammer* – uy, xona, ton - *tovush*) – cholg‘u va xonanda ovozini aniq va ma‘lum bir balandlikka sozlash maqsadida ishlatiladigan asbob.

Kanon (yun. *kanon* – qoida, nusxa) – bir kuyni imitatsiya asosida bir necha *ovozda* oldin-ketin qaytariladigan ko‘p ovozli *musiqa* shakli.

Koda (ital. coda, lot. cauda - dum) – ayrim *musiq*a asarlarining oxirida keladigan qoʻshimcha qism boʻlib, bu asarning tuzilish shaklini aniqlashda hisobga kirmaydi. Koda musiqa asarining oxirgi qismi asosiy tonallikda kadans bilan tugalgandan soʻng, bu tugallanishni yanada mustahkamlaydi. Koda tonika akkordi bir necha marta qaytarilishi yo mukammal kadans akkordlarining kelishi bilan mustahkamlaniladi. Baʼzan subdominanta doirasi tomon modulatsiya ogʻishmasi boʻlishi mumkin. Koda miqdori aniq boʻlmay, bir ncha akorddan - keng bir tuzulishga qadar boʻlishi mumkin. Bunday holatda asosiy mavzu materiali qoʻllaniladi.

Con brio (kon brio, ital. jonli) – *musiq*a ijrochiligiga tegishli ifoda vositasi.

Con moto (ital. harakatchanlik bilan) – *musiq*a ijrochiligiga tegishli tezlik va ifoda belgisi.

Con fuoco (ital. oʻtday yonib) – **musiq**a ijrochiligiga tegishli mazkur ifodalilikni belgilash uchun koʻrsatma.

Konsertmeyster (nem. Konzertmeister – *konsert* ustasi) – 1. *Orkestrda* guruh rahbari. 2. Joʻrnavozi *pianinochi*.

Kuy, melodiya (qad. Turk. “koʻch”, xitoy. “цюй” – *ohang* soʻzidan; yun. melodia, rus. “melodiya” – kuykash, qoʻshiq, ashula) – musiqada bir ovozli tuzilma, badiiy tugalgan fikr, asosiy vositasi. Kuy, melodiyaning asosiy xususiyati – *tovushlarning* past-balandlik yoʻli.

Lad – turgʻun va noturgʻun musiqiy tovush pogʻonalarining oʻzaro bogʻliqligiga asoslangan tovushlar tizimi. Zamonaviy musiqada etti pogʻonali major va minor ladlari asosiy ladlar hisoblanadi.

Liga (lot. liga – bogʻlayman) – *tovushlarni* bir-biriga bogʻlab ijro etishni koʻrsatadigan yoysimon belgi. Bir xil balandlikda liga bilan bogʻlangan *notalar* qoʻshilgan holda ijro etiladi.

Lira (lot. lyra) – qadimgi yunon torli tirnama cholgʻu asbobi. Barcha xalqlarda u yoki bu koʻrinishlarda lira cholgʻusi mavjud. Uning tasviri xalqaro *musiq*a sanʼati ramziga aylangan. Oʻtmishda liraning har xil tirlari boʻlgan.

Madhiya (arab. – maqtov, taʼrif), **Gimn** (yun. humnos) – tantanali olqishlovchi *qoʻshiq*, badiiy-ramziy maʼnoga ega asar, qoʻshiq.

Maestro (ital. maestro - ustoz) – asosan, *katta musiqachilar, dirijyorlar*, sanʼatkorlarga nisbatan ishlatiladi.

Mezrob, mizrob, mediator, plektr, noxun (arab. – urish quroli, lot. mediato – vositachi, yun. plektron, plesso - uraman) – torli tirnama cholgʻularni (rubob, tanbur, sato, ud va b.) chertish uchun fil, toshboqa, plastmassa, metal, yogʻoch, qattiq teri, xalqa tirnoqdan tayorlangan har xil maxsus kichik moslamalar.

Modulyatsiya (lot. modulation – rioya qilish, it. modulazione – modulyatsiya, ovozni mavj urdirish, tovushlash) – musiqa asarida bir tonallikdan ikkinchi tonalikka koʻchish. Yangi tonalikka koʻchish ohista, maʼlum tayorgarlikdan soʻnggina emas, kutilmagan holda, qoqqisidan boʻlishi ham mumkin.

Monodiya (yun. monos – bir, ode – qoʻshiq) – birovlik zaminida boʻlgan *musiq*a sanʼati.

Monoxord (yun. monos – bir, chorde - tor) – 1. Yakka torli musiqa chogʻularning umumiy nomi. 2. Qadimiy Yunonistonda va Rimda keng tarqalgan musiqiy cholgʻu, akustika uskunasi.

Mordent (ital. mordent – uzib oladigan, oʻtkir) – *musiq*ada muayan bezak belgisi, asosiy va unga qoʻshimcha *tovushlarni* tez chalishni koʻrsatadi.

Motet (frans. motet, mot – soʻz) – koʻpovozli *vokal*, *vokal-cogʻlu*, *xor musiqasi* janri. Fransiyada 12-asrda paydo boʻlgan.

Nama (arab. - kuy) – *musiq*a *tovushi*, musiqa, *ohang*, kuy.

Nola (arab. – yeigʻlash) – oʻzbek musiqasida kuy bezaklaridan biri. Kuylaganda ovozni tebratib choʻzish.

Nyuans - (frans.-*nuance* -- ohang, tus)-- tovush ohangdoshligi. Musiqada dinamik va tovushlarning eshinish xarakterini oʻzgartirish belgilari. Masalan, *dolce* - mayin, muloyim, *appassionato* –serzavq va boshqa nyuansni qoʻllash bilan ijro qilinadigan musiqa asarining shakli, ayrim joylarini boʻrttirish yoki aksincha, sekin berilishiga, shuningdek, ijrochilik mahoratiga bogʻliq.

Orkestr (yun. Orchestra - qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) - turli cholgʻu asboblarda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Cholgʻu asboblarning tarkibiga koʻra orkestrlarning turlari: *simfonik* – toʻliq tarkibdan iborat, *torli* – kamonli cholgʻular, *damli* - yogʻoch va mis damli cholgʻular, *shovqinli* - urmazarli cholgʻular, shuningdek, milliy cholgʻulardan tuzilgan – Xalq cholgʻulari orkestri.

Ohang (fors-toj. – tovush, nama, kuy) – koʻp qirrali va mazmundor atama boʻlib, *musiq*ada koʻp ovozlik, ugʻunlik, kuy, *nama*, musiqaning boʻyoni, xarakteri,

intonatsiyasi va boshqalarni ifodalab beruvchi tushuncha.

Partitura (it. *partitura* – bo‘lingan, taqsimlangan) – ansambl, xor, orkestr uchun yozilgan ko‘p ovozli musiqiy asarning nota yozuvi. Unda barcha ovozlarning partiyalari jamlangan. Partiturada partiyalarning taqsimlanib kelishi yuqoridan quyi tomon turdosh cholg‘u asboblari bo‘yicha keladi. O‘z navbatida, bir turdagi cholg‘ularning eng yuqori registrga mansubi yuqorida, qolganlari registri bo‘yicha pastki satrlarda yoziladi.

Partiya (musiqada)– 1. Ansambl qatnashchilaridan birining nota yozuvi. 2. Sonata shaklining ekspozitsiyasida asosiy mavzular bosh partiya, yordamchi partiya, yakunlovchi partiya sifatida keladi.

Pitsikato (ital. *pizzicare* – tirnolib) – torli-kamonli cholg‘ularda kamonsiz, barmoqlar bilan tirnab chalish uslubi.

Polifoniya (yun. *polus* – ko‘p, *phone* - tovush) – ikki va undan ortiq, nisbatan mustaqil kuy va *ovozlar* uyg‘unlashuviga asoslangan ko‘p ovozli musiqa turi. Maxsus musiqa ta‘limi muassasalarida o‘qiladigan fan.

Portamento (it. *portamento* – ko‘chirmoq) – 1. Torli-kamonchali cholg‘u asboblarda va ashula aytganda bir tovushdan ikkinchisiga siranib o‘tish. Portamento natijasida kuyning ohangdorligi mukammallashadi. 2. Ritmik va dinamik bir tekis va cho‘zib ijro etishni ko‘rsatuvchi belgi.

Portato (it. *portato, portare* – ta‘kidlamoq, ifodalamoq) – torli-kamonchali cholg‘u asboblarda ayrim tovushlarni bo‘rttirib “har nafasda” ijro etilishi. Odatda *portato* musiqa asarini *rubato* sur‘atida ijro etilganda qo‘llaniladi.

Registr (lot. *Registrum* – ro‘yxat, lot. *registum* - yozib qo‘yish, topshirib qo‘yish) – musiqiy matoda ohang yoki fakturani tovushqatorlarning yuqori, o‘rta yoki pastki qismlariga mansubligi bo‘yicha ajratish.

Rezonans (frans. *resonance*, lot. *resono* – aka-sado berman) – tovush to‘lqinini qaytarish, aka-sado. Asosiy tovush beruvchi jismning boshqa tovush beruvchi jismlarni to‘lqinga keltirish yo‘li bilan tovushni kuchayishi.

Rekonstruktsiya (lot. *Re* – «yangilanish» ma‘nosini bildiruvchi so‘z yasovchi qo‘shimcha, va *constructio* - tuzilma) - qadimiy musiqiy cholg‘ularni qayta tiklash. Ushbu atama zamonaviy musiqiy cholg‘ushunoslikda xalq cholg‘u asboblari tiklash va orkestrga mansub turlari (pikkolo, alt, bas va b.)ni yaratish ma‘nosida qo‘llaniladi.

Repertuar (frans. *repertoire* – ro'yxat) – yakka sozanda, ashulachi yoki ansambl, orkestr, teatr jamoalarining ijro etiladigan jami asarlari.

Repetitsiya (lot. *repetito* - qaytariq) – mashq, tayorarlilik.

Sibizg'a – qamishdan yasalgan nay turidagi cholg'u asbobi bo'lib, cho'ponlar orasida qo'llanilgan. 1920-yillarda xalq o'rtasida "Mis nay"ni sibizg'a deb ham atalgan.

Sinkopa - (ital. yun. *synkope*- qisqartirish) - qattiq chalinadigan (aksentli) notaning odatdagi kuchli hissadan kuchsiz hissaga ko'chishi.

Skertso (it. *scherzo* - hazil) - jonli, xushchaqchaq xarakterdagi cholg'u musiqa pessi.

Soz (turk-fors.) – 1. Musiqada tovushlarning past-balandligi holati va munosabati. 2. Musiqa cholg'ularining umumiy nomi. 3. Torli tirnama musiqa cholg'u asbobi. Ozarbayjon, Eron, Turkiya va b. mamlakatlarda tarqalgan. 4. Xorazmda garmon shu nom bilan yuritiladi. 5. Orkestr va ansambllar sozi shu jamoadagi cholg'u asboblarning bir-biriga bo'lgan balandlik munosabatlariga ko'ra sozlanadi..

Sozanda – 1. Cholg'u ijro qiluvchi, cholg'uchi. 2. Musiqachi. 3. Xorazmda surnay va doyralardan tuzilgan ansambl.

Sozanda yo'llari – Xorazmda kichik hajmdagi kuy va ashulalar shu nom bilan ataladi, ya'ni sozanda kuylari.

Solo (it. *solo* – bir, yakka) – bir ijrochining yakka o'zi ijro etishi; ansambl, xor, orkestrda eng muhim partiya ijrosi.

Sonata dueti – ikki cholg'u (ansambl) ijrosi uchun yozilgan sonata.

Stakkato (it. *staccato* – ajratilgan, alohida) – tovushlarni qisqa-qisqa, bir-biridan pauzalar bilan ajratib ijro etish. Stakkato har bir notaning ust yo ostiga qo'yilgan nuqta yoki *staccato* deb yozilgan so'z bilan ko'rsatiladi. Torli-kamonchali asboblarda *staccato* kamonchani qisqa harakatlar bilan uzib-uzib chalinadi. Stakkatoning turlari – *saltando*, *spiccato*, *sautille* kabilardir.

Surdina (it. *sordo* – sekin, past) – cholg'u asboblari tovushini pasaytirish uchun qo'llaniladigan maxsus moslama. Torli-kamonchali cholg'u asboblarda xarak ustida torlarga kiygiziladigan taroq shaklida bo'ladi, bu orqli torlarning tebranishi qisqarib, tovush past chiqadi.

Tabulatura (lot. *tabula* – taxta, jadval) –cholg'u musiqani harf, raqam va maxsus belgi bilan yozish tizimi (notadan oldingi davr). Ushbu tizim Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarda 13-asr, Xorazmda 19-aasr oxirida ma'lum bo'lgan. Evropada

tabulatura 14-18-asrlarda rivojlangan. Shuningdek, klavishli cholg'ular uchun to'plamlar tabulatura deyiladi.

Tembr (fr. *tembre* - qo'ng'iroq, ajratish belgisi) – tovush tusi, har bir musiqiy cholg'u yoki xonanda ovozining o'ziga xos tovush xarakteri. Cholg'u asbobining tuzilishi va shakliga ko'ra uning tembri turlicha bo'ladi.

Temperatsiya (lot. *Temperatio* – to'g'ri munosabatda, bir o'lchamda) –musiqiy pog'onalar oralig'idagi intervallar munosabatining tengligi. Oktava oralig'ining teng 12 yarim tonga bo'linishi bir tekis temperatsiya bo'ladi.

Tembr (frans. *timbre*) – tovush sifati, tusi, bo'yoi. Tovush, ovoz tembrlar farqi – ular bilan birga sodir bo'ladigan *oberton* (qo'shimcha tovushlar) miqdori, sifati va tovush hosil bo'ladigan joyi (formantalari)ga boliq bo'ladi.

Temp, sur'at (ital. *tempo*, lot. *tempus* - vaqt) – musiqiy asar ijrosining tezlik darajasi. *Nota yozuvida* 17-asrdan boshlab ital'yancha atamalar qabul qilingan. Asosiy sur'atlar, tezlanish tartibida: *grave*, *largo*, *adagio*, *lento* (sekin sur'atlar); *andante*, *moderato* (o'rtacha sur'atlar); *animato*, *allegro*, *vivo*, *presto* (tez sur'atlar). Sur'atni aniq o'lchash uchun *metronome* uskunasi ishlatiladi.

Tessitura (it. *tessitura*) – cholg'u asbobi yoki kishi ovozining biror musiqa asarida ishlatiladigan eng pastki va yuqorgi tovushlari oralig'I (hajmi).

Tovushqator – cholg'u asbobida chalinishi yoki kishi ovozida aytilishi mumkin bo'lgan tovushqator. U yuqori ko'tarilayotgan yoki quyi tushayotgan qator tovushlar tizmasida tuziladi.

Transpozitsiya (lot. *Transponere* – joyini o'zgartmoq) – tovushlarni boshqa balandlikka ko'chirish. Transpozitsiya turli sharoitda qilinadi: yozilgan musiqa asari xonanda ovoziga noqulay bo'lsa; bir cholg'u asbobdan ikkinchisiga ko'chirish zarurati bo'lsa; yozilgan notalar o'qish uchun noqulay bo'lsa. Mazkur hollarda musiqa asarini bir tonallikdan ikkinchi tonallikka transpozitsiya qilinadi; bunda uning xarakteri, ritmi va boshqa unsurlari o'zgarmaydi. Transpozitsiyalanuvchi cholg'ular – kuy ijro etilganida nota yozuvida yozilganiga ko'ra past yoki baland tovush bilan yangraydigan cholg'ular. Masalan, qashqar rubobi, afg'on rubobi yangrashiga nisbatan bir oktava yuqori yoziladi. Qadimiy nay cholg'umizning yangi turi - Nay pikkolo esa yangrashiga nisbatan bir oktava past yoziladi.

Trel' (ital. *trillare* – titratmoq, tebranmoq) – musiqa bezagi, melizm. Trel'(tr) – belgisi qo'yilgan nota yonidagi bilan birin-ketin tez va uzluksiz qaytarilib chalinadi.

Tremolo (ital. tremolo – titrab turuvchi) – torli, klavishali va b. musiqa cholg'ularida qo'llaniladigan ijro uslubi. Bir tovush, interval yoki akkordning ko'p marta tez-tez qaytarib chalinishi.

Tutti (ital. tutti - hamma) – musiqa asarining orkestr yoki xorda butun jamoa bir vaqtda ijro etiladigan qism lavhalari.

Unison (it. unisono – bir xil sado) – bir xil balandlikdagi ikki (yoki bir necha) tovushning bir vaqtda yangrashi.

Usul (arab. “asl” so'zidan – asos, qonun) – uslub, yo'l, *ritm*, *sur'at*, *temp* va uning andozasi. Sharq musiqa san'ati va musiqa nazariyasida usul – bu musiqiy ritm asoslarining umumiy tushunchasi. Musiqada usul – turli *zarblarning* almashinib kelishi, doira va *nog'oralarda* ijro etiladigan zarb tuzilmalari. Eng murakkab usullar maqomlarda uchraydi. Usul – Sharq musiqasining asosi va muhim ifoda vositalaridan biri, uning ritmoformulasidir.

Fanfare (frans. fanfara) – qadimiy puflama mis *musiqa* chg'u asbobi, ventilsiz trubasimon. Tantanali yoki jangovor signal.

Formanta (lot. formantis – hosil qiluvchi) – tovushning xususiyati, tusi, sifatini tashkil qiluvchi joyi (asosan, *rezonatorlar*).

Forshlag (nem. Vorschlag, vor – oldindan, Schlag - zarb) – *musiqada kuy* bezagi. Ikki qo'shni tovushni birin-ketin juda tez ijro etish, bir hissa vaqtda.

Frazirovka – musiqa asari ijrosida ayrim *jumlalarni* aniq, badiiy bo'rttirib berish; har bir ijrochi (cholg'uchi yo ashulachi)ning o'ziga xos ijro uslubi va xarakteri, ya'ni frazirovkasi bo'ladi.

Xromatizm (yun. Chroma -rang) – diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o'zgarishi. Ular alterastiya belgilari – diez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir pog'onadagi ikki turli tovushdan tuziladi. Masalan, «do» va «do-diez».

Xromatik gamma – kuyning yarim tonlar bo'yicha baland-pastga izchil harakati. To'liq xromatik gamma 12 tovush (yarim ton)dan iborat. Gammadagi xromatik va diatonik yarim tonlarni tartibli almashinib kelishi lad tuzilishi (major va minor) va harakat yo'nalishi (yuqorilanishi yoki pasayishi)ga bog'liq. Xromatik gamma diatonik gammadagi butun ton pog'onalarini ko'tarish yoki pasaytirish yo'li bilan to'ldiriladi.

Shtrix (nem. Strich - chiziq) – *musiqa* cholg'ularida tovush chiqarish uslubi (legato – bog'lab, detache – ajratib, staccato – uzib-uzib, spiccato – uzib, ajratib, pizzicato – tortqilab chertmoq va b.).

Qonun – changga o‘xshash qadimiy musiqa asbobi. Uni barmoqlar bilan tirnab chalinadi. 17-asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan “Risolai musiqiy”da Qonunni qadimiy cholg‘u asboblardan ekanligi qayd qilinadi.

Qo’sh qars - o‘zbek raqslarida chalinadigan doyra usuli.

Qo’shtor – dutorning har ikki torini bir xil balandlikda (unison) sozlanishi. Qo’shtot sozi dutorni yakka chalganda va ayrim cholg‘u asarlarni ijro etganda qo’llaniladi. Qo’shtor qilib chalinganda dutor tovushi birmuncha baland eshitiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovnligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoyev SH. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 592 b.

5. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, - B.38.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 20 noyabrdagi PQ – 2435-sonli “Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016-2020 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 20 oktyabrda chiqarilgan “O‘zbekiston musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 1995. 21 oktyabr.

9. Abduraximova F. Orkestr sinfi. – Toshkent. 2012.

10. Беляев В.М. Узбекское Народные музыкальное творчество. -Т.: Изд.Лит.и искусства им.Г.Гуляма, 1976. -234 с.

11. Boltazoda S.S. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg‘ular. Toshkent: “Musiq”, 2008. – 136 b.

12. Гинзбург Л.С. О работе над музыкальным произведением. -4-е изд. доп. – М.: Музыка, 1981. – 143 с.
13. Do'stov S. Cholg'u ijrochiligi va ansambli (O'quv qo'llanma). – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durдона nashriyoti, 2019. -240 b.
14. Ithomov M.A. Cholg'u ijrochiligi. Toshkent. “Mehnat”, 2010.
15. Капустин Ю. Музыкант – исполнитель и публика: Исслед. – Л.: Музыка, 1985. – С.13-35.
16. Karimov O.I. Cholg'u ijrochiligi va ansambl (O'quv qo'llanma). - – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durдона nashriyoti, 2019. -189 b.
16. Nurmatov H., O.Fayziyev “Cholg'u ijrochiligi rubob”(O'quv qo'llanma). T.: 2009.
17. Odilov A. O'zbek cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toshkent: “O'qituvchi”, 1996. - 128 bet.
18. Петросянц А. Узбекские народные инструменты. – Ташкент. 2000.
19. Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. Toshkent: “O'qituvchi”, 1997. – 112 bet.
20. Rahimov Sh. Cholg'ulashtirish va partitura o'qitish (O'quv qo'llanma). Toshkent. 2009.
21. Rahimov Sh. Cholg'u ijrochiligiga o'rgatish metodikasi (O'quv qo'llanma). Toshkent. 2009.
22. Rahimov Sh. Yusupov Sh.S. Cholg'u ijrochiligi. Toshkent. 2012.
23. Rahimov Sh. Saidov A. Cholg'u ansambli. Toshkent. 2012.
24. Rahimov Sh., Nurmatov H. “Cholg'u ijrochiligi tarixi” (O'quv qo'llanma). T.: 2009.
25. Ruziyev D. Orkestr ijrochiligi (O'quv qo'llanma). – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durдона nashriyoti, 2020. – 204 b.
26. Saidiy S.B., Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish asoslari. Toshkent. “Musiqqa”, 2016.
27. Saidiy S.B. O'zbek xalq cholg'ulari uchun partitura va klavirlar. Toshkent. “Musiqqa”, 2015.
28. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). –T.: Moliya nashriyoti. 2003.

29. Toshpo‘latova I.S. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor). O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. (o‘zbek tilida). - T., 2017. – 123 bet.
30. Fitrat A O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. –T., 1993. – 57 b.
- 31.Халилов Ф.А. Дидактические основы инструментально-исполнительской подготовки будущих учителей музыки: - Дисс...докт.пед.наук.-Т., 2001.-216 с.

MUNDARIJA

Pedagogik annotatsiya

Kirish.....

BIRINCHI QISM

Ansambl haqida umumiy tushuncha.....

Ansambl sinfida ta’limning maqsadi va vazifalari.....

Ansambl sinfi fani bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar.....

Cholg’ular ijrochiligining tarixiy taraqqiyoti.....

Ansambl jamoalari va san’atining rivojlanish bosqichlari.....

IKKINCHI QISM

Ansambl turlari va ularda ijrochilik.....

Bir xil cholg’ulardan tashkil topgan ansambl.....

Turdosh cholg’ular ansambli.....

Turli cholg’ulardan tarkib topgan aralash ansambl

Duet, trio, kvartet, kvintet, sekstet, septet, oktet, nonent ansambllari.....

O‘zbek xalq cholg’u asboblarning xususiyatlari.....

Ansamblda ijro etish qoidalari.....

Ansambl faoliyatini boshqarish.....

Ansambl mashg’ulotlarini o’tkazish uchun tavsiya va ko’rsatmalar.....

Ansambl ijrochiligida mahoratni o’stirish masalalari.....

UCHINCHI QISM

Ansamblda asarlarni o'rgatish jarayonini loyihalash.....

Musiqqa asarlari ustida ishlash.....

Ansambl faoliyati natijalarini namoyish etishda o'qituvchi va talabalarning roli

TO'RTINCHI QISM

Unison ansambl ijrosi uchun asarlar

Segoh maqomidan "Gardun"

Rok qashqarcha. O'zbek xalq kuyi

Vatan. T.Sodiqov musiqasi.....

Go'zal. S.Gulov musiqasi

Nasri segoh. O'zbek xalq kuyi

Samoi Dugoh. Dugoh maqomidan.....

Dilxiroj. O'zbek xalq kuyi

Dutor bayoti. O'zbek xalq kuyi. E.Shukrullayev qayta ishlagan.....

Shahlo. R.Tursunov musiqasi

O'rik gullaganda.

Saboh 1. O'zbek xalq musiqasi.....

Fortepiano jo'rligida ijro etiladigan asarlar

Chorgoh. A.Boboyev musiqasi

Farg'onacha. O'zbek xskq musiqasi. A.Odilov qayta ishlagan. S.Usmonov qashqar rubobiga moslashtirgan.....

Melodrama. A.Haydarov musiqasi

Pomir lirik qo'shig'i. Y.Sabzanov musiqasi

Mangu harakat.S.Aleskerov musiqasi

Xayol. S.Gulov musiqasi

Chaman ichra. O'zbek xalq kuyi. B.Giyenko qayta ishlagan.....

Dilxumor. A.Haydarov musiqasi

Bahor valsi. M.Mirzayev musiqasi

Aralash tarkibli ansambl ijrosi uchun asarlar	
O'zbekiston valsi. H.Rahimov musiqasi	
Qilpillama. V.Saparov o'zbek xalq kuyi asosida	
Vals. S.Rahmatov musiqasi	
Shabada. A.Nabiyev musiqasi	
Barkarolla. F.Shubert musiqasi	
Umid. E.Salixov musiqasi	
Antonida romansi. M.Glinka musiqasi	
Струнный квартет (Clair de lune. CLAUDE DEBUSSY. arr. Glynn Davies)...	
Bolalar valsi. A.Haydarov musiqasi	
Родные просторы. Музыка Н.Будашкина. Переложение К.Азимова	
Qoraqalpoq raqsi. A.Haydarov cholg'ulashtirgan	
Go'zal o'lkam. A.Haydarov musiqasi	
Nazorat savollari.....	
Glossariy.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

Оглавление

Педагогическая аннотация
Введение

ЧАСТЬ ПЕРВАЯ

Общее понятие об ансамбле
Цели и задачи ансамблевого обучения
Требования к знаниям, умениям и навыкам студентов по предмету ансамблевого класса
Историческое развитие инструментального исполнительства
Этапы развития ансамблевых коллективов и творчества

ЧАСТЬ ВТОРАЯ

Типы ансамблей и исполнение в них
Ансамбль из одноименных инструментов
Ансамбль родственных инструментов
Смешанный ансамбль из разных инструментов	
Дуэт, трио, квартет, квинтет, секстет, септет, октет, нонет
Особенности узбекских народных инструментов
Правила исполнения в ансамбле
Управление ансамблем
Советы и рекомендации по проведению ансамблевых занятий
Вопросы повышения навыков игры в ансамбле.....

ЧАСТЬ ТРЕТЬЯ

- Проектирование учебного процесса в ансамбле.....
- Работа над музыкальными произведениями
- Роль преподавателей и студентов в презентации результатов ансамбля....

ЧАСТЬ ЧЕТВЕРТАЯ

Произведений для исполнения унисонного ансамбля

- «Гардун» из макома Сегох.....
- Рок кашгарча. Узбекская народная мелодия
- Ватан(Родина). Музыка Т.Садикова
- Гузал (Красавица). Музыка С.Гулова
- Насри Сегох. Узбекская народная мелодия
- «Самой дугох» из макома Дугах
- Дилхирож. Узбекская народная мелодия
- Дутор баёти. Узбекская народная мелодия. Обработка Э.Шукруллаева....
- Шахло. Музыка Р.Турсунова
- Урик гуллаганда.
- Сабох 1. Узбекская народная музыка

Произведений исполнение под аккомпанемент фортепиано

- Чоргох. Музыка А.Бабаева
- Фаргонача. Узбекская народная музыка. Обработка А.Адилова.
Инструментовка для кашгарского рубаба С.Усманова
- Мелодрама. Музыка А.Хайдарова
- Памирская лирическая песня. Музыка Я.Сабзананова
- Мангу харакат(Вечная движения) Музыка С. Алескерова.....
- Хаёл(Грёза). Музыка С.Гулова
- Чаман ичра. Узбекская народная мелодия
- Дилхумор. Музыка А.Хайдарова
- Бахор вальси(Вальс весны). Музыка М.Мирзаева.....

Произведение для смешанного ансамбля	
Вальс Узбекистана. Музыка Х.Рахимова	
Килпиллама. В.Сапаров на основе узбекской народной мелодию.	
Вальс. Музыка С.Рахматова	
Шабада(Прохладный ветерок). Музыка А.Набиева	
Баркаролла. Музыка Ф.Шуберта	
Умид(Надежда). Музыка Э.Салихова	
Романс Антонида. Музыка М.Глинки	
Струнный квартет (Clair de lune. CLAUDE DEBUSSY. arr. Glynn Davies)...	
Болалар вальси(Вальс детей). Музыка А.Хайдарова	
Родные просторы. Музыка Н.Будашкина. Переложение К.Азимова	
Каракалпакский танец. Инструментовка А.Хайдарова.....	
Гузал улкам. (Красивый мой край). Музыка А.Хайдарова	
Контрольные вопросы	
Глоссарий	
Использованная литература	